

***O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI***

**BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA
INSTITUTI**

“Xorijiy tillar” kafedrasi

Azimova N.F.

O‘zbek tili

Buxoro 2013

***O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI***

**BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA
INSTITUTI**

“Xorijiy tillar” kafedrası

Azimova N.F.

O‘ZBEK TILI

**Nofilologik oliy o‘quv yurtllarining rus
guruhi talabalari uchun o‘quv qo‘llanma.**

Buxoro 2013

Ushbu o'quv qo'llanma "Xorijiy tillar" kafedrasining umumiy yig'ilishida muhokama qilinib, institut uslubiy kengashiga tavsiya qilindi. Majlis bayoni №1 22-avgust, 2013-yil.

Tuzuvchi: Bux MTI

"Xorijiy tillar" kafedrasi katta
o'qituvchisi **Azimova N.F.**

Taqrizchi:

Bux DU "Ozbek filologiyasi" kafedrasi professori,
filologiya fanlari nomzodi **Abuzalova M.Q.**

Bux MTI "Informatika va axborot texnologiyalari"
kafedrasi dotsenti, fizika matematika fanlari
nomzodi Yodgorov O. .

O'quv qo'llanma **Bux MTI** Uslubiy Kengashining " 29"
avgust _2013 - yil Bayon №1 raqamli majlis bayoni bilan chop
etishga tavsiya etildi.

SO‘Z BOSHI

Mustaqillikka erishgan o'zbek xalqining milliy ona tili bo'lmish - o'zbek tiliga davlat maqomi berilgan kundan buyon o'tgan vaqt ichida o'zbek tili fanini o'qitishga, o'rganishga bo'lgan munosabat tubdan o'zgardi. Respublikaning barcha shahar va viloyatlaridagi o'rta, o'rtamaxsus, oliy o'quv yurtlarida, qolaversa, davlat muassasa va tashkilotlarida respublika hududida yashovchi turli xil millat vakillari uchun ochilgan o'zbek tilini o'rgatuvchi kurslarda bu ish keng ko'lamda olib borilmoqda.

Hozirgi kunda respublikamizdagi barcha oliy o'quv yurtlarining rus guruhlarida o'quvchi talabalar o'zbek tilini asosiy fan sifatida o'rganmoqdalar.

Texnika oliy o'quv yurtlarining rus guruhlarini bitirib chiqayotgan yuqori malakali bakalavrlar ishlab chiqarish tarmoqlarining qaysi birida ishlamasin, hamsuhbatining o'zbek tilidagi gaplarini tushunadigan, o'z fikrini shu tilda bermalol ifoda eta oladigan bo'lishlari kerak.

Mazkur uslubiy ko'rsatma asosan amaliy qismdan iborat bo'lib, u badiiy-ilmiy va texnikaviy adabiyotlar materiallari asosida qayta ishlangan matnlar, shu matnlarga tuzilgan lug'at va grammatik topshiriqlardan tashkil topgan. To'plamga rus guruhlar talabalarini o'zbek xalqining tili, adabiyoti, san'ati va madaniyati, tarixi hamda milliy an'analariga oid ma'lumotlardan kengroq boxabar qilish maqsadida o'zbek tili bo'yicha chop etilgan darslik va qo'llanmalarda berilgan matnlardan farqli ravishda o'zbek xalqidan yetishib chiqqan adabiyot, san'at, madaniyat va fan arboblari hayoti va ijodiy faoliyatiga, shuningdek, texnikaga oid mavzular asosida tuzilgan matnlar kiritildi.

Muallif.

1 – Mashg‘ulot **O‘zbek tili – Davlat tili**

1 – mashq. Qavs ichidagi so‘zlarni tarjima qilib, gaplarni ko‘chirib yozing.

1. XV asrda o‘zbek adabiy tili (возник). 2. Farhod shaxmatdagi yurish yo‘llarini (основал). 3. O‘zbek tilining ham boy tillardan biri ekanini Alisher Navoiy (практически) isbotlab, (теоретически) asoslab berdi. 4. O‘zbek tilini yaxshi bilishimiz kerakligini (все хорошо знают). 5. O‘zbek tili oltoy tillari oilasining turkiy guruhiga (входит). 6. O‘zbek adabiy tilining (развитие) Alisher Navoiyning xizmatlari juda katta.

2 – mashq. Quyidagi gaplarni o‘qing, lug‘atdan foydalanib rus tiliga tarjima qiling.

1. O‘zbekiston Respublikasining davlat tili o‘zbek tilidir. 2. O‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi respublika hududida yashovchi millat va elatlarning o‘z ona tilini qo‘llashdan iborat konstitutsiyaviy huquqlariga monelik qilmaydi. 3. O‘zbekiston Respublikasida yashovchi shaxslarga ta‘lim olish tilini erkin tanlash huquqi beriladi. 4. Davlat hokimiyati va boshqaruv organlarida ish davlat tilida yuritiladi va zaruriyatga qarab boshqa tillarga tarjima qilinishi ta‘minlanadi. 5. O‘zbekiston Respublikasining qonunlari, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining boshqa hujjatlari davlat tilida qabul qilinadi va e‘lon qilinadi. Bu hujjatlarning tarjimalari boshqa tillarda ham e‘lon qilinadi. 6. Lavhalar, e‘lonlar, narxnomalar va boshqa ko‘rgazmali hamda og‘zaki axborot matnlari davlat tilida rasmiylashtiriladi va e‘lon qilinadi hamda boshqa tillarda tarjimasi berilishi mumkin. 7. O‘zbekiston Respublikasida davlat tiliga yoki boshqa tillarga mensimay yoki xusumat bilan qarash ta‘qiqlanadi.

3 – mashq. Gaplarni o‘qing, o‘zbek tiliga tarjima qiling, turdosh va atoqli otlarni alohida ajratib yozing.

1. Мы живем в Республике Узбекистан. 2. Республика Узбекистан расположена в Средней Азии. 3. Одними из древних и прекрасных городов Узбекистана являются Ташкент, Бухара, Самарканд, Хива. 4. Столица Республики Узбекистан – Ташкент. 5. В нашей республике дружно живут представители разных национальностей: узбеки, русские, татары, казахи, таджики, корейцы и др. 6. Города нашей республики очень красивые. 7. Абу Али ибн Сино в 15 лет стал известным лекарем. 8. По данным прогноза погоды, завтра будет дождь.

4 – mashq. Donolarning quyidagi fikrlarini va xalq maqollarini o‘qing va rus tiliga tarjima qiling, antonimlarni alohida ajratib yozing.

1. Tilga e‘tiborsiz, elga e‘tiborsiz (A.Navoiy). 2. Bugungi ishni ertaga qo‘yma (A.Navoiy). 3. Mehnat hayot chirog‘iga yog‘ quyadi, tafakkur esa uni yoritadi (Ingliz maqoli). 4. Yaxshi so‘z eshitmoqchi bo‘lsang, yomon so‘z aytma (Arman maqoli). 5. Bilmagandan bilgan yaxshi, to‘g‘ri ishni qilgan yaxshi (Maqol). 6. Aytilgan so‘z, otilgan o‘q (Maqol). 7. Mard bir o‘lar – nomard yuz o‘lar (Maqol). 8. Yurgan daryo – o‘tirgan bo‘yra (Maqol). 9. Yaxshidan bog‘ qoladi, yomondan – dog‘ (Maqol). 10. Odamlar kitob o‘qishdan to‘xtashlari bilan fikrlashdan ham to‘xtaydilar (Deni Didro). 11. Dunyoda kitobdan aziz do‘st yo‘qdir (A.Navoiy). 12. Husn to‘yda kerak, aql kunda kerak (Maqol).

Yer yuzida necha xil til bor?

Olimlarning hisoblashlaricha yer yuzida 2900dan ortiq til bor. Sobiq SSSR hududida joylashgan mustaqil davlatlarning o'zida esa 120 dan ortiq til mavjud ekan. Bu raqamlarning aniq emasligiga hayron bo'lmang. Chunki hali ko'p tillar yetarli o'rganilmagan. Xususan, Afrika va Lotin Amerikasidagi ba'zi xalq va qabilalarning tillari hisobga olinmagan.

Yer yuzida ming kishigina gaplashadigan tillar ham, millionlab kishilar gaplashadigan tillar ham bor. Masalan, xitoy tilida 650 milliondan ortiq, ingliz tilida 265milliondan ortiq, hind va urdu tillarida 150 milliondan ortiq, rus tilida 110 millionga yaqin, ispan tilida 100 millionga yaqin, nemis tilida 90 millionga yaqin, arab tilida 60 millionga yaqin kishi gaplashadi. Chukotka avtonom respublikasida istiqomat qiluvchi chukcha xalqining tilida esa atigi 12 ming kishi gaplashadi.

Jahonda ko'p jihatdan bir-biriga o'xshash va yaqin tillar bor. Masalan, o'zbek, ozarbayjon, qozoq, turkman, qirg'iz, turk, tatar, boshqirdlar bir-birlarining tillarini tushunadilar. Bunday yaqinlik va o'xshashliklar asosida jahon tillari bir necha oilaga bo'linadi.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DAVLAT BAYROG'I

O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'i va uning ramzi bugungi O'zbekiston sarhadida qadimda mavjud bo'lgan davlatlar bilan tarixan bog'liqligini anglatadi hamda respublikaning milliy - madaniy an'analarini o'zida mujassamlashtiradi.

1. Bayroqda aks etgan moviy rang tiriklik mazmuni aks etgan mangu osmon va obihayot ramzidir. Timsollar tilida bu - yaxshilikni, donishmandlikni, halollikni, shon-shuhrat va sadoqatni bildiradi. Binobarin, Amir Temur davlati bayrog'ining rangi ham moviy rangda edi.

2. Bayroqdagi oq rang - muqaddas tinchlik ramzi bo'lib, u kun charog'onligi va koinot yoritqichlari bilan uyg'unlashib ketadi. Oq rang poklik, beg'uborlik, soflik, orzu va xayollar tozaligi, ichki go'zallikka intilishning timsollari.

3. Yashil rang - tabiatning yangilanishi ramzi. U ko'pgina xalqlarda navqironlik, umid va shodumonlik timsoli hisoblanadi.



4. Qizil chiziqlar vujudimizda jo'shib oqayotgan hayotiy qudrat irmoqlaridir.

5. Navqiron yarim oy tasviri bizning tarixiy an'alarimiz bilan bog'liqdir. Ayni paytda qo'lga kiritilgan mustaqilligimiz ramzidir.



6. Yulduzlar barcha xalqlar uchun ilohiy timsol sanalgan. O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'idagi 12 yulduz tasviri ham tarixiy an'alarimiz, qadimgi quyosh yilnomamizga bevosita aloqadordir. Bizning o'n ikki yulduzga bo'lgan e'tiborimiz O'zbekiston sarhadidagi qadimgi davlatlar ilmiy tafakkurida, „Nujum ilmi“ taraqqiy etganligi bilan ham izohlanadi. Davlat bayrog'imizdagi 12 yulduz tasvirini o'zbek xalqi madaniyati qadimiyligi, uning komillikka, o'z tuprog'ida saodatga intilishi ramzi sifatida tushunish lozim.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DAVLAT GERBI

O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi xalqimizning ko'p asrlik milliy davlatchilik tajribasi asosida yaratildi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi gullagan vodiy uzra charaqlab turgan quyosh tasviridan hamda o'ng tomonida bug'doy boshhoqlari, so'l tomonida ochilgan paxta chanoqlari surati tushirilgan chambardan iboratdir.

Gerbning yuqori qismida Respublika jipsligining ramzi sifatida sakkiz qirrali yulduz tasvirlangan: sakkiz qirra ichida joylashgan yarim oy va yulduz musulmonlarning qutlug' ramzidir.

Gerb markazida himmat, oliyjanoblik va fidoyilik timsoli bo'lgan afsonaviy Humo qushi qanotlarini yozib turibdi. Ushbu ramz va timsollar xalqimizning tinchlik, osoyishtalik, yaxshilik, baxt-saodat, eson-omonlik yo'lidagi orzu-umidlarini ifodalaydi.

Gerbning pastki qismidagi respublika Davlat bayrog'ini ifodalovchi uch rangdagi chambar bandida, „O'zbekiston“ so'zi bitilgan.

„Gerb“ so'zining tarixi haqida qisqacha ma'lumot:

„Gerb“ so'zi nemischa, „Erbo“ so'zidan olingan bo'lib, shohlar va hukmdorlarga davlat, sarhad, hudud va boshqa nasldan-naslga meros qoluvchi mulk belgisini anglatadi.



Bundan 2500 yil muqaddam Erondan Oltoyga qadar cho'zilgan ulkan sarhadda hukm surgan qadimgi turk xoni O'g'uzxon davrida ham turkcha, „Tamg'a“ so'zi aynan shu ma'noni bildirar edi.

XII asrning mashhur tarixchisi Rashididdin Hamadoniy, „Tanlangan tarixlar“ nomli kitobida shahodat berishicha, O'g'uzxon o'z mol-mulkini o'g'illariga ulus sifatida kichik davlatlarga bo'lib, in'om etgan. Ushbu davlatlar hukmdorlari ham o'zlarining xonlik tamg'alariga ega edilar. Ko'rinib turibdiki, „Tamg'a“ so'zining ma'nosi nemischa, „Erbo“ so'zining ma'nosiga to'la mos keladi.


2 – Mashg'ulot **FONETIKA. ALIFBO, IMLO VA TALAFFUZ. UNLI TOVUSHLAR VA ULARNING YOZILISHI**

YETTI XAZINA NIMA?

O'tmishda xalqimiz dunyoda odamni boqadigan va boy qiladigan yetti xazina bor deb bilgan. Ular quyidagilar: sigir, asalari, ipak qurti, objuvoz, tegirmon, o'rmon va tovuq.

Xo'sh, bularning nimasi xazina? Qadim zamonlardan beri kishilar shunga e'tibor berishganki, kundalik turmushda ayrim mahsulotlardan qanchalik ko'p foydalanilmasin, ularning o'rni yana muntazam to'lib turaveradi. Masalan, sigir har kuni sut beraveradi, tovuq har kuni tuxum qilaveradi. Objuvoz va tegirmonga don

solib turilsa, to'xtamay moy va un chiqaraveradi. Asalarining boli-yu, o'rmondagi dov-daraxt ham nisbatan tuganmasdir. Avvallari ipak mato bozorda kambag'allarning qurbi yetmaydigan darajada qimmat turgan. Shu sababli ham, ayniqsa, qizlar bor bo'lgan



uylarda ipak qurti boqilgan. Keyin pillani ipakchilardan matoga ayirbosh qilishgan.

Endi nima sababdan yetti xazinaga aynan shu narsalar kiritilganiga kelaylik. Gap shundaki, yetti raqamiga avvaldan alohida e'tibor berilgani sababli bu o'rinda ham xazinalar soni o'sha yetti soniga bog'liq holda yettita deb belgilangan. Odamlar mavjud xazinalardan o'zlariga ma'qullarini tanlab olib yetti xazina deyishgan.

1 – mashq. Gaplarni ko'chiring. Unli tovushlarni ajratib, ostiga chizing.

1. Bilim mehnat bilan tilak g'ayrat bilan go'zal. 2. Odamni katta gavda emas, aql yuksaltiradi. 3. Inson ilm-u hunari va aql – idroki bilan har qanday qushdan baland parvoz qiladi. 4. Bilimdonlikning sir-u asrori g'ayrat hamda matonat bilan o'qish va o'rganishdadir. 5. Bobolarning ulug'vor ishlarini ijodiy rivojlantira olsang, sen baxtiyorsan (R.Usmonov).

2 – mashq. Nuqtalar o‘rniga kerakli harfni qo‘yib ko‘chiring.

1. So‘zni bilib so‘zlasa don...lik sanalur, nod...n so‘zi birla boshtin ayrilur.
2. Zak...vatning ko‘rki so‘zdir, bu tilning k...rki so‘zdir. Kishining ko‘rki yuzdir, bu yuzning ko‘rk... k...zdir (“Qut. bilig”).
3. B...ror narsani yomon bilgandan ko‘ra, but...nlay bilmagan m...’qul.
4. Birinchi o‘zb...k lingvist profess...ri Qori Olim Yunus...v 1920 -yillardayoq ilmiy tadqiqot ishlar...ga keng ko‘lamda kir...shgan edi.
5. Yotishdan oldin og‘...z chay...shni, oyoqni il..q suv bilan yuv...shni un...tmang.

3-mashq. Quyida berilgan so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qiling, ular ishtirokida 10 ta gap tuzing.

Obod, odat, odim, oila, olim, omonat, oqim, orol, oson, ozod, ochiq, og‘ir, podshoh, qassob, qor, qozon, sochiq, toza, bozor, ukki, ulug‘, umid, umuman, urush, uslub, ustoz, uyqu, uzoq, uzum, ushoq, uch, uchqun, mushuk, muchal, quduq, quvur, qum, quruq, buzoq, burun, buyrak, tugun, kukun.

4-mashq. Quyidagi so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qiling va rus tiliga tarjima qiling.

O‘jar, o‘lan, o‘pka, o‘rdak, o‘roq, o‘tkir, o‘zak, o‘g‘il, o‘choq, g‘o‘ra, g‘o‘za, sho‘r, sho‘rva, cho‘mich, cho‘qqi, to‘rt, to‘siq, to‘qay, to‘g‘ri, ro‘yxat, ro‘zg‘or, so‘ri, so‘z, no‘xat, mo‘yna.

3 - Mashg‘ulot

UNDOSH TOVUSHLAR VA ULARNING YOZUVDAGI IFODASI. BO‘G‘IN. URG‘U.

1 – mashq. Berilgan so‘zlarni qiyoslab o‘qing. Farqini tushuntiring.

Qattiq-qattiq, essiz-esiz, tilla-tila, yo‘lladi-yo‘ladi, til-tili-tillik-tilik, nonning-nonning, silla-sila, ellar-elar, medalli-medali, ushshoq-ushoq.

2 – mashq. Berilgan so‘zlarni o‘zbek tiliga tarjima qiling va darak gaplar tuzing

Известный, сотнями, развитый, древний, разный, много исторических памятников, нация, интерес, вкус, секрет, осадок, крепость, колесо, скомкать, запах, сухой, песок, налевать, объём, прыгать, приём, ось, серп, зажим, половник, фарфор, ведро, мешок, лужа, сено, шалаш, куча, крыша, камень, натуральный, тень, навес, петля, редкий, взмах, площадь, кора, корзина.

3 – mashq. Matnni o‘qing. Undosh tovushlarni aniqlab jadvalga joylashtiring.

Bulbullar bu yerda ko‘p bo‘lar ekan. Goho ularning yoqimli yangroq tovushlari havoni to‘ldirib yuboradi. Bulbulni tinglashni sevaman. Kuylari qalbimda allaqanday yoqimli hislarni chayqatib yuboradi. Bulbulning sayrashi dunyoning eng baland lazzati. Bulbul jonivor qushlarning asli... (Oybek).

Lab undoshlari	Til undoshlari				Bo‘g‘iz undosh
	Til oldi	Til o‘rta	Til orqa	Chuqur til orqa	

4 – mashq. Nuqtalar o‘rniga tushurib qoldirilgan harflardan mosini qo‘yib maqollarni ko‘chiring.

1. Eling senga cho‘...sa qo‘l, unga do...m sodiq bo‘l. 2. Yurt boshiga ish tu...sa, er yigit ...ozir bo‘lar. 3. Xalq bor yerda ...og‘lik bor. 4. El boqsa, bax...ing kular, el bo...masa, tax...ing qular. 5. Oz so‘...la , ko‘p ti...gla. 6. Ni...a e...sang, shuni o‘ra...an. 7. Hu...mat qi...sang, iz...at ko‘...asan. 8. Do‘st boshga boqar , dushman oyoq...a. 9. Qi...q yil qiron kelsa, a...ali yet...an o‘lar. 10. Soz boshi –salo..., ish bo...i –intizom. 11. Do‘...ting yuzta bo‘...sa ham oz, dushma...ing birta bo‘lsa ha... ko‘p.

E‘LON.

E‘lon - Kopchilikni yoki ma‘lum guruhdagi shaxslarni yaqin orada(kelgusida) bo‘ladigan biror-bir tadbir, majlis, uchrashuv, yig‘in, bayram, suhbat, shuningdek, o‘qishga, ishga, to‘garaklarga qabul qilish va boshqalar haqida xabardor qilish uchun qo‘llaniluvchi yozma axborot.

E‘lonning zaruriy qismlari quyidagilar :

1. Nomi (E‘lon).
2. E‘lon qilinyotgan tadbirning vaqti, o‘tkazilish joyi.
3. Tadbirning mavzusini va mazmunini o‘zida aks ettiruvchi matn.
4. Imzo (odatda, bo‘ladigan tadbirni e‘lon qilayotgan tashkilot, uyushma, firma, birlashmaning nomi : „Kamolot“ YIH , „Ma‘muriyat“, „Kasaba uyushmasi“, „Dekanat“ tarzida beriladi).

E‘lon.

9-fevral kuni institut talabalar turar joyi, 5-qavatda, A.Navoiy tavalludining 570 yilligiga bag‘ishlangan „G‘azal mulkingning sultoni“ mavzusida adabiy- musiqiy kecha o‘tkaziladi.

Adabiy-musiqiy kecha kun tartibi :

1. **A.Navoiy ruboiylaridan namunalar .**
2. **Qo‘shiq., „Guluzorim“.**
3. **A.Navoiy g‘azallaridan namunalar.**
4. **Sahna ko‘rinishi., „Navoiy va Husayn Boyqaro“.**
5. **G‘azalxonlik musobaqasi(g‘oliblar pul mukofoti bilan taqdirlanadi)**
Bux YUTMTI, „Tillar“ kafedrası.

E‘lon mavzusiga va undan ko‘zlangan maqsadga ko‘ra turli shakllarda bo‘lishi mumkin. Bildirish ham e‘lonning bir turi hisoblanib, uning quyidagi ko‘rinishlari bor :

Talabalar diqqatiga! Talabalar turar joyida kechki kutubxona o‘z ish mavsumini boshladi. Kutubxona yakshanbadan tashqari har kuni soat 17 dan 22 gacha ishlaydi.
Kutubxona ma‘muriyati.

E‘lonlar hamisha ham rasmiy tusga ega bo‘lmasligi, ular hazil-mutoyiba yoki reklama ko‘rinishida tuzilishi mumkin. Konsert, spektakllar, kinofilmlar namoyishi haqidagi e‘lon afisha deb yuritiladi. Afishalar, odatda, badiiy bezakdor bo‘lib, unda ko‘pincha spektakl yoki kinofilm nomidan tashqari, qahramonlar yoki sahna ko‘rinishlari aks ettirilgan suratlar bilan bezab boyitiladi.

ARIZA

Ariza-muayyan muassasaga yoki mansabdor shaxs nomiga biror iltimos, taklif yoki shikoyat mazmunida yoziladigan rasmiy hujjat. Ariza ijtimoiy hayotda eng ko‘p qo‘llaniladigan va keng tarqalgan ish qog‘ozidir. Maktab o‘quvchisi va talaba, ishchi va qehqon, muhandis va olim, xizmatchi va yuqori mansbdor shaxs – jamiyatning barcha a‘zosi ariza yozishdan holi emas. Ariza yozuvchilarning yoshi va ijtimoiy vazifasi turlicha ekan, ariza yo‘llanayotgan muassasalar va idoralar ham xilma-xildir. Arizalar bog‘cha mudirasiga, maktab direktoriga, oliy o‘quv yurti rektoriga, Magazin mudiriga, kolxoz boshqaruviga, qishloq sovetiga, rayon rahbariyatiga – xullas , oddiy

arizachining taklif, iltimos yoki shikoyatini ko'rib chiqib hal qila oladigan har qanday idora, har qanday idora, har qanday boshliq nomiga yozilishi mumkin.

Hajmi, uslubi va turidan qat'iy nazar, ariza o'zining umumiy zaruriy qismlariga ega va u ana shu qismlarning izchilligi asosida tuziladi:

Arizaning zaruriy qismlari:

1. Ariza yo'llangan muassasaning yoki masnabdor shaxsning nomi.
2. Ariza yozuvchining turar joyi, vazifasi, ismi, ota ismi va familiyasi.
3. Hujjatning nomi (Ariza).
4. Asosiy mati (taklif, iltimos, shikoyat).
5. Arizaga ilova qilinadigan hujjatlar nomi (agar zarur deb topilsa).
6. Ariza yozuvchining imzosi, ismi va ota ismining bosh harflari, familiyasi.
7. Ariza yozilgan vaqt (yil, kun va oy)

Shuni eslatib o'tmoq joizki, arizaning zaruriy qismlari barcha arizalarda ham birday takrorlanavermaydi. Masalan, xodim o'zi ishlayotgan korxona yoki idora rahbariyatiga ariza yozganda uning yashash joyi haqida ma'lumot zarur bo'lmaydi. Bunday hollarda xodim o'zi ishlaydigan bo'lim (qism, brigada va hokazo) va lavozimini ko'rsatsa, kifoya. Shuningdek, ko'pchilik arizalar uchun ilovalarning ham xojati bo'lmaydi.

Ariza ham boshqa har qanday rasmiy hujjat kabi aniq va qisqa jumlar bilan tushunarli qilib yozilishi kerak. Hujjat tilining aniqligi, tushunarligi uni tezroq amalga oshishiga xizmat qiladi. Ishchi-xodimlarning ariza va shikoyatlarini o'z vaqtida va diqqat-e'tibor bilan ko'rib chiqish esa boshqaruv idoralarining muhim vazifalaridan biri, demokratik qonunchiligimizning mustahkam garovidir.

Ariza asosan qo'lda yoziladi va uning mazmuni erkin bayon qilinadi. Mazmuni va uslubiga ko'ra arizalar bir xil emas: u bir necha so'zdan iborat bo'lishi ham mumkin yoki keng jamoatchilikni o'ylantirayotgan ijtimoiy masalalar yuzasidan fikr-mulohazalar bildirilgan xat tarzida bo'lishi mumkin. Shu nuqtai nazardan arizalar sodda va murakkab turlarga ajratiladi. Murakkab ariza matni katta bo'lishi bilan birga, unga ilovalar qilinishi mumkin. Arizalar aksar hollarda shaxsiy xususiyatga egadir. Shu bilan birga, xizmat arizasi-fuqarolar yoki tashkilotlarning o'z huquqlarini amalga oshurish yoki manfaatlarini himoya qilish yuzasidan yozma axborotlaridir. Da'vo arizalari ana shunday arizalardandir. Iltimos va shikoyat mazmunidagi arizalar taklif mazmunini aks ettirgan arizalarga hamda da'vo arizalariga nisbatan ko'p qo'llaniladi. Ishga kirish yoki aksincha, ishdan bo'shash, o'quv yurtlariga kirish, muayyan tashkilotlarga a'zo bo'lish haqidagi ariza turlari juda keng tarqalgan bo'lib, ularga albatta zaruriy hujjatlar ilova qilinadi. O'qishga kirish haqidagi arizalar anketa-qolip shaklida har bir o'quv yurtining ichki tartib qoidalariga xususiyatlariga moslab tayyorlangan bo'ladi. O'quv yurtlariga kirish haqidagi anketa-qolip ariza namunasini keltirish shart emas, chunki birinchidan, siz u bilan bevosita tanishsiz (o'qishga kirishdan oldin ariza yozib uni hujjatlar ilovasi bilan qabul komissiyasiga topshirgansiz), ikkinchidan u yerda har bir yozilajak javobning savoli bandma-band keltiriladi.

Talabalarining ta'lim olish jarayonida sharoit taqozosi bilan yozishi mumkin bo'lgan arizalaridan namunalari keltiramiz:

Buxoro Davlat universiteti
Roman-german fakulteti dekani
dotsent A.I.Fayziyevga
1-kurs talabasi Sobirova Nargizadan

ARIZA.

Viloyatdan kelganligim va qatnab o'qishga imkoniyatim yo'qligini e'tiborga olib, menga talabalar turar joyidan o'rin ajratishingizni so'rayman.

2010.14.09.

(imzo)

N.Sobirova .

*Toshkent Davlat pedagogika
instituti boshlang'ich ta'lim metodikasi
fakulteti dekani dotsent B.S.Islomovga
2-kurs talabasi Sodiq Rahmatovdan*

ARIZA.

*Kasalligim tufayli qishki sinov va nazorat ishlarini o'z vaqtida topshira
olmadim Ana shu sinov va nazorat ishlarini topshirishga ruxsat
berishingizni so'rayman.*

Arizamga kasalligim haqidagi ma'lumotnoma ilova qilinadi.

2011.20.02 (imzo) S.Rahmatov.

4 - Mashg'ulot.

So'z tarkibi.

O'ZBEKISTON.

O'zbekiston Respublikasi O'rta Osiyoning markaziy qismida joylashganligini hammamiz bilamiz. U 447, 4 ming kv.km. maydondan iborat. O'zbekistonning poytaxti Toshkent shahri bo'lib, davlat tili o'zbek tilidir. Dunyo xalqlari O'zbekistonni 1991- yil 1-sentabrdan mustaqil davlat sifatida biladi. O'zbekistonning o'z bayrog'i, gerbi, madhiyasi, pul birligi, qurolli kuchlari bor. 1992-yil 8-dekabrda O'zbekistonning yangi Konstitutsiyasi qabul qilindi va bu kun har yili bayram sifatida nishonlanib kelinayapti.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasini dunyoning qariyb barcha davlatlari tan oldi va ular bilan o'zaro elchixonalar ochilib, mustahkam aloqalar o'rnatilmoqda. O'zbekistonning xalqaro obro'yi kundan kunga ortib boryapti.

O'zbekiston yoshlari yangi ochilayotgan universitetlar, institutlar, kollejlarda, litseylarda ta'lim olayotirlar. Yoshlar bilim olish, malaka oshirish, tajriba almashish uchun chet ellarga borib kelmoqdalar.

Respublikamizda o'zbeklar bilan bir qatorda qoraqalpoqlar, qozoqlar, turkmanlar, qirg'izlar, tojiklar, tatarlar, uyg'urlar, ruslar, koreyslar, yahudiylar kabi o'nlab boshqa millat va elat vakillari bir oila farzandlaridek yashaydi. O'zbeklar ham Tojikiston, Qozog'iston, Turkmaniston, Qirg'iziston, Afg'oniston, Saudiya Arabistoni, Turkiya, Xitoy, Suriya, lordaniya, Eron, Iroq, Birlashgan Arab Amirliklari, Misr, Germaniya, Gollandiya, Fransiya, Italiya, Angliya, AQSH, Hindiston, Pokiston, Yaponiya, Tayvan kabi mamlakatlarda yashaydilar.



O'zbekiston qadimiy va boy tarixga ega. Har yili Samarqand, Toshkent, Buxoro, Xiva, Shahrisabz kabi shaharlardagi tarixiy obidalarni ko'rish uchun ko'plab sayyohlar tashrif buyurishadi.

Bu yurtdan yetishib chiqqan Beruniy, Ibn Sino, Forobiy, Muso Xorazmiy, Ahmad Farg'oni, Ismoil Buxoriy, Zamaxshariy, Amir Temur, Alisher Navoiy, Bobur, Mirzo Ulug'bek, Jaloliddin Rumiy, Xoja Samandar Termiziy kabi yuzlab qomusiy allomalarning ilmiy, ijodiy meroslari faqat O'zbekistonda emas, butun dunyo ilm maskanlarida o'rganilyapti.

Respublikamizda 12 viloyat, bir suveren respublika, 130 ga yaqin shahar, minglab qo'rg'on va qishloqlar mavjud. Vatanimiz tuprog'i bebaho konlarga boy, tabiati go'zal, xalqi mehmondo'st. Neft, gaz, ko'mir, oltingugurt, ozokerit, osh tuzi, rux, qo'rg'oshin, mis, volfram, oltin konlari muntazam ishlab turibdi.

O'zbekistonning asosiy ekini paxta va g'alladir. Shuningdek, makkajo'xori, meva, uzum, tamaki va poliz mahsulotlari ham ko'plab yetishtiriladi. Keng yaylovlarda zotdor qo'y va echkilar, qoramol, yilqi, tuya podalari boqiladi. Pillachilik va polizchilik ham rivojlangan sohalardir.

O'zbekiston sanoati rivojlangan mamlakatga aylanmoqda. Elektr quvvati ishlab chiqarish, paxta tozalash, ip, ipak va jun gazlamalar tayyorlash, meva-sabzavotlarni qayta ishlash, yog'-moy kombinatlari, madaniy o'g'itlar ishlab chiqarish, turli xil traktorlar, mashinalar, samolyot, mebel, neftni qayta ishlash, ro'zg'or buyumlari ishlab chiqarish korxonalari mavjud.

1 – mashq. Nuqtalar o'rniga quyidagi so'zlardan mosini qo'yib, gaplarni ko'chiring va qo'shma so'zlarning tagiga chizing.

Yangiyo'l, poliziga, anor, kitob, Angren, Kogon, anjir, toshko'mir, singlisini, g'alla, Nurota, Buxoroda.

1. Tumanlararo musobaqada ... tumani g'olib chiqdi. 2. ... tumanida yog' zavodi bor. 3. ... tumani paxta tayyorlash rejasini muddatidan oldin bajardi. 4. ... ko'mir koni xalqimizga yetkazib bermoqda. 5. Dam olish kuni biz buvamning qovun ... chiqdik. 6. Bizning bog'imizda ... va ... bor. 7. Xalq maqollarinidan

o'rganmoqchiman. 8. Mening buvimda tug'ilgan. 9. Alisher jajji ovutardi. 10. Bu yil hosili mo'l bo'ldi.

2 – mashq. Ikkinchi ustundan birinchi ustundagi so'zlarga mos so'zlar tanlab, qo'shma so'zlar yasang va ko'chiring.

I Ustun

olma
ko'z
g'o'za
besh
sir
mirza
jalol
katta

II Ustun

poya
ariq
daryo
ota
oynak
obod
qo'rg'on
cho'l

Namuna: Olmaota

3 – mashq. Quyidagi sodda so'zlardan juft so'zlar yasang.

Ota	past	idish	salomatlik
katta	kichik	yosh	sovuq
baland	yomon	issiq	shakar
oq	chaqa	shirin	omon
yaxshi	qora	eson	tovoq
bola	ona	sihat	qari

4 – mashq. Quyidagi sodda, qo'shma va juft so'zlar ishtirokida 6 ta gap tuzing.

Savat-savat, paxtazor, sinfdosh, yer yong'oq, mehmondo'st, to'q qizil, qo'l qo'ymoq, sotib olmoq, bir yuz sakson, bola-chaqa, kundan-kunga.

5 – Mashg'ulot.

Leksikologiya.

TOSHKENT

Toshkent shahri qadimda «Choch», «Shosh» nomlari bilan atalgan. XI asrdan Toshkent deb yuritila boshlagan. Toshkent geografik jihatdan qulay yerda joylashgan, iqlim sharoiti ham mo'tadil bo'lganligi uchun dehqonchilik va chorvachilik rivojlangan. Qadimgi Toshkentning atrofi baland va qalin devorli qo'rg'on bilan o'ralgan bo'lgan. Shaharning bo'yi ham, eni ham 6-7 kilometr uzunlikka teng bo'lgan. Yozma manbalar va arxeologik tadqiqotlar shaharning yoshi 2200 yilga yaqinligini tasdiqlaydi.

Shahar devoridan tashqarida eng sersuv yerlar o'zlashtirilib, obod etilgan. Aholi meva, sabzavot va g'allaga zoriqmagan.

Toshkent o'zaro urushlar, qo'zg'olonlar, ko'chmanchi qabilalar hujumlari natijasida bir necha marta vayron qilindi va qayta tiklandi. XIII asrgacha Toshkent qal'a va ichki, tashqi shahardan iborat bo'lib, atrofi bir necha qator mudofaa devori bilan o'rab olindi. Shaharda kulolchilik, o'q-yoy, gazlama, charm mahsulotlari ishlab chiqarish rivojlandi. XV—XVI asrlarda Toshkentda yirik tarixiy ansambllar qad

ko'tardi. XVIII—XIX asrlarga kelib, yanada kengaydi va hududi 15 ming gektarga yetdi. Shahar to'rt daha va yuzlab mahallalarga bo'lingan. Shaharga 12 darvoza orqali kirilgan.



Toshkent 1930-yildan O'zbekistonning poytaxti deb e'lon qilindi. Keyingi yillar ichida Toshkentning qiyofasi tubdan o'zgardi. Tor, qing'ir ko'chalar o'rniga keng va elektrlashtirilgan yorug' xiyobonlar barpo etildi, ko'p qavatli binolar qurildi. Ayniqsa, 1966- yilgi zilziladan so'ng Toshkent tanib bo'lmas darajada o'zgardi. Shahar maydoni kengaydi, uning chegarasidan 67 kilometrli aylanma yo'l o'tkazildi. 1977-yili O'rta Osiyoda yagona bo'lgan Toshkent metrosi ishga tushdi. 1985-yili bo'yi 375 metrli ulkan teleminora qurildi. 18 qavatli Ma'muriy bino, Mustaqillik maydoni, «Paxtakor» stadioni, «O'zbekiston», «Chorsu» kabi mehmonxonalar, Navoiy, Muqimiy, Hamza teatrlari, Xalqlar do'stlig saroyi, Rassomlar uyi, Oliy Majlis, Milliy bank, Xalqaro anjumanlar, Matbuot uyi binolari, Adabiyot, A.Temur muzeylari Toshkentni yanada ulug'vor ko'rsatadi.

Yirik ilmiy va ma'rifiy markaz hisoblangan poytaxtimizda O'zbekiston Fanlar akademiyasi, o'nlab ilmiy tekshirish institutlari, 30 ga yaqin oliy o'quv yurtlari, 20 ga yaqin muzey, 700 ga yaqin kutubxona, o'ndan ortiq teatr, o'nlab madaniyat saroylari, yuzlab kinoteatrlar mavjud.

Toshkent mamlakatimizning ulkan sanoat markazi bo'lib, bu yerda 300 dan ortiq yirik zavod va fabrikalar muntazam ishlab turibdi. Toshkentda mashinasozlik, yengil va oziq-ovqat sanoati tez rivojlanmoqda. Toshkent to'qimachilik, trikotaj kombinatlari, traktor, samolyotsozlik zavodlari, boshqa davlatlar bilan hamkorlikda ochilayotgan qo'shma korxonalar ishlab chiqarayotgan mahsulotlar jahon bozorida o'z xaridorini topmoqda.

Toshkent Sharqda rivojlangan shaharlardan biri bo'lib, bu yerda har yili ijtimoiy taraqqiyot, tinchlik, ekologiya, fan va texnika, madaniyat, san'at va boshqa sohalarga bag'ishlangan o'nlab xalqaro anjumanlar, sport musobaqalari o'tkaziladi. Toshkent ko'p millatli ulkan shahar bo'lib, hozir unda 2,5 millionga yaqin aholi yashaydi. Uning chiroyi kundan kunga ortib boryapti.

1 – mashq. Gaplarni tarjima qiling. Ularda qo‘llangan ko‘p ma’noli so‘zlarni aniqlang va ma’nolarini izohlang.

1. Rahbar har doim ishning ko‘zini bilish lozim. 2. Sotib olingan uzukning ko‘zi qimmatbaho toshdan edi. 3. Derazaning pastki ko‘zi qarsillab sindi. 4. Bahor kelib, eski buloqlarning ko‘zlari ochildi. 5. Taxtaning o‘rtasida ikkita ko‘zi bor ekan. 6. Ko‘z qo‘rqoq - qo‘l botir. 7. Onaning ko‘zlari erta-yu kech yo‘lda. 8. Oppoq ochilgan paxtazorlar ko‘zingni oladi. 9. Ko‘z ochib yumguncha umr o‘tib ketadi. 10. U xatga tezgina ko‘z yugurtirdi.

2 – mashq. O‘ng tomondagi so‘zlardan chap tomondagi so‘zlarning sinonimlarini toping va har bir sinonimik qatorni alohida – alohida ko‘chirib yozing.

Yuz	Iljaydi, bet, qidirdi, aft, jilmaydi, bashara, axtardi, chehra,
kuldi	betob, jamol, diydor, oldin, oraz, xoxoladi, uzor, quvonmoq,
avval	ruxsor, qadim, bemor, kulimsiradi, tirjaydi, suyunmoq,
izladi	quvnamoq, burun, shodlanmoq
sevinmoq	

Namuna: yuz, bet, aft, bashara, chehra, jamol, diydor, araz, uzor, ruxsor.

3 – mashq. Quyida berilgan maqollardan antonim so‘zlarni toping. Ularning ma’nosini izohlang.

Yaxshi bola - to‘rga, tortor, yomon bola – go‘rga.

Qobil bola rohat keltirar, noqobil o‘g‘il – zahmat keltirar.

Kelish mehmondan – ketish mezbondan.

Mehmon oz o‘tirar, ko‘p ko‘rar.

Baxil topsa, bosib yer, saxiy topsa, barcha yer.

Bor bo‘lsa, ko‘rolmaydi, yo‘q bo‘lsa berolmaydi.

Ol desang, suyunar, ber desang, kuyunar.

Uying tor bo‘lsa ham, ko‘ngling keng bo‘lsin.

Kamtar yetar murodga, manman qolar uyatga.

Bemor tuzalgisi kelsa, tabib o‘z oyog‘i bilan kelar.

4 – mashq. Berilgan gaplarni tarjima qiling. Unda qo‘llangan paronimlarning ma’nosini tushuntiring.

1. XXI asr –insoniyat tarixida taraqqiyot va ma’rifat asri bo‘ladi. 2. Asirlardan ikki kishi so‘roq qilish uchun kapitanning huzuriga keltirildi. 3. Eski shaharda hali ham tang ko‘chalar bor. 4. Qarmoqlarni olib tongda yo‘lga tushdik. 5. Yozda Zarafshon daryosida cho‘milib, oftobda toblanamiz. 6. Bahorda qir-adirlardagi maysalar, gul – lolalar tovlanib, ko‘zni oladi. 7. Suv loyqalanib oqayotganligi tufayli daryoning tubi ko‘rinmas edi. 8. Bir tup tok eksang, bir tup tol ek. 9. Yarim soat o‘tmay u qishloqdan xiyla uzoqlashdi. 10. Tulki bu safar ham hiyla bilan bo‘ridan qutilib ketdi.

6 – Mashg‘ulot.

So‘z turkumlari.

Abu Ali ibn Sino.



Abu Ali ibn Sino buyuk tabib, matematik, faylasuf, shoir edi. U Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog'ida tug'ildi. Uning bolalik va o'smirlik yillari Buxoroda o'tib, ilmiy faoliyati ham shu shaharda boshlandi.

Ko'p yillar darddan azob tortgan va hech kim tuzata olmagan Buxoro amirini yosh tabib ibn Sino davolaydi va shu tariqa u shoh kutubxonasidan foydalanish baxtiga muyassar bo'ladi. U yerdagi xilma-xil kitoblarni o'qib, o'z bilimini boyitadi.

Buxoroda ta'qibga uchragan olim 1002-yilda Xorazm poytaxti Urganchga ketadi. U Urganchda Shoh saroyida yashaydi. Ibn Sino u yerda mashhur olim Beruniy bilan uchrashadi.

U 1012-yilda Xorazmdan Eronga ketishga majbur bo'ladi va saroyda o'z tabibligini, ilmiy ishini davom ettiradi.

Ibn Sino turli sohaga doir ko'plab asarlar yozdi. Shulardan eng mashhurlari "Tib qonunlari" kitobidir.

U XII asrdayoq lotin tiliga tarjima qilingan edi. Bu asar XVIII asrgacha butun dunyo vrachlari uchun eng noyob va yagona qo'llanma bo'lib kelgan.

1-mashq. Quyidagi so'zlarni o'qing va ular orasida ot va sifatarni ajratib yozing.

Idish, idora, ijod, ilon, aqlli, imlo, imzo, igna, inson, ko'rkam, iroda, imkon, ixtiro, ixcham, g'aroyib, ixtiyor, uzunroq, iqtisod, qattiq, iqlim, qiyshiq, himoya, ahil, ruhiy, qizg'ish, hikoya, og'ir, bag'ir, qo'ng'ir.

2-mashq. Quyidagi so'zlarni o'qing va ular orasidan fe'l va sonlarni ajratib gaplar tuzing.

Egri, kuylamoq, ellik, uchchala, quladi, ikkov, endi, eski, qurib qoldi, echki, yarim, etik, chorak, e'tibor, birinchi, uch qoshiq, hikoya qilmoq, bir hovuch, e'tiqod, yetib bormoq, e'lon, etak, eshak, esdalik, erkin, epchil, enaga, egov, eshkak, o'qimoq, e'tiroz, qarz olmoq, eman.

3-mashq. Quyidagi so'zlarni to'g'ri talaffuz qiling, ular orasidan olmoshlarni va otlarni ajratib tarjima qiling.

Adib, mensiz, hech kim, adir, adolat, albatta, allaqayerda, birov, alla, amal, ammo, o'zim, anor, shu, aqlli, qanaqa, arava, siz, ariza, ana o'sha, asbob, atama, axir, allakim, axloq, baxt, qachon, farishta, baqa, buqa, biz, taqa, birov, chaqa, hammom, aholi, moziy, mahalla, ot, sonsiz, sevimli, buzoq.

4-mashq. "x" va "h" tovushlarining talaffuziga e'tibor berib, so'zlarni o'qing, ularning har biri ishtirokida gaplar tuzing.

Xol-hol, xil-hil, xam-ham, xiyol-hilol, xayr, xatto, xush kelibsiz, hushiga keldi, saxiy, sohil, hassos, qasos, horish, xorij, mehmon, mixdon, muhit, giyoh, gulxan.

7 - Mashg'ulot. **Ot –so'z turkumi.**



Buxoro –qadimiy va navqiron shahar.

Buxoro O'rta Osiyoning ko'hna shaharlaridan biridir. Bu shahar bundan 2500 yil muqaddam Zarafshon vodiysining quyi qismida qad ko'targan. Dastavval u daryoning Zarirud nomli quyi tarmog'ining ikki sohili bir-biriga qarama-qarshi joylashgan uchta qishloq shaklida paydo bo'lgan.

Bu qadimgi uch qishloqning atrofi o'sha zamonlardayoq alohida-alohida mudofaa devorlari bilan o'rab olingan edi. Shaharning bir necha darvozasi bo'lib har bir qismiga alohida darvoza orqali kirilgan. Shaharning maxsus devor bilan o'ralgan maxsus eng baland qismiga qurilgan qo'rg'on ark deb atalib, unda podshoh va amirlar yashagan. Arkda podshohning ko'shki va saroylaridan tashqari, xazina, pul chiqariladigan zarbxona, qamoqxona(zindon), navkarlar uchun bostirmalar bo'lgan.

Shaharning qolgan asosiy ikki qismida shahar a'yonlari, savdogarlar, hunarmandlar yashagan.

Qadimgi Buxoro Xitoyni Eron, Kichik Osiyo va O'rta dengiz bo'yi mamlakatlari bilan bog'lagan savdo yo'li – Buyuk ipak yo'li ustida joylashgan bo'lib, bu yo'l orqali buxorolik savdogarlar Xitoy, Hindiston, Eron va Vizantiyaga tuyalar karvonida turli xil savdo mollarini olib borganlar.

O'rta asrlarda Buxoro O'rta Osiyo va O'rta Sharqda ilm-fan, ma'rifat va madaniyatning markazlaridan biriga aylandi. Bu shaharda mashhur mutafakkir olim va adiblardan Abu Ali ibn Sino, Narshaxiy, Rudakiy va boshqalar yashab ijod etgan.

Asrlar davomida O'rta Osiyoning yirik ma'muriy markazi sifatida ham tanildi.

Buxoro keyinchalik yana ham rivojlandi. Shaharda ko'plab tarixiy obidalar mavjud. Ark qo'rg'oni, Moxi xossa, Somoniylar maqbarasi, Minorai kalon, Masjidi kalon, Miri Arab madrasasi, Toqi Zargaron, Toqi Sarrafon, Toqi Telpak furushon singari savdo ansamblari, Bolo hovuz, Labi hovuz, Mag'oki Attori, Chor Minor, Ko'kaldosh madrasasi, Nodir devonbegi madrasasi, Chashmayi Ayub singari yuzlab tarixiy obidalar nomini tilga olish mumkin.

Mustaqillik davrida shahar qiyofasi yanada ko'rkamlashdi. Shaharda 2010-yil 30-avgust kuni mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov ishtirokida 108 gektar yer maydoniga ega bo'lgan istirohat bog'i, yangi Amfiteatr va Madaniyat saroyi binolari ochilish marosimi o'tkazildi. Shuningdek, shaharda Karvon bozori, Dilkusho dehqon bozori, To'qimachi dehqon bozori, Markaziy bozor singari yirik savdo inshootlari sotuvchi va xaridorlar xizmatida. Buxoro yoshlarining ilm olishlari uchin barcha shart-

sharoitlar yaratilgan. Jumladan, shaharda o'nlab gimnaziya, maxsus maktablar, akademik litsey va kasb hunar kollejlari, shuningdek, Buxoro Davlat Universiteti, Buxoro Oziq-ovqat va yengil sanoat texnologiyasi instituti, Buxoro Tibbiyot instituti, Buxoro Irrigatsiya va melioratsiya institutlarida minglab yoshlar ilm-fan cho'qqilarini egallamoqda. Buxoroda Abu Ali ibn Sino nomidagi markaziy kutubxona, bolalar kutubxonasi, tarix va o'lkashunoslik muzeylari S.Ayniy nomidagi drama teatri va ko'plab kinoteatrlar, istirohat bog'lari va sport majmualari bor. Buxoro tarixiy obidalarga juda boy bo'lganligi sababli har yili u yerga minglab sayyohlar tashrif buyuradi.

1 – mashq. Atoqli va turdosh otlarni ajrating.

1.A. Navoiyning «Xamsa» asari besh dostonni o'z ichiga oladi. 2. Majlis raisi navbatdagi notiqqa so'z berdi. 3. Metro kombinatga o'n minutda olib boradi. 4.Hamma sayoralardan yerga eng yaqini Marsdir. 5.O'zingni, o'z uyingni o'zing asra. 6. Natashaning ota-onasi asli Toshkentlik bo'lib, 1990-yilda Buxoroga ko'chib kelgan. 7.O'zbekiston Respublikasi O'rta Osiyoda,Sirdaryo va Amudaryo orasida joylashgan.8.Bugun biz hammamiz oraliq nazorat ishini yozib topshirdik.

2 – mashq. O'zbek tiliga yozma tarjima qiling , gaplar tuzing.

Дворец спорта, спортивные товары, средняя школа, высшая школа

3-mashq.Berilgan so'zlarga –zor, -loq,-xona, –ma,-kash, -bon,-paz,-dor,-soz,-dosh,-g'ich qo'shimchalaridan mosini qo'yib otlar yasang, gaplar tuzing.

Tug, surat, kurs, arava, teng, qatla, vatan, sava, darvoza, o'chir, mashina, qiy, tengla, somsa, ayb, soat, osh, bog', zamon, terak, dori, uzum, kasal, amal, sinf, to'qima, sandiq, kulol, choy, gul, tosh, bosma, lola, qum, beda.

4-mashq.Gaplarni o'zbek tiliga tarjima qilib yozing, atoqli va turdosh otlarning ostiga chizing .

1.Я похоронил ее под этой виноградной лозой. 2.Он направился прямо во дворец. 3.Среди нас много ударников труда. 4. Что произошло между подростками? 5.Внутри крепости был черный дом. 6.Я его завтра пришлю к вам. 7.Уйгун написал стихотворение “Песня о Родине”. 8.Всю работу закончим завтра же. 9.Как только он пришел, началась работа. 10.Уже в первый год он стал машинистом. 11.Карим вышел на улицу и тотчас же вернулся. 12.Читайте-ка эти строки. 13.Да пишите же! 14.Мне нужен как раз этот материал.

8 - Mashg'ulot.

Kelishik kategoriyasi.

Xiva

O'zbekistondagi ko'hna shaharlardan biri Xiva O'rta Osiyodagi Xorazm orqali Kichik Osiyoga o'tgan qadimiy karvon yo'li ustida qad ko'targan. Ayrim arxeologik ma'lumotlarga qaraganda Xiva miloddan avvalgi III-IV asrlarda barpo etilgan. Xiva qadimdan 3 qism: Ark(hokimiyat joylashgan), Ichan qal'a(ichki shahar), Dishan qal'a(tashqi shahar)dan iborat bo'lgan.



O'z tarixiy jarayonida Xiva bir necha marta istilochilar hujumiga bardosh berib, qonli jangler maydoniga aylangan. 712-yilda Xivani arablar, 1221-yilda mo'g'ul Chingizxon, 1747-yilda Eronlik Nodirshox qo'shinlari vayron qilgan. Shunga qaramasdan Xiva qayta-qayta tiklanib obod bo'lgan. Xonliklar davrida asosan hunarmandchilik rivojlangan. Hunarmandlar kichik-kichik ustaxonalarda ishlab, turli matolar to'qishar, sopol va zargarlik buyumlari yasashar edi.

Xivada ko'plab tarixiy obidalar mavjud: Qo'hna Ark, Juma masjidi, Oq masjid, Pahlavon Mahmud, Sherg'ozixon, Qutlug' Murod Inoq, Muhammad Amin Inoq madrasalari, Olloqulixon karvonsaroyi va timi, Islomxo'ja va ko'pgina katta-kichik minoralar, shuningdek, 163 xonadan iborat Tosh hovli saroyi hamda bu binolarga ishlatilgan koshin va parchinlar, ganchkori naqsh va epigrafik yozuvlar va hokazolar kishi e'tiborini o'ziga tortadi. Siz o'zingizni o'rta asrlar Xivasiga borib qolgandek his qilasiz. Xiva mamlakatimizdagi qadimiy shaharlardan biri bo'lib, har yili bu yerga minglab sayyohlar tashrif buyurishadi. "Ichon qal'a" O'rta asr arxitektura obidalari qo'riqxonasi deb e'lon qiligan va uni ta'mirlash, saqlash ishlariga katta ahamiyat berilmoqda.

1-mashq.*Quyida berilgan otlarni qaratqich va tushum kelishiklarida turlang, gaplar tuzing.*

Namuna: oyna – oynani, oynaning. Opam oynani yuvib qo'yishimni aytdi.

Dengiz, oyna, bug'doy, gilam, mehnat, tutun, qizaloq, olma, minora, qovun, tog', mehmon, vatan, maktab, taqdir, qirg'oq, eshik, quyon, qiz.

2- mashq.*Quyidagi gaplarni ko'chiring va jo'nalish kelishigidagi so'zlarning tagiga chizing.*

1.Men kinoga borish uchun uydan chiqdim. 2.Biz bugun qishloqqa boramiz, Anvar esa toqqa bormoqchi. 3.Bog'bon tokka tikilib turdi va uzum hosili mo'l bo'lishini aytdi. 4.Yuklar ortilgan mashina botqoqqa botib qoldi. 5.Sinf doshlar uchrashuvi juma kuniga qoldirildi. 6. Ko'kka boqma, ko'pga boq. 7.Bahor keldi, gul ochildi, nur sochildi borliqqa.(Z.D.) 8.Tong otishi bilan, quyosh zarrin nurini butun borliqqa taratdi.(Ch.Ayt.) 9. Birdan ko'tarilgan olqish zalni larzaga keltirdi. (A.Q.)

3-mashq. Gaplarni o'zbek tiliga tarjima qiling va jo'nalish kelishigidagi so'zlarning tagiga chizing.

1. В этом году Сардор приезжает к нам. 2. Я сегодня пойду в цирк. 3. Нигора смотрела на высокую гору. 4. Студенты записались в библиотеку. 5. Он положил ключ в корман. 6. Учитель поручил Эркину написать статью. 7. В новую квартиру привезли различную мебель: стол, стул, диван. 8. Абдулла из-за дежурства вернулся домой поздно. 9. Команда добилась больших успехов. 10. Рыболов Самад уехал в Сырдарью.

4-mashq. Chiqish kelishigidagi otlarni ko'chiring va so'rog'ini aniqlang.

1. Aql aqldan quvvat oladi (Maqol). 2. Tinchlikdan hamma xalqlar manfaatdor. 3. Do'stim Toshkentdan keldi. 4. A'lochi o'quvchilardan guruh tuzildi. 5. Yaxshiga yondash, yomondan qoch (Maqol). 6. Erinchoqligidan hammadan orqada qoldi. 7. Ertalabdan havo isidi. 8. Ular bizning yangi tajribamizdan foydalanishmoqda. 9. Ishlashni ustadan o'rgandim. 10. U kabinetdan juda tez chiqdi. (H.G'.) 11. Mehnatdan qo'rqma, minnatdan qo'rq. (Maqol.) 12. U kosiblar, kambag'allar, soatsozlar, kulollar bilan suhbat qiladi, sulhdan, hayotdan, ishdan, so'zlaydi. (O.)

**9 - Mashg'ulot.
Egalik kategoriyasi.**

TARJIMAI HOL.

Ma'lum bir shaxs tomonidan o'z shaxsiy hayoti va faoliyati haqida bayon qilingan yozuv. Tarjimai hol bir xil andozaga ega emas, mufassal yoki muxtasar yozilishi mumkin. U muallif tomonidan mustaqil tuziladigan hujjatdir. Garchi, u erkin (ixtiyoriy) tuzilsa-da, biroq tarjimai holda ayrim qismlarning bo'lishi shart.

Tarjimai holning asosiy zaruriy qismlari:

1. Hujjatning nomi (Tarjimai hol).

2. Matn:

a) muallifning familiyasi, ismi va otasining ismi;

b) tug'ilgan yil, kun, oy va tug'ilgan joyi;

d) millati;

e) ota-onasi haqida qisqacha ma'lumot (familiyasi, ismi va ota ismi, ish joyi, yoshi, vazifasi,

kasbi)

f) ma'lumoti va ma'lumotiga ko'ra mutaxassisligi;

g) ish faoliyatining turlari;

h) oxirgi ish joyi va lavozimi;

i) mukofot va rag'batlantirishlar;

j) jamoat ishlarida ishtiroki;

k) partiyaviyligi;

l) harbiy xizmatga aloqasi;

m) oilaviy ahvoli va oila a'zolari;

n) turar joyi (uy adresi)

3. Sana.

4. Imzo

Tarjimai hol oddiy qog'ozga, ayrim hollarda, ya'ni ishga, o'qishga kirishda, maxsus bosma ish qog'ozlariga qo'lda yoziladi. Matnni bayon qilish shakli hikoya uslubida bo'lib, I shaxs tilidan yoziladi.

Barcha ma'lumotlar davriylik (xronologiya) asosida beriladi. Tarjimai hol shunday tuzilishi kerakki, u bilan tanishgan kishi muallifning hayot yo'li, ishchanlik mahorati, ijtimoiy-siyosiy faoliyati haqida tasavvurga ega bo'lsin.

Tarjimai hol.

Men, Salimov Karim Olimovich 1980-yil 15-sentabrda Buxoro shahrida, xizmatchi oilasida tug'ildim. Millatim - o'zbek. Otam – Salimov Olim Oripovich, 1955-yilda tug'ilgan, Buxoro Pedagogika kollejida o'qituvchi. Onam, Raximova Gulnora Sulaymonovna, 1958-yilda tug'ilgan, Buxoro shahar shifoxonasida jarroh bo'lib ishlaydi.

1987-yildan 1996-yilgacha Buxoro shahridagi 20-o'rta umumta'lim maktabida o'qiganman. 1996-yil sentabrdan 1999-yilgacha Buxoro tumanidagi Iqtisodiyot va bank kollejida o'qib, o'rta ma'lumotli iqtisodchi-hisobchi ixtisosiga ega bo'ldim. 1999-yil sentabrdan, 2002-yil aprel oyigacha Buxoro tumanida Xalq bankining 22-shahobchasi kredit bo'limida hisobchi bo'lib ishladim. 2002-yil may oyidan 2003-yil aprel oyigacha muddatli harbiy xizmatni o'tadim. 2003-yil sentabrdan Buxoro Oziq-ovqat va yengil sanoat texnologiyasi institutining Mexanika fakultetiga o'qishga kirdim. 2007-yilda mazkur institutni tugatib, neft va gazni qayta ishlash texnologiyasi muhandisi ixtisosligiga ega bo'ldim. Qorovulbozor neftni qayta ishlash zavodiga dastlab muhandis lavozimida, 2009-yildan buyon bosh muhandis lavozimida ishlayapman.

2010-yilda rejadagi topshiriqlarni muvaffaqiyatli bajarganimiz uchun viloyat hokimining faxriy yorlig'ini olishga sazovor bo'ldim. 2010-yilda erishgan yutuqlarim va ishdagi yuqori ko'rsatkichlarimni inobatga olib Respublika vazirlar mahkamasi tomonidan "Fidokorona mehnatlari uchun" ko'krak nishoni bilan taqdirladim.

2007-2009-yillar davomida zavoddagi "Kamolot" Yoshlar ijtimoiy harakati boshlang'ich tashkilotida kotiblik vazifasini bajarganman. 2010-yildan O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi a'zosiman.

Uylanganman. Xotinim- Mirzayeva Sayyora, 1983-yilda tug'ilgan. Buxoro shahridagi "Asaka" bankning kredit bo'limida operator bo'lib ishlaydi. O'g'lim- Olimov Nozim, 2003- yilda tug'ilgan. 17- maktabda o'qiydi. Qizim- Olimova Nigora, 2006- yilda tug'ilgan. 11- bolalar bog'chasiga qatnaydi.

Mening turar joyim: Buxoro shahri, B. Naqshbandiy ko'chasi, 4- uyulish, 16- uy.

Uy telefoni : 225-16-16, qo'l telefonim : 777- 22- 25.

26. 01. 2011.

(imzo) K. Salimov.

1-mashq. So'zlarni o'qing, ularni rus tiliga tarjima qiling, ostiga chizilgan otlardan tanlab olib, egalik affikslari bilan tuslang .

Namuna : ayig'im, ayig'ng , ayig' i , ayig'imiz, ayig'ingiz, ayig'i(ayiqdari).
Adabiyot, ayol, aziz, azob, ayiq, aylana, anor, asar, archa, atrof; olim, obod, olma, ovchi, odam, oyoq, ozod, oila, olov, ota-ona; idora, ikki, ilm, ilg'ich, inson, ism, ilmoq, irmoq, ish; un, uzum, ulkan, uy, umr, umid, undosh, unli, usta, uch, o'zbek, o'ychan, o'rmon, o'lka, o'rik; ertak, eshik, echki, e'lon, ekin, yetim; yelim, yengil; yurak, yurtim, yuqori, yurmoq, yuz; yangilik, yaproq, yashamoq, yangi, ancha, ayrim, asosan, axloq, aza, arqon, asir, arzon, orzu, ozg'in, odim, isrof, izoh, imkon, issiq, ilova, injiq, uzoq, uloq, unumdor, uzun, umuman, uydirma, o'simlik, o'roq, o'jar, o'lcham, o'g'ri, o'zak, o'xshash, erkinlik, ertalab, erinchoq, elak, ellik, eski, ehtiyoj, ehtiyot.

2 – mashq. Nuqtalar o'rniga tegishli qo'shimchalardan mosini qo'yib gaplarni o'qing
1. Guruhdagi hamma talabalar <<Kamolot>> ijtimoiy harakati a'zo....
2. Ularning oila... Farg'ona shahrida yashaydi.
3. Mening ona... shahar kasalxonasida ishlaydi.
4. Sizning kitoblar... menda.
5. O'zbekistonning poytaxt... - Toshkent.
7. Men Kasbiy ta'lim fakul'tetining talaba...man.
8. Bo'sh vaqt...mni kitob o'qish bilan o'tkazishni yoqtiraman .
9. Sizning opa..... bizning qo'shni mahallada yashaydi.
10. Mustaqillik yillarida shahr..... ning qiyofasi yanada ko'rkamlashdi..

3-mashq. Nuqtalar o'rniga egalik qo'shimchalaridan mosini qo'yib, gaplarni ko'chiring.

1. Kimning o'qish, o'rganishga ishtiyoq... zo'r bo'lsa. uning kelajagi porloq bo'ladi. 2. Seni deymen, muallim shahar, qo'llar... gul, zo'r olim shahar. 3. Baliqning tiriklik... suv bilan. (Maqol.) 4. Old...ga kelganni yemak - hayvonning ishi, og'iz...ga kelganni demak - nodonning ishi. (Maqol.) 5. Sodiqning ikkita o'rtoq... ularni poyezdga kuzatib qo'ydi. (Sh.) 6. Men dugonamdan uning kitob...ni so'radim. 7. Bir kelib ketding qishloq...mizga. 8. Bilim... osmonga yetgan bo'lsa ham, Boshqalar ilm...ga quloq sol har dam. (A. Balxiy) 9. Do'stlar, keling bog'....ga quvnashamiz, Baxtiyorlik qo'shiq...ni kuylashamiz. (P.M.)

4-mashq. She'rni ifodali o'qing, egalik qo'shimchalarining tagiga chizing

Bir yil qadam.

Ko'zguga boqqinu o'zni qil so'roq,
Savobu gunohni sol taroziga.
Qay biri yengilu, qaysi og'irroq,
Muyassar bo'ldingmi vijdon roziga.

Atrofingda kimlar aylanishdi xo'p,
Kim chapga, kim o'ngga tortdi qo'lingdan.
Arosat belida ikkilanmay xo'p,
Adashmay bordingmi qutlug' yo'lingdan.

Oilang ota-onang, farzandlaringni,
Mehring ardog'ida yayratoldingmi?
Elu yurt oldida qarz-farzlaringni,
Vatanning koriga yaratoldingmi?

Bir kami bandamiz, Yaratgan beayb,
Tazarru qildingmi, turib har sahar.
Bugundan o'yla sen kekxa chog'ing payt,
Olguchi bo'larmi, holingdan xabar.

Unutma bu hayot omonatku de,
Yugurgin armonga yetib ol tezroq.
Umrning bir yili bir qadamga teng,
O'ylab ham, o'lchab ham, qadam bos o'rtoq.

Gulchehra JO'RAYEVA

10 - Mashg'ulot.

Sifat - so'z turkumi.

SAMARQAND.

Samarqand ham dunyoga mashhur Bobil, Afina, Rim shaharlari kabi boy tarixga ega. Uning yoshi 2500 yildan ortiq.

Samarqand dastlab Siyob daryosi sohilida qad ko'targan. U o'n yarim kilometrli mudofaa devori bilan o'ralgan bo'lib, shaharga uchta darvoza orqali kirilgan.

Samarqandni miloddan avval 329-yili Aleksandr Makedonskiy, VIII asrda Qutayba, XIII asrda Chingizxon qo'shinlari bosib olib, vayron qilishgan. Qadimgi Samarqand shahri xarobalari hozir Afrosiyob nomi bilan yuritiladi. XV asrlarga kelib Samarqand Afrosiyob xarobalaridan janubroqda qayta tiklandi. Tez orada yana dunyoga dong'i ketgan go'zal shaharga aylandi. Ayniqsa, sohibqiron Amir Temur saltanatining poytaxtiga aylangandan so'ng shaharda ma'muriy binolar, masjidlar, madrasalar, hammomlar, savdo markazlari, karvonsaroylar ko'plab qurildi. Shahar atrofi olti darvozali mudofaa devori bilan o'rab olindi. Registon maydoni, Go'ri Amir maqbarasi, Shohizinda ansambllarining qurilishi shaharni yanada go'zallashtiradi. Shahar atrofida Bog'ishamol, Bog'idilkusho, Bog'ibaland, Bog'imagdon, Bog'ibehisht, Bog'izag'on kabi 12 ta ko'rkam bog' barpo etildi.



Amir Temurdan so'ng Mirzo Ulug'bek hukmronligi davrida Samarqandni obodonlashtirish ishlari davom ettirildi. Ulug'bek rasadxonasi, Ulug'bek, Sherdor, Tillakori madrasalari qurildi. O'sha davrda qurilgan Ko'ksaroy va Bo'stonsaroyga davlat idoralari, qurol-yarog' ustaxonalari, xazina, zarbxona va qamoqxona joylashtirildi.

XVI asrda Buxoro xonligi tashkil topgandan so'ng poytaxt Buxoroga ko'chirildi. XVII-XVIII asrlarda Samarqand yana turli bosqinchilar tomonidan talanib, vayron etilgan. Mehnatkash shahar aholisi uni yana va yana qayta tiklayvergan.

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Samarqandda zamonaviy binolar qurila boshladi. 1924— 1930-yillarda u O'zbekiston Respublikasining poytaxti bo'ldi. Hozirgi paytda Samarqand shahri aholi soni va sanoat korxonalari ko'pligi jihatidan respublikamizda ikkinchi o'rinda turadi. Samarqand kengayib, yanada obodonlashib bormoqda. Turar joylar ko'paydi, yangi jamoat binolari, maishiy xizmat ko'rsatish, savdo-sotiq majmualari, keng va ko'rkam istirohat bog'lari, xiyobonlar, maydonlar, ko'chalar, ko'p qavatli uylar qurilgan mikrorayonlar barpo etildi. Tarixiy yodgorliklarni ta'mirlash, yangilarini qurishga e'tibor berilmoqda. Shaharda Amir Temur, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek, Abdurahmon Jomiy, Abulqosim Rudakiy, Akmal Ikromov, Y.A.Gagarin, Fozil Yo'ldosh, Ergash Jumanbulbul, Po'ltan, Islom shoirlarga mahobatli haykallar o'rnatilgan:

Samarqand rivojlangan sanoat shahri. Bu yerda yuzga yaqin xolodilnik, liftsozlik, avtomobilsozlik, chinni buyumlar, kino asbob-uskunolari, burg'ulash asboblari, motor qismlari ishlab chiqaruvchi yirik zavodlar, poyabzal, shohi va baxmal to'qish, trikotaj, galanteriya fabrikalari va o'nlab milliy hunarmandchilik korxonalari mavjud.

Samarqand respublikamizning yirik ilm-fan markazlaridan biri. Universitet, qishloq xo'jalik, savdo, tibbiyot, chet tillari, me'morchilik-qurilish institutlari, o'nlab kollej va litseylarda yoshlar fan sirlarini o'rganmoqdalar.

Samarqand shahri va viloyat hududida joylashgan Doniyol payg'ambar, Imom Ismoil Buxoriy, Mahdumi A'zam, Xo'ja Ahrori Vali, Qusam ibn Abbos, Amir Temur maqbaralarini ziyorat qilish uchun har yili millionlab sayyohlar kelishadi.

1 – mashq. Nuqtalar o'rniga berilgan sifatlardan mosini qo'yib ko'chiring.

1. Qizlar ... paxtalarni zavq bilan terar edilar. 2. Bog'imizda ... olma pishib yotibdi. 3. Qishlog'imiz yonida ... soy bor. 4. Uzoqdan ... tog' cho'qqisi ko'rinib turadi. 5. Men kecha magazindan ... kitoblar sotib oldim. 6. Bahor kelishi bilan daraxtlar ... barg yozadi. 7. Aqlli dushman johilu do'stdan yaxshiroq.(A.Temur.) 8.Yomon mo'ridan tutun chiqar, uydin - sassiq gap.(Maqol.)

Sifatlar: oppoq,nodon, baland, qizil, qiziq, katta,yomon, yashil,achchiq.

2 – mashq. Quyidagi gaplarni o'zbek tilida tarjima qiling. Undagi sifatlarni aniqlang.

1. Самарканд – древнейший город Узбекистана. 2. Мы соревновались с сильнейшей командой. 3. Волга длиннейшая и широчайшая река в Европе. 4. Иванова – самая молодая студентка второго курса. 5. Он дал мне самое маленькое яблоко.6.Наши города благоустраиваются.7.Хорошо поработаешь, получишь хороший результат .8.Абу Али ибн Сино с юных лет был известен своим тонким ,ясним умом. 9.Ребята в жаркие дни купаются в больших арыках. 10.Каждый день утром я умываюсь холодной водой.

3 – mashq. Quyidagi so'zlardan -gi , -be, -iy, -ba, -viy, -no, -li,-siz sifat yasavchi qo'shimchalar yordamida sifatlarni yasang, gaplar tuzing.

Sabr, davlat, bola, oila,mard, o'g'il, bahor, ilm, jon, g'ayrat, yaq, tarix, madaniyat, uy, yoz , markaz,tish ,imlo, quvvat, g'ubor , qishloq, ko'cha , to'g'ri.

4 – mashq. Gaplarni rus tilida tarjima qiling.

Qish kirdi. Kunlar sovidi. Atrof oppoq qorga burkandi. Uylarning mo'rilaridan pag'a-pag'a tutunlar chiqa boshladi. Daraxtlarning so'nggi yaproqlari qishning ilk izg'irinidayoq to'kildi. (D.Mahmudov.)

11 - Mashg'ulot.

Sifat darajalari.

Navro'z

Navro'z (forschada "navro'z" yangi kun manosini anglatadi) — Turkiston, O'rta va yaqin sharqda yashovchi o'zbek, ozarbayjon, tojik, hind, fors va va boshqa xalqlarning qadimiy an'anaviy yangi yil bayrami. Shamsiya hisobida yilning birinchi kuni bo'lib, bahorgi tun va kunning tengligiga, ya'ni 21-22-martga to'g'ri keladi. Tarixiy manbalarga qaraganda Navro'zni bayram qilib o'tkazish Ahomaniylar davri (miloddan avvalgi VI-V aslar)dan boshlangan. Keyinchalik, Navro'zda islom dinining

ayrim marosimlarini ham o'tkazish odat tusiga kiritilgan. Qadimda Navro'z bayrami 6 kun davom etgan, dalalarga ko'chatlar ekilgan, ko'chalar tozalanib, hasharlar uyushtirilgan, xullas, hammayoq pokiza etilgan. Navro'zga atab yoshlar yangi kiyimlar tikkanlar, qariyalarga sarupo tayyorlaganlar. Bayram kunlari har xil shirinliklar, sumalak, turli ko'katlardan somsalar, chuchvara kabi taomlar pishirilgan.



Navro'z kunlarida turli ommaviy o'yinlar, poyga musobaqalari, bog'larda sayllar, maydonlar, konsert zallari va teatrlarda san'atkorlar, shoirlar, yozuvchilarning chiqishlari bo'ladi, ota-onalardan, qarindosh-urug'lardan xabar olinadi, yoru birodarlarnikiga mehmonga boriladi. Navro'z kunlari gina-kuduratlar unutilib, kishilar yaxshilikka intiladilar, yetim-yesirlarga va nogironlarga yordam berib, marhumlar qabrlarini ziyorat qilib, tartibga soladilar.

Sho'ro davrida O'rta Osiyo, Qozog'iston va Ozarbayjonda Navro'z, xalqlarning tarixiy qadriyatlarini sifatida, davlat tomonidan e'tiborga olinmadi, ba'zi yillari, hattoki, taqiqlandi.

O'zbekistonda 1989-yildan Navro'zni keng nishonlashga e'tibor berildi. 1992-yildan boshlab, O'zbekiston hukumatining qaroriga binoan, 21-mart — Navro'z milliy xalq bayrami sifatida belgilanib, dam olish kuni deb e'lon qilindi.

1-mashq. Quyidagi sifatlar yordamida gaplar tuzing, asliy va nisbiy sifatlarini ajratib ustun shaklida yozing.

Buyuk, avvalgi, bolali, sariq, serhosil, shirin, uyli, kechki, ishchan, nordon, achchiq, uzun, osma, ozg'in, yozma, sinfiy, iqtisodiy, geografik, baland, tishli.

2-mashq. Gaplarni o'zbek tiliga tarjima qiling va sifat darajalarini ko'rsating.

1. Разговоры становились звонче. 2. Люди в книгах были ярче, умнее “нормальных” людей. 3. Я срезал тончайший сучок у берёзы. 4. Утро красит нежным светом стены древнего Арка. 5. Надо, чтобы “каждый день в любой деревне, в любом городе молодёжь решила практически ту или иную задачу общего труда, пускай самую маленькую, пускай самую простую”, - говорил аксакал.

3-mashq. Sifatning orttirma darajasiga misollar keltiring va shu misollar asosida gap tuzing.

Namuna: eng, g'oyat, juda, nihoyatda, behad.

Biz ushbu kunlarga yetib kelganimiz uchun eng baxtiyor damlarni boshimizdan kechiryapmiz.

4-mashq. Sifatlarni topib qaysi daraja shaklida qo'llanganini aniqlang.

- 1.—Ich, issiqroq ich, qo'rqma. Shamollashni faqat issiq bilan haydaysan.
- 2.—Yo'q, yo'q, to'xtasak, qochishdan ham xunukroq bir falokat yuz berishi aniq, — dedi Cho'lpon
3. Kifoyatxon bu kishidan 3-4 yosh kattaroq.
4. Cho'qqilar avvalgidan ham oqroq va silliqroq ko'rindi.
5. Kishining ishi to'g'ri bo'lsa, bu uning uchun eng yaxshi maqtovdir.
6. Baykal — eng chuqur ko'l.
7. Ko'rgazmaga rassomning eng yaxshi asarlari qo'yilgan.
8. Uning bog'i bizning bog'imizdan kattaroq.
9. Samarqand mamlakatimizdagi eng qadimiy shaharlardan biri.
10. Bu men bilgan o'yinlarning eng qizig'i ekan.
11. Qishda kunlar qisqa, tunlar esa juda uzun bo'ladi.

12 - Mashg'ulot.

Son - so'z turkumi. Vaqt hisobi.

Bizning institut.

Buxoro oziq – ovqat va yengil sanoat texnologiyasi instituti 1978-yilda tashkil topgan. Institut ko'p qavatli, zamonaviy qurilgan to'rt binodan iborat. Birinchi bino, ya'ni bosh binoda rektorat, xodimlar bo'limi, devonxona, shartnoma bo'limi, o'quv bo'limi, hisobxona, kasaba uyushmasi, elektron kutubxona, o'quv zallari joylashgan. Shuningdek, bosh binoda "Biznes va boshqaruv" fakulteti, "Oziq-ovqat mahsulotlari texnologiyasi" fakulteti, magistratura bo'limi, o'ndan ortiq kafedra, zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlangan o'quv xonalari, laboratoriyalar talabalarning ilm olishlari, tajriba ishlarini olib borishlari va mustaqil shug'ullanishlari uchun tayyorlab qo'yilgan. Bosh binoning birinchi qavatida institut madaniyat saroyi va bir nechta ma'ruza xonalari, kutubxona, qiro'atxona joylashgan. Madaniyat saroyida bayramlar, turli tantana va yig'ilishlar, shoir va yozuvchilar bilan uchrashuvlar, qiziqarli kechalar o'tkaziladi. Ma'ruza xonalarida professor va o'qituvchilar talabalarga turli fanlardan ma'ruza o'qiydilar, kinofilmlar va ilmiy-ommabop lavhalar namoyish etadilar.

Institutda oltita fakultet bor. Ulardan to'rttasi ikkinchi binoda joylashgan. Ikkinchi binoning birinchi qavatida "To'qimachilik va yengil sanoat mahsulotlari texnologiyasi" fakulteti, ikkinchi qavatida "Arxitektura va qurilish" fakulteti, uchinchi qavatida "Kasbiy ta'lim" fakulteti, to'rtinchi qavatida "Mexanika" fakulteti joylashgan. Ikkinchi binoda arxiv va sport zali, kutubxona, qiroatxona, yigirmaga yaqin kafedra, ma'ruza xonalari, o'quv xonalari, laboratoriyalar, talabalarning ta'lim olishlari va fan cho'qqilarini egallashlari uchun zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlab qo'yilgan.

Har yili institutni tugatib chiqayotgan olti yuzga yaqin bakalavr va magistrlar mamlakatimiz taraqqiyoti, xalqimiz farovonligini ta'minlashga bel bog'lab, o'z sohalarining yetuk mutaxassisi sifatida ishga yo'llanma oladilar.

Institutning to'rtinchi binosida "Oliy matematika", "Jismoniy madaniyat", "Tillar" kafedralari, stadion, tennis, futbol, voleybol maydonlari joylashgan.

Institutda o'ttizdan ortiq kafedra bor. O'qish-o'qitish ishlarini professor, dotsent va tajribali o'qituvchilar ilg'or fan-texnika yutuqlaridan qo'llagan holda olib boradilar. Institutni talabalar o'n yetti yo'nalish bo'yicha bitirib chiqadilar. O'quv yili ikki mavsum(semestr)dan iborat- kuzgi va bahorgi mavsum. Har bir mavsum davomida oraliq va joriy nazorat ballari to'plab boriladi, ularga yakuniy nazorat ballari qo'shib talabaning umumiy o'zlashtirish ko'rsatkichi hisoblanadi. Talabalar bakalavriatda to'rt yil, magistraturada ikki yil tahsil oladilar.

1 – mashq. Quyidagi tartib sonlarni rus tiliga tarjima qiling va o‘zbek tilida gaplar tuzing .

1987- yil, 22- yanvar, 5 – kurs, XX asr, 4 – bola, 42 – maktab, 19 – kvartal, 245 – uy, 65 – kvartira.

2 – mashq. Qavs ichidagi rus tilida berilgan sonlarni o‘zbek tiliga tarjima qilib gaplarni ko‘chirib yozing.

1. Tushga yaqin qishloqdan (девять) arava keldi. (S.Ahmad). 2. Ketma-ket og‘ir qadam tashlab borishar ekan (оба) ham o‘z xayollari bilan band edi (O‘.M.). 3. Bu yil ukam (девятый) sinfni bitiradi. 4. Tuman olimpiadasining g‘oliblariga (по два) kitob sovg‘a qilishdi. 5.Yana (три) kilometr yo‘l yurilgach, soy bo‘yiga yetib boramiz. 6.Ahmadjon Bo‘taboy bilan (вдвоём) yo‘lga otlanishdi. 7.Qizlarning har biriga (по пять) savol berilib, ularning bilimi sinladigan bo‘ldi.

3 – mashq. Quyidagi sonlarni turlarga ajratib, mos kataklarga yozing.

Beshta, beshov, beshtadan, uch, ikkov, to‘rtinchi, oltitadan, ikki taqsim uch, bir butun o‘ndan besh, to‘rttacha, o‘n ikkita, o‘n uchinchi, to‘rttov, sakkiz, sakkizta, to‘qqiz, to‘qqiztadan, o‘nov, o‘ntacha, yettita, yettitacha, yigirma to‘qqiz butun o‘ndan besh, uchtadan bir, yuztacha.

Sanoq sonlar	Tartib sonlar	Dono sonlar	Taqsim sonlar	Jamlovchi sonlar	Chama kasr sonlar	O‘nli kasr sonlar	Kasrli sonlar
Ikki	Ikkinchi	Ikkita	Ikkitadan	Ikkov	Ikkitacha	to‘rt butun o‘ndan besh	Bir butun yettidan besh, uch butun oltidan ikki.

4 – mashq. Quyidagi sonlar ishtirokida gaplar tuzib o‘qing.

Beshta, yigirma beshta, ikkov, oltinchi, o‘ntadan, yettitacha, minglab, birinchi, oltovlon, ikkov, yarim, millionlar, chorak.

5-mashq. Gaplarni o‘zbek tiliga tarjima qiling va vaqt hisobiga doir so‘zlarning tagiga chizing.

1.На часах без пяти минут восемь. 2.Сейчас половина третьего. 3.Гости пришли пятнадцать минут одиннадцатого. 4.Собрание началось без восьми минут пять. 5.Время в пути от Ташкента до Янгиера занимает полтора часа. 6.Пять часов ходил. 7.Работа продолжается до пяти часов.

6-mashq. Quyidagi gaplarni rus tiliga tarjima qiling va vaqt hisobiga doir so‘zlarning tagiga chizing.

1.Men bosmaxonadan soat o‘nta kam to‘rtida chiqdim. 2.Soat o‘n birdan besh minut o‘tganda poyezd jo‘nadi. 3.Mehmonlar soat sakkizdan o‘ttiz besh minut o‘tganda avtobusdan tushishdi. 4.Kino soat yettidan qirq minut o‘tganda tugadi. 5.O‘qituvchi o‘quvchilar bilan bir soat-u o‘n besh minut gaplashdi.

To'rt "jinnisi".

"Muqaddas Rim imperiyasi"ning imperatori Karl IVga to'rt raqami juda ham yoqib qolgan ekan.

Karl IV imperiyasining to'rt poytaxti bo'lgan, ularning har qaysisini to'rt buyuk knyazdan biri idora qilgan. O'zi to'rtta saroyda yashab, har qaysi saroyda to'rttadan uyni ishg'ol qilgan. Har bir uyda esa to'rttadan deraza, to'rttadan eshik, to'rttadan stol, to'rttadan qandil bo'lgan.

Tantanali marosim paytlarida imperator to'rt xil qimmatbaho metallardan quyilgan to'rt qirrali toj kiyar ekan.

U o'z imperiyasini to'rt qismga, armiyasini to'rt korpusga bo'lgan ekan. Imperator to'rt nafar ot qo'shilgan faytunda yurardi, kiyimining rangi to'rt xil bo'lardi, to'rt tilda so'zlashardi. U kuniga to'rt mahal ovqatlanardi, to'rt xil sharob ichardi. Har galgi ovqat to'rt xil taomdan iborat bo'lardi.

To'rt raqamining "jinnisi" bo'lgan imperator umrida to'rt marta uylangan, ulardan to'rt o'g'il ko'rgan. O'limi oldida uning yonida to'rt vrach va to'rt din peshvosi turgan, ularning har qaysisi imperatorning to'rt vasiyatini to'rt vasiyatini to'rt tilda yozib borgan. Imperator 1378-yilning 29-noyabrida roppa-rosa soat to'rtta dunyodan o'tgan.

13 - Mashg'ulot.

Olmosh. Kishilik, o'zlik, ko'rsatish olmoshlari.



O'zbekistonning nabotot dunyosi.

Mamlakatimiz hududida to'rt mingdan ortiq o'simlik turi mavjud. Ularning ko'pchiligi yovvoyi, ayrimlari madaniy holda va ba'zilar madaniy o'simliklar orasida begona o't sifatida o'sadi. O'zbekiston tabiati nihoyatda xilma-xil va go'zaldir. Baland tog'lar, lalmikor qir- adirlar, qumloq cho'llar, suv omborlari, daryolar, serhosil dalalar, ko'm-ko'k o'rmon va mevazor bo'g'lar O'zbekistonning ko'rkidir.

Cho'llarda suvsizlikka chidamli tikanli o'simliklar bilan bir qatorda, namni kam bug'lantiruvchi saksovul daraxtlari o'sadi. Yurtimiz tog'larini boqqa qiyos qilish mumkin. Chunki bu yerlarda archa, tol, terak kabi turli manzarali daraxtlar bilan

yonma- yon yong'oq, bodom, olma, nok, anor, do'lana, tog'olcha, pista kabi o'nlab turdagi mevali daraxtlar ham o'sadi.

Insoniyat hayoti o'simliklar olami bilan uzviy bog'liq. O'simliklar insonni to'ydiradi, kiyintiradi, havoni tozalaydi, xo'jalik va qurilish materiali bo'ladi, tuproqni eroziyadan saqlaydi, namlikni ushlab turadi, tuproqni oziqlantiradi, qumloq va toshloq yerlarni serunum tuproqli ekin maydonlariga aylantiradi.

O'zbekistonda eng ko'p ekiladigan madaniy o'simliklar sirasiga paxta, makkajo'xori, bug'doy, sholi, mosh, loviya, no'xat, zig'ir, kunjut, arpa, javdar, tariq, qovun, tarvuz, qovoq, kartoshka, pomidor, piyoz, shirin va achchiq qalampir, turp, bodring, sholg'om, sarimsoq va boshqalar kiradi. O'zbekistonlik bog'bonlar har yili olma, nok, o'rik, shaftoli, anor, behi, olcha, gilos, yong'oq, olxo'ri, shotut, xurmo, jiyda, chilonjiyda, uzum, anjir, pista, bodom, ko'ksulton kabi mevali daraxtlarning o'nlab navlaridan yuqori hosil yig'ishtirib oladilar.

O'simliklarning eng ajoyib xislatlaridan biri- ularning shifobaxshligidir. Insoniyat qadim zamonlardan beri o'simliklarning shifobaxsh xususiyatlaridan bahramand bo'lib kelgan. O'zbekiston shifobaxsh o'simliklar maskani sifatida ham mashhurdir. Serquyosh dala va bog'larimizda yetishtirilayotgan shirin- sharbat mevalar, darmon dorilar manbai bo'lgan sabzavotlar, poliz mahsulotlari o'zlarining shifobaxshligi bilan boshqa joylarda yetishtirilgan mahsulotlardan ajralib turadi. Qishin-yozin dasturxondan meva va sabzavotlarning arimasligi salomatligimizning garovidir.

O'zbekiston yovvoyi holda o'sadigan dorivor o'simliklarga ham juda boy. Bunday o'simliklar qatoriga quyidagilar kiradi: arpabodiyon, atirgul, bo'yimodaron, gulxayri, dalachoy, jambil, jag'jag', zira, isiriq, ismaloq, momaqaymoq, nargis, sedana, seldir, semizo't, suvqalampir, tog'rayhon, chayono't, chirqanoq, chuchukmiya, ermon, qorq zirk, qo'shtirnoq, yalpiz va boshqalar.

Shuni esda tutish kerakki, ko'pchilik o'simliklarning tarkibida zaharli moddalar bo'ladi. Bunday dorivor o'simliklardan tayyorlangan dorilarda zaharli moddalar bir oz ortiqroq bo'lsa ham kuchli zaharlaydi yoki turli kasalliklarga yo'liqtiradi. Adonis, angishvonagul, bangidevona, belladonna, isiriq, kuchala, marvaridgul, mingbosh, mingdevona kabilar zaharli dorivor o'simliklardir. Bunday o'simliklarni og'izga olmaslik, ularni yig'ib olayotganda qo'lni ko'zga urmaslik va ish tugagach qo'lni yaxshilab yuvish kerak.

O'simliklar bo'lmasa hayotning o'zi ham bo'lmaydi. Shuning uchun o'simliklarni asrab-avaylashimiz, ularning o'sib, kopayishiga yordam berishimiz lozim. Yashil olam insoniyatning eng yaqin do'sti ekanligini hech qachon unutmaylik.

1 – mashq. Nuqtalar o'rniga tegishli olmoshlarini qo'yib, gaplarni ko'chiring.

1. sport bilan shug'ullanasanmi? 2. ...shunday xursand qildingki, boshim osmonga yetdi.(M. Ismoil.) 3. ...qayerda o'qiydi. 3. ... kran ikkovimizniki bo'ladi.(S.Ahmad.) 4. So'nggi pushaymon – ... dushman.(Maqol.) 5. kecha Moskvadan keldi. 6. ...Samarqandda qachon bo'lgansiz? 7. ... - bizning do'stlarimiz. 8. Hayotni qancha sevsang, ... senga shuncha go'zal bo'lib ko'rinadi.(Maqol.) 9. Xalqimni sevaman, ... sevgiJondan aziz desam, xato qilmasdim.(U.) 10. Qani endi

rassom bo'lsam-u, ... musaffo go'zal tongni suratga olsam.(Ch.Ayt.) 11.... bo'lmasang,...dunyoni netarman,Tirik yo'qman,o'lganlardan battarman. (Dostondan.)

2 – mashq. O'zbek tiliga tarjima qiling va olmoshlarni topib, ostiga chizing .

1. Мне двадцать лет, брату двадцать три года. 2. Твой учебник узбекского языка уменя. 3. Передай привет от меня товарищу Петрову. 4. Что им нужно? 5. Я пойду с вами. 6. Как зовут его? 7.Мы взяли свою тетрадь. 8.В этом году мы переехали в новый дом.9.Библиотека нашего города находится на улице Наваи.10.Мои родители изучают узбекский язык самостоятельно.11.В семье Бобура жили многие поэтессы :его дочь Гулбаданбегим, поетесса Нуржахонбегим, Зебуннисо –дочь Аврангзеба, правнучка Бобура. 12.Дедушка Шухрата до конца своей жизни занимался творческой работой.13.Алишер Навои писал свои стихи на узбекском языке под псевдонимом,, Навои'', на персидском языке-под псевдонимом,, Фоний''.14.Пожалеешь волка, а он тебя искушает.

3 – mashq. Ko'chiring. Olmoshlarni topib, ostiga chizing, uning tuzilishiga ko'ra turini aniqlang.

1. Shu-shu Otaqo'zi ochilib ketib o'rinli-o'rinsiz gaplarni ko'p gapirib yubordi. (O.Yoqubov). 2. Siz o'zingizni tuproq bilan tenglashtirmoqchi bo'lgansiz, lekin men hozir Kumushga ham qanoatlanmay Oltinbibi deb atamoq fikriga tushdim. (A.Qodiriy). 3. Hech qanaqa shartim yo'q. Ishlab u – bu orttirish niyatim ham yo'q. (S.Ahmad). 4. Shu-shu bo'ldi-yu Tursunboyning qulog'idan Zebixonning ovozi nari ketmay qoldi. Mana bu manzarani qaranglar, qizlar – dedi Manzura (Oybek).5.To'qqizinchi kuni ana shu Asrorquldan Haydar otaga xat keldi.(A.Q.) 6.Kim birovga chuqur qazisa,o'zi yiqiladi.(Maqol.)7.Siz axtargan tabib men o'zim bo'laman.(As.M.)8.Men o'zimni baxtli derdim har qanday damda.(A.O.)9.Ilonga hech kim o'z ko'ksidan joy bermas.(Oybek.)10.Shunaqa ishlaysizki, o'zingiz ham rohat qilasiz.(O'.H.)

4 – mashq. Berilgan gaplardan olmoshlarni toping va turlarini aniqlang.

1. Men undan so'radim. Mehringni qo'yib bunchalar saralab gul terding kimga? (Q.Muhammadiy). 2. Bir vaqtlar qarshimdan o'tsang seni derdim oddiy yo'lovchi (Shukrullo). 3. Shu-Shu biz bordi-keldi qilamiz (A.Rahmat).4. Kishi o'z hayotida ko'p narsani ko'radi, eshitadi ,guvohi bo'ladi.(I.R.)5.Shu xatlardan ikkitasini siz yozgan bo'lsangiz kerak.(A.Q.)6.Kishining hurmati o'z qo'lida.(Maqol.) 7.Qo'ng'iroq chalinib bo'lguncha , hech kim gapirmadi.(P.Q.)8. --Yo'q,yo'q, joyingizdan qimirlasangiz, ular qo'rquvdan o'lib qolishadi.(M.Tven.)9.Men hayron , hech narsaga tuchunmayman.(Q.S.)10.Uzoqdan allakimning ovozi eshitildi.11.Mirvali – allaqaysi institut talabasi.12.Telefon trubkasini kimdir ko'tardi.(Q.Sodiqov.)13.Nima eksang,shuni o'rasan.(Maqol.)

14 - mashg'lot

So'roq, belgilash,bo'lishsizlik va gumon olmoshlari.

1-mashq.Berilgan gaplarni o'zbek tiliga tarjima qiling va, olmoshlarning turini aniqlab, ostiga chizing.

1.Тебя просят к телефону. 2.Ускорение — наш девиз. 3.Я прочитал пять статей. 4.Ему вручили премию. 5.Они боролись за мир и разоружение. 6.Ты умеешь резать стекло? 7.Развитие науки охватывает все стороны нашей жизни. 8.Трудиться – долг каждого из нас. 9.Чтобы не забыть пройденный материал, его

нужно часто повторять. 10.Около нашего дома есть большой магазин. 11.Почему некоторые ребята часто болеют гриппом и ангиной. 12.Летом мы отдыхали в спортивном лагере, находящемся в горах Чимгана, там были ребята из разных уголков Узбекистана. 13.Нас, ташкентцев, было всего семеро.

2-mashq. Gaplarni o'qing so'roq olmoshlarini ko'chiring, rus tiliga tarjima qiling.

1. Qancha tirishsam ham, u beor yellar meni aldab ketadi (H. Olimjon). 2. Kim ko'p o'qisa u ko'p biladi (Maqol). 3. Qachon kelar ekan porloq quyoshim? (Uyg'un, I. Sulton) 4. Nima eksang shuni o'rsan (Maqol). 5. Nechanchi kursda o'qiysiz?. 6. Kecha qaysi kinoteatrda bo'lding? 7. Bu asar muallifi kim? 8. Bu kinoga kimlar ovoz bergan? 9. Uzoqdan allakimning ovozi eshitildi. 10. Biz har ishga, har bir mamlakatga siyosiy baho berishimiz kerak (E. Samandarov). 11. "Bundan keyin Abdiyevdan ehtiyot bo'lish kerak", — deb o'yladi Bo'riyev. (N. Y) 12. Qayerda Fotima bo'lsa, o'sha yesda suhbat qizir edi. (P. Q) 13. Kimki yuz yil yashamasa, Gunoh uning o'zidadir. (M. Shayx.) 14. Kimni maqtadi, kimni otalarcha koyidi (O.)

3-mashq. Berilgan gaplarni o'zbek tiliga tarjima qiling, o'zlik va ko'rsatish olmoshlarining tagiga chizing.

1. Надо больше доверять самим ученикам. 2. Акбар сам перевёл эту статью. 3. Мы знаем свои права. 4. Если себя считаешь человеком, другого львом считай. (Посл.) 5. Честь человека — в его собственных руках. 6. В это время подошёл мой дед. (С. Айни) 7. ... В этом важном вопросе и у нас есть недостатки. (Айбек) 8. Очень трудно выбраться из этой свалки. (А. Кадыри) 9. Тут нужно быть не домашней хозяйкой, а инженером, чтобы разбираться во всей этой технике. (А. Мухтар)

4-mashq. Quyida berilgan so'roq va bo'lishsizlik olmoshlari yordamida gaplar tuzing.

Qaysi, qanaqa, hech qachon, hech kim, hech nima, kim, nima, nechta, qancha, qay holda, hech qaysi, nechanchi, qay biri, qachondan, qanday.

**15 - Mashg'ulot.
Fe'l.**



Kutubxona

Hozirgi paytda hayotimizni kitoblarsiz va kutubxonalarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Maktab o'quvchisi ham, dehqonu chorvador ham, ishchiyu xizmatchi ham, talabalar va barcha ziyolilar o'zlari qiziqqan sohalariga oid kitoblarni o'qib turadilar. Sharqda kitobni nondek e'zozlaydilar.

Kutubxona - bu bir kishi yoki ko'pchilik tomonidan yig'ilib, saqlanadigan kitoblar to'plami hamda barcha savodxon va ijodkorlar uchun ilm- ma'rifat maskanidir.

Kutubxonalar bir necha yillardan beri mavjud. Mamlakatimizda ham dastlabki kutubxonalar bir necha ming yillardan avval paydo bo'lgan. Qomusiy bilimlar egasi bo'lgan Muso Xorazmiyning 20 dan ortiq, Ahmad Farg'oniyni 10 dan ortiq, Ismoil Buxoriyning 20 dan ortiq, Abu Nosir Farobiyning 160 dan ortiq, Ibn Sinoning 450 dan ortiq, Beruniyning 160 dan ortiq, Zamaxshariyning 50 dan ortiq turli fanlarga oid asarlar yaratganliklari ham yurtimizda kitob, kutubxona, ilm-ma'rifatga qiziqish qadimdan katta bo'lganligidan dalolat beradi. Sohibqiron Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Husayn Boyqaro, Bobur hukmronlik qilgan paytlarda kutubxonalar madrasalar qoshida, saroylarda bo'lgan. Kutubxonalardan ko'proq mudarrislar, talabalar, shoiru olimlar foydalanishgan.

Bugungi kunda esa har bir korxonaning, har bir maktab, litsey, kollej va oiliy o'quv yurtining o'z kutubxonasi bor. Tuman, shahar, viloyat miqyosida aholiga xizmat ko'rsatadigan katta- katta kutubxonalar mavjud. Hatto ayrim kishilarning ham boy shaxsiy kutubxonalari bor.

Respublikamizdagi eng katta kutubxona- Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Davlat kutubxonasidir. Bu kutubxona 1870- yilda tashkil etilgan. Bu kutubxonada dunyoning ko'pgina tillaridagi 5 milliondan ortiq kitob mavjud. Bundan tashqari, bu kutubxonada O'zbekiston, O'rta Osiyo tarixi, ilm- fani, adabiyoti, madaniyatiga oid necha minglab noyob qo'lyozmalar saqlanmoqda.

Samarqand shahri ham qadimiy ilm fan markazlaridan hisoblanadi. Bu yerda ham kutubxonalar ko'p. Samarqand shahridagi eng katta va boy kutubxona SamDUning ilmiy kutubxonasidir. Bu kutubxona 1927- yili tashkil topgan. Hozir bu kutubxonada qariyb 3 millionga yaqin ilmiy, badiiy va ilmiy- ommabop kitoblar mavjud. Bu kitoblar o'zbek, rus, ingliz, fransuz, nemis, arab, fors- tojik kabi 50 dan ortiq tillardadir. Ilmiy kutubxona 2 qavatli binoda joylashgan. Birinchi qavatda kitoblarni saqlash, ma'lumotlar va kartotekalar bo'limlari joylashgan. Ikkinchi qavatda katta va yorug' o'quv xonasi, chet tillardagi adabiyotlar, sharq qo'lyozmalari, gazeta va jurnallar, badiiy va ilmiy asarlar saqlanadigan bo'limlar hamda professor- o'qituvchilar uchun alohida qiroatxona joylashgan. Ilmiy kutubxonaning ikkita katta filiali ham bor. Ularda talabalar ko'proq o'quv adabiyotlarini o'rganish bilan mashg'ul bo'ladilar. Ilmiy kutubxona har kuni ertalab soat 8 dan kech soat 20 gacha ishlaydi. Kutubxonaning o'quv xonasi ertalabdan kechgacha ilmiy xodimlar, professor- o'qituvchilar va talabalar bilan gavjum bo'ladi. Kutubxona xodimlari kitobxonlarga kitoblarni izlab topish va tanlashda yordam beradilar.

1 – mashq. Nuqtalar o'rniga kerakli qo'shimchalarni qo'yning va ularni rus tiliga tarjima qiling.

1. A'lochi talabalar mukofot...di. 2. Maktab binosi chiroyli qur...di. 3. Ilg'or ishchilar rag'batlantir...di. 4. Xotin-qizlar yig'ilishi o'tkaz...di. 5. Muhtojlarga moddiy yordam ber...di. 6. Bugun adabiyot darsida yangi mavzu o't...di.

2 – mashq. Quyidagi so'zlardan hozirgi zamon fe'llarini hosil qiling va gaplar tuzing.

Aytmoq, bajarmoq, qurmoq, tuzmoq, to'qimoq, o'qimoq, yuvmoq, kuzatmoq, kutmoq, tekshirmoq, yugurmoq, aralashtirmoq, kutib olmoq, harakat qilmoq.

Namuna: Biz oraliq nazorat ishini bajaryapmiz.

3 – mashq. Quyidagi gaplarni o'qing, rus tiliga tarjima qiling.

1.1-sentabr — O'zbekiston Respublikasining Mustaqillik bayrami. 2. Ma'lumotlarga ko'ra bu yil ham paxta tayyorlash rejasi bajarildi. 3. Universitetning turkiy tillar guruhida uch xil xorijiy til o'rganilmoqda. 4. Sinfimizdagi o'quvchilarning deyarli hammasi o'zbekcha gaplasha boshladi. 5. Biz o'zbek tilidan tashqari ingliz tilini ham o'rganyapmiz.

4 – mashq. Gaplar va maqollarni o'zbek tiliga tarjima qilib ko'chiring, fe'llarni topib ostiga chizing.

1. Мой брат прислал мне не письмо, а телеграмму. 2. Ваш отчет о практике отдали декану факультета. 3. Твою книгу принесу завтра, я ее ещё не прочитала. 4. Наша школа обеспечена техническими средствами обучения и наглядными пособиями. 5. Лучше хлеб с водою, чем пирог с бедою. 6. Меньше говори, больше слушай. 7. Что посеешь, то и пожнешь. 8. Что имеем не храним, потерявши — плачем. 9. Слово не воробей, вылетит — не поймаешь. 10. Дорого, да мило, дешёво, да гнило.

5 – mashq. Quyidagi so'zlarga qo'shimchalar qo'shib, o'tgan zamon fe'llarini yasang.

Jazo, uyqu, istak, o't, shod, ot, qiziq, varaq, yod, yon, yasha, bor, ber, tushun, bo'l.

16 - Mashg'ulot. Fe'l nisbatlari.



Bozorda

Bozor ham insonlar yaratgan buyuk kashfiyotlardan biridir. Jamiyat taraqqiy etishi bilan kishilar o'z ehtiyojlaridan ortgan mahsulotlarini bozorga olib chiqadigan bo'lishdi. Bundan sotuvchi ham, sotib oluvchi ham manfaatdor. Sharqda bozorga bo'lgan ehtiyoj juda qadim zamonlarda paydo bo'lgan. Yurtimizdan Sharqu G'arbni tutashtiruvchi "Buyuk ipak yo'li" ning o'tganligi ham bejiz emas.

O'zbekistonning Toshkent, Samarqand, Buxoro kabi shaharlari o'zining ko'plab bozorlari bilan dunyoga mashhur bo'lgan. Hozir ham Toshkentda 20 dan ortiq, Samarqandda esa 10 dan ortiq katta – kichik bozorlar mavjud.

Qadimiy va navqiron Samarqanddagi bozorlarning eng kattasi Siyob bozoridir. Bu bozor Toshkent ko'chasining boshida, Bibixonim masjidi yonida joylashgan. Toshkent ko'chasining har ikki tarafga oziq-ovqat mahsulotlari, xo'jalik, sanoat mollari, esdalik sovg'alari do'konlari, dorixona, oshxona, maishiy xizmat uylari qurilgan bo'lib, Registon maydonigacha davom etadi.

Siyob bozoriga Samarqand viloyatining turli tumanlaridan, qo'shni viloyatlardan har kuni o'n tonnalab mahsulotlar keltiriladi.

Bozorning shimoliy chetida tunukasozlik, ko'chatlar, poliz mahsulotlari rastalari joylashgan. Bu yerda kuz va bahor oylarida O'zbekistonda ekiladigan barcha daraxt ko'chatlarini, qishin- yozin qovun, tarvuz va oshqovoqlarni sotib olsa bo'ladi. Bozorning o'rtasida doimo quritilgan ziravorlar, turli dorivor o'simliklar: jag'-jag', yalpiz, qush tili, ochambiti, ismaloq, otquloq, zubturm, qo'ziqorinlar sotiladi. Bozorning sharqiy qismi non, qandolat mahsulotlari, guruch, quruq mevalar sotiladigan rastalardan iborat. Bu rastalat yonida olma, nok, uzum, limon, anor, o'rik, shaftoli, shotut, anjir, xurmo, olcha, qulupnay, gilos, behi, olxo'ri, ko'ksulton kabi shirin mevalar sotiladi. Mevalar rastasidan o'tsangiz ko'katlar va sabzavotlarga ko'zingiz tushadi. Bu yerda ko'm-ko'k kashnich, shivit, shovul, oshrayhon, barra piyoz, sarimsoq, sholg'omcha kabi oshko'klar qishin-yozin sotiladi. Dehqonlar o'zlari yetishtirgan darmondorilarga boy sholg'om, turp, bodring, karam, piyoz, kartoshka, pomidor, lavlagi, sarimsoq, shirin va achchiq qalampir, sabzi, baqlajon kabi sabzavotlarini sotish uchun mana shu rastalarga keladilar.

Siyob bozoridan baliq, tovuq, mol go'shti, qo'y go'shti, sut, qatiq, chakka, pishloq, suzma, qaymoq, qazi hamda hasipning xom mahsulotini tanlab sotib olish mumkin. Bozor yon atrofi xo'jalik –ro'zg'or buyumlari, sanoat mollari do'konlari bilan o'ralgan. Kiyim-kechak, gilam rastalari O'zbekistonda va xorijda ishlab chiqarilgan mahsulotlar bilan to'la.

Samarqandga kelgan sayyohlar Siyob bozorida sovg'a uchun sopol, chinni, yog'och buyumlar, do'ppi, to'n, belbog', pichoq, zeb-ziynat buyumlari sotib oladilar.

1 – mashq. Gaplarni o'qing, o'zlik nisbatining yasallishini izohlang.

1. Hovlimizdagi gullar ochildi. 2. Bahorda dalalar ko'klam libosi bilan yasandi. 3. O'quvchilar dam olish kuni Oybek muzeyiga borishlarini eshitib quvondilar. 4. Elmurod yuvindi, tarandi, kiyindi va nonushtaga o'tirdi. 5. Biz yozning issiq kunlarida anhor va ko'llarda cho'mildik. 6. O'qituvchi Petrovning hikoyasidan bir ajablanar, bir shodlanar edi. 7. Hozir mashina ko'rinadi. 8. U chiroyli kiyindi va suratga tushdi. 9. O'ktam rektor huzuriga kirdi va maqsadini tushuntirdi.

2 – mashq. Quyidagi soʻzlardan aniq nisbat yasab, gaplar tuzing va rus tiliga tarjima qiling.

Yuvmoq, taramoq, kiymoq, maqtamoq, ochmoq, tanimoq, tashlamoq, termoq, topmoq, koʻrmoq.

3 – mashq. Gaplarni kochiring, majhul nisbat yasovchi qoʻshimchalarning ostiga chizing.

1. Anjumanda shoirlarning yangi sheʼrlaridan namunalar oʻqildi. 2. Tumanimiz markazida yangi maktab binosi qurildi. 3. Birinchi oʻrinni olgan sportchilar mukofotlandilar. 4. Bugun oʻzbek tili darsida yangi soʻzlar va yangi qoida tushuntirildi. 5. Xatolar oʻz vaqtida tuzatildi. 6. Hozir tilimizda koʻpgina yangi soʻzlar qoʻllanilyapti. 7. Yangi oʻyingoh qurib bitkazildi. 8. Majlisda muhim masalalar koʻrib chiqildi. 9. Idish-tovoq yuvildi. 10. Boshlangan ish nihoyasiga yetkazildi.

4 – mashq. Quyidagi feʼllardan feʼlning majhul nisbatini yasang, gaplar tuzing.

Koʻrsatmoq, oʻqimoq, yozmoq, olmoq, bitirmoq, boshlamoq, baholamoq, koʻrmoq, soʻzlamoq, javob bermoq, boʻlmoq, taqdirlamoq.

5 – mashq. Quyidagi feʼllardan birgalik nisbati yasab, gaplar tuzing.

Bajarmoq, yozmoq, qaramoq, oʻqimoq, koʻrmoq, ketmoq, koʻrib chiqmoq, javob bermoq.

6 – mashq. Quyidagi feʼllardan orttirma nisbat hosil qiling va gaplar tuzing.

Bilmoq, yemoq, yozmoq, ishlamoq, ichmoq, yigʻlamoq, ketmoq, olmoq, pishmoq, tushmoq, chiqmoq, oʻqimoq, qaytmoq, yurmoq.

17 - Mashgʻulot.

Feʼl mayllari.



O'ZBEKISTONNING HAYVONOT OLAMI

O'zbekistonning hayvonot dunyosi juda boy va turli-tumandir. Amudaryo, Sirdaryo, Orol dengizi, Zarafshon daryosi, qator suv omborlari va ko'llarda oltmishdan ortiq baliq turlari, yuzlab turdagi suv qushlari yashaydi. Oqqayroq, tovonbaliq, zog'orabaliq, laqqa, ilonbosh, olabug'a, cho'rtan baliqlar ko'plab ovlanadi. Ondatra, qunduz, suvsar, nutra, tulki kabi hayvonlar chiroyli mo'ynasi uchun ov qilinadi.

Bepoyon cho'llarda, ulkan tog' tizmalarida, vohalarda 60 turga yaqin sudralib yuruvchilar, 90 turdan ortiq sut emizuvchilar, 410 dan ortiq turdagi qushlar tarqalgan.

O'zbekiston hayvonot dunyosi juda qadimiydir. Hayvonlarning ayrim turlari faqat shu yerning o'zida paydo bo'lgan. Bunday hayvonlarga orol shipi, katta kurakburun baliq, turkiston agamasi, turkiston gekkoni, qum bo'g'ma iloni, xo'jasavdogar, qo'shoyoq, ko'k sug'ur, ingichka barmoqli yumronqoziq va boshqalar kiradi. Tekisliklarda sirtlon, bo'ri, chiyabo'ri, tovushqon, asalxo'r, tulki, jayra, tipratikon, jayron, to'ng'iz, bug'u, qulon, toshbaqa, kaltakesak, ilon va echkemarlarni uchratish mumkin. Yaqingacha yo'lbars na'ralarini ham eshitish mumkin bo'lgan.

Tog'lar va uning atroflaridagi o'rmonlar, chakalakzorlarda ayiq, bo'ri, olmaxon, burgut, kalxat, qarchig'ay, qumoy, tasqara, boltayutar, miqqiy, lochin, itolg'i, qarg'a, quzg'un, kaklik, qirg'ovullar yashaydi. Ayrim qushlar odamlar bilan qishloq va shaharlarda yonma-yon yashashga odatlangan. Bularga qaldirg'och, chumchuq, musicha, mayna, kaptar, laylak kabilarni kiritish mumkin.

Odamlar eng "qadimgi davrlardan boshlab yovvoyi hayvonlarni xonakilashtirganlar. Xonakilashtirilgan hayvonlar sirasiga tuya, ot, sigir, qo'y, echki, cho'chqa, eshak, it, mushuk, quyon, tovuq, kurka, g'oz, o'rdak, kaptarlar kiradi. Asalari, ipakqurti kabi hasharotlar ham xonakilashtirilgan.

Hayvonlar qadimdan har xil xomashyo, go'sht va mo'yna manbai bo'lib kelgan. Hozir ham tirik tabiat mahsulotlaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Har yili yurtimizdagi baliqchilik xo'jaliklarida baliqlar ko'paytiriladi. Daryo va ko'llardan ming sentnerlab baliq ovlanadi, minglab mo'ynali hayvonlar terisi tayyorlanadi. Qirg'ovul, kaklik, bedana kabi parrandalar ovlanib, parhez go'sht tayyorlanadi.

O'zbekiston hududida zaharli ilonlarning besh turi yashaydi. Ularning zaharidan qimmatli dori-darmonlar tayyorlanadi. Ilon zahri ta'yyorlashda O'zbekiston dunyoda yuqori o'rinda turadi.

Har yili respublikamizda eksport uchun bir necha o'n minglab dasht toshbaqalari, tibbiy tajribalar uchun yuz mingdan ortiq ko'l baqalari tutiladi.

Hayvonlar tabiatda va qishloq xo'jaligida juda katta ahamiyatga ega.

Hasharotxo'r hayvonlar zararkunanda hasharotlarning ko'payib ketishiga yo'l qo'ymaydi.

Yovvoyi hayvonlardan foydalanish bilan bir qatorda, ularni ayovsiz ov qilish, ba'zi hollarda butunlay yo'q bo'lib ketishdan saqlash lozim. O'zbekistonda yashayotgan sut emizuvchilarning 22 turi, qushlarning 31 turi, sudralib yuruvchilarning 5 turi, baliqlarning 5 turi «Qizil kitob»ga kiritilgan. Ularni muhofaza qilish zarur.

1 – mashq. Gaplarni o'qing, rus tiliga tarjima qiling. Shart maylining yasallishini izohlab bering.

1. Dam olish kuni biznikiga kelsang, Nodiralarnikiga boramiz. 2. Kitob do'koniga borsang, menga ham o'zbek tilidagi kitoblardan olib kel. 3. Onam ishdan erta kelmasa,

men siznikiga bormayman. 4. Darslaringizni o'z vaqtida tayyorlamasangiz, hech qachon yaxshi baholar olmaysiz. 5. Otam ruxsat bermasalar, men teatrga bormayman.

2 – mashq. Gaplarni targima qilib yozing.

1. Если будет дисциплина, будет и успех. 2. Если не будет дисциплины, то не будет и успеха. 3. Если бы пришел Саид, играли бы в шахматы. 4. Ты узнаешь много интересного, если прочитаешь эту книгу. 5. Если бы не было разногласий, то этот вопрос был бы решён своевременно.

3 – mashq. O'qing. Shart maylidagi fe'llarni aniqlang va rus tiliga tarjima qiling.

1. Agar dushman taslim bo'lmasa, uni yanchib tashlaydilar. 2. Dam olish kuni biznikiga kelsang, dalaga chiqar edik. 3. Qo'lingdan kelsa, qilar ishingni bir nafas ham kechiktirma. 4. Futbol o'ynamasam ham o'yin qoidasini bilaman. 5. Bugun havo ochiq, yomg'ir yog'masa kerak. 6. Bu bola men tanimasam ham, men bilan salomlashdi. 7. Nima eksang, shuni o'rasan (Maqol).

4-mashq. So'zlarni o'zbek tiliga tarjima qiling va gaplar tuzing.

Передовик, узел, внимание, жидкий, напильник, производство, ночь, рыба, свободный, сплав, сегодня, серьезный, дверь, прибор, основа, грязь, умный, значение, пар, заказ, совесть, ткань, ковёр, свидетель, уют, забор, клей, плечо, зрелый, подушка, бугор, общество, оборудование, посуда, аренда, след, тонкий, нитка, шёлк, крупный, ремень, шумовка, клетка.

18-Mashg'ulot. Harakat nomi.



Yil fasllari.

Biz quyosh tizimiga kiruvchi sayyoralaridan biri – Yerda yashaymiz. Yer quyoshdan taxminan 150 million kilometr masofada turib uning atrofida aylanadi. Yerning quyosh atrofida bir marta to'liq aylanib chiqishi yil deb ataladi. Yer 365 kunda quyosh atrofini to'liq aylanib chiqadi. Yer bir sytkada o'z o'qi atrofida to'liq aylanadi.

Yer quyosh atrofini aylanib chiqayotganda uning nurlari sayyoramiz yuzasini turlicha yoritadi. Natijada doimiy almashib turuvchi yil fasllari vujudga keladi,

Quyosh osmonda yerga nisbatan tik ko'tarilganda, uning nurlari sayyoramizga to'g'ri tushib uni qizdiradi. Shunda yer yuzi issiq bo'ladi. Quyosh baland ko'tarilmay, uning nurlari qiyalab tushganda, sayyoramiz yuzasi yaxshi qizimaydi, havo sovuq bo'ladi.

O'zbekiston O'rta Osiyoning markaziy qismida – Sirdaryo va Amudaryo oralig'ida joylashgan. Faqat Toshkent va Namangan viloyatlari Sirdaryoning o'ng tomonida, Xorazm va Qoraqalpog'istonning bir qismi Amudaryoning chap tomonida joylashgan. O'zbekistonning sharqiy va janubiy-sharqiy qismida Tyan-shan, Oloy, Turkiston. Zarafshon va Hisor tog'lari joylashgan. Uning g'arbiy va shimoliy g'arbiy qismiga qarab tog'lar pasayib boradi, tekisliklar va vodiylarga ulanib ketadi. Vodiylar tugab cho'l va qumliklar boshlanadi. O'zbekiston serquyosh o'lka. Bu yerda yilning deyarli 250-300 kunida havo ochiq, quyosh charaqlab turadi. Mana shuning uchun ham O'zbekistonda bahor erta – mart oyidan boshlanadi.

Har yili 22 – martda kecha bilan kunduz tenglashadi. Shu kundan boshlab kechalar qisqarib, kunduzi esa uzaya boradi. Quyoshning tik ko'tarila borishidan tuproq qizib, o'simliklar, daraxtlar uyg'onadi, Barcha jonivorlar harakatga keladi. Dehqon, bog'bon, chorvadorlar bahorgi ishlarga kirishadilar. Qir adirlar, dalalar ko'm ko'k o'simliklar, rang barang gullar bilan bezanadi. Tabiatdagi bunday o'zgarishlar aprel may oylarigacha davom etadi. 22- iyunga kelib kunduzlari juda uzayadi, kechalari nihoyatda qisqaradi. Mevalar qiyg'os pishadi, sabzavot va poliz ekinlari yetiladi. Kechalari 20- 25 daraja, kunduzlari 40- 45 darajagacha isiydi. Bolalar, hatto kattalar ham ko'llar, daryolar, cho'milish havzalaridan chiqishmaydi. Yoz fasli sentabr oyigacha davom etadi.

Sentabr oyidan kuz boshlanib daraxtlar va o'simliklarning yaproqlari sariq tusga kiradi. 22 -sentabrda kecha va kunduzning kuzgi tenglashishi yuz beradi. Bu tenglashishdan so'ng kechalar yzaya boshlaydi. Kuzgi mevalar, sabzavotlar va poliz ekinlarini yig'ishga kirishiladi. Ayniqsa, bu davrda “oq oltin” yig'im- terimi avjiga chiqadi. Yetishtirilgan hosilni yig'ib- terish dekabr oyigacha davom etadi.

Dekabr qish faslining dastlabki oyidir. Endi kunlar soviydi, yomg'ir ba'zan qor yog'adi. Turna, laylak, ko'kqarg'a, qaldirg'och, bedana, bulbul kabi qushlar issiq o'lkalarga uchib ketadi. Shudgorlangan yerlar, yaproqlarini to'kkan daraxtlar dam oladi, ba'zi hayvonlar qishki uyquga kiradi. Yanvar oyidan boshlab kunlar uzaya boshlaydi. Bolalar issiq kiyimlarga o'ranib qorbo'ron o'ynaydilar, qorbobo yasaydilar, yaxmalak otib, chanada uchadilar. Fevral oyining oxirlariga borib bahorning ilk elchisi boychechaklar qor ostidan chiqib, gullay boshlaydi. Mana shu taxlit yil fasllari, almashaveradi, biz esa yana bir yosh ulg'ayaveramiz

1-mashq. Quyidagi gaplarni o'qing, harakat nomlarini aniqlang. Ularning qaysi shaxs-sonda kelganini ayting.

1. O'rtog'im Samarqanddan Respublika Rus tili va adabiyoti institutiga o'qishga kirish uchun keldi. 2. Turistlar bugun Buxoroga jo'nashga tayyorlanyapti. 3. Qishki sessiyada biz uch fandan imtihon topshirishimiz kerak. 4. Mashg'ulotlarga kechikib kelish mumkin emas. 5. Ular ham o'zbek tili kitobini kutubxonadan olishlari mumkin. 6. Kutubxonadan olingan kitoblarni o'z vaqtida topshirish shart.

2-mashq. Quyidagi gaplarni o'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Вам необходимо просмотреть эту статью. 2. Сегодня вы можете отдохнуть. 3. Нам необходимо научиться правильно говорить и писать по-узбекски. 4. Советская молодежь должна стремиться к знаниям. 5. Я сегодня не должен идти на практику. 6. Ты сейчас можешь зайти к декану. 7. Он должен написать заметку в стенгазету.

3-mashq. Gaplarni o'qing, harakat nomlarini ayting, gaplarni rus tiliga tarjima qiling.

1. Vrachga kasalning belgilarini aniq aytish kerak. 2. Davolanish uchun vrach maslahatiga quloq solish kerak. 3. Kutubxonadan istagan kitobingizni olishingiz mumkin. 4. Mashg'ulotlarga kech qolish mumkin emas. 5. Dmitriy Ivanovich Mendeleyev kitob muqovalashni va chemodan yasashni yaxshi ko'rar edi. 6. Hirotga jo'nashimiz uchun katta monelik bo'lmasa kerak.

4-mashq. Quyidagi so'z birikmalari ishtirokida gaplar tuzing.

Aytish uchun, chora topish kerak, gapirish mumkin, tushuntirish uchun, maslahatlashish uchun, bajarish lozim, kechga qolish mumkin emas, besh bahoga o'qish uchun.

5-mashq. Quyidagi fe'l negizlaridan harakat nomlari yasang va o'qing.

Ol, so'zla, tingla, quvon, bajar, ishla, boshla.

6-mashq. Quyidagi gaplarni tarjima qiling, ularda qo'llangan harakat nomlarini izohlang

Uyalib qolishni istamagan kishi doim o'zidan ehtiyot bo'ladi. 2. Savollarga javob berayotganda qo'rqish, cho'chish, shoshish yaramaydi. 3. Do'stim o'zi to'g'risida gapirishni yomon ko'radigan odam. 4. Bayram arafasida ota-ona, aka-uka, opa-singil va boshqa yaqinlarni bayram bilan tabriklash lozim. 5. Kishi sog'lom bo'lay desa, me'yorida ishlash va dam olishni bilishi kerak. 6. Dehqon kuzda yerga qancha ishlov bersa, yozda hosil shuncha mo'l bo'ladi. 7. O'qishning qiyinchiliklariga uni orzu qilganlarning barchasi ham chidayvermaydi. 8. Rejani bajarish-shart, majburiyatni bajarish-sharaf. 9. Daryoda suv ko'payganligi tufayli pastroqdagi kechuvdan o'tishga to'g'ri keldi. 10. Tergovchi jinoyat bo'yicha so'rab-surishtirish, aniqlash, qidirish ishlarini tugatib, xulosalashga o'tdi. 11. Til o'rganish uchun doimiy ravishda yangi so'zlarni yodlab bormoq lozim. 12. Fabrikaga yangi to'quv dastgohlari sotib olish rejalashtirildi.

7-mashq. Harakat nomi ishtirok etgan quyidagi maqollarni tarjima qiling va ma'nosini izohlang.

1. Yelning ishi sovurmoq, o'tning ishi qoyurmoq. 2. Kelmoq ixtiyor bilan, ketmoq ijozat bilan. 3. O'qish-ulg'ayish. 4. Halol yashamoq – xalqqa xizmat qilmoq. 5. Arslon

bolasini tutmoq uchun, arslon uyasiga kirmoq kerak.6.Yomonni yaxshi qilish-dononing ishi, yaxshini yomon qilish-nodonning ishi.7.Ilm olish-nina bilan quduq qazish.8.Uchishga qanot kerak, o'qishga – toqat.9.O'qish yaxshi, uqish undan ham yaxshi.10.Gapirganning adashmog'i, yurganning qoqilmog'i bor.11.Olmoqning bermog'i bor.12.Ortiqcha maqto'v-ishlashga g'ov.

8-mashq. Matnni tarjima qiling.

KIYIKO'T

Kiyiko't bir yillik yoki ko'p yillik o'simlik. O'zbekistonda 7 xil turi uchraydi. Kiyiko't ziravor, dorivor o'simlik sifatida ishlatiladi.

1.Чтобы стать учителем, он поступил в педагогический институт. 2.Наш староста выступает на собраниях мало. 3.Карима долго готовилась к докладу. 4.В этом году наш завод выполнил план досрочно. 5.Вчера в нашем

институте была встреча с поэтами. 6. Я встретился со своим товарищем в Ленинграде.

28-mashg'ulot.

Gapning uyushiq bo'laklari.

Краткая характеристика поколений ЭВМ

Первое поколение (1946- середина 50-х годов)

Элементная база: электронно-вакуумные лампы, резисторы, конденсаторы. Соединение элементов — навесной монтаж проводами.

Габариты: ЭВМ выполнена в виде громоздких шкафов и занимает специальный машинный зал. Быстродействие: 10-20 тис. операций в секунду.

Эксплуатация слишком сложна из-за частого выхода из строя. Существует опасность перегрева ЭВМ

Программирование: трудоемкий процесс в машинных кодах. При этом необходимо знать все команды машины, их двоичное представление, а также различные структуры ЭВМ. Этим в основном были заняты математики-программисты, которые непосредственно и работали у пульта управления. Общение с ЭВМ требовало от специалистов высокого профессионализма.

Второе поколение пришлось на период от конца 50-х до конца 60-х годов. Характерные черты ЭВМ второго поколения:

Элементная база: полупроводниковые элементы (транзисторы, диоды), а также резисторы и конденсаторы более совершенной конструкции. Соединение элементов - печатные платы и навесной монтаж.

Габариты: ЭВМ выполнены в виде однотипных стоек чуть выше человеческого роста. Для их размещения требуется специально оборудованный машинный зал, в котором под полом прокладываются кабели, соединяющие между собой многочисленные автономные устройства.

Производительность: до 1 млн. оп/с.

Эксплуатация: упростилась. Появились вычислительные центры с большим штатом обслуживающего персонала, где устанавливались обычно несколько таких ЭВМ.

Программирование: существенно изменилось, т.к. велось преимущественно на алгоритмических языках.

Третье поколение ЭВМ (60-е - 70-е года).

Элементная база: интегральные схемы, которые вставляются в специальные гнезда на печатной плате. Такие схемы могут содержать десятки, сотни и даже тысячи транзисторов и других элементов.

Габариты: большие ЭВМ внешне схожи с ЭВМ второго поколения, малые ЭВМ — это в основном две стойки приблизительно в полтора человеческого роста, дисплей.

Производительность: сотни тысяч - миллионы операций в секунду.

Произошли изменения в структуре ЭВМ. Наряду с микропрограммным способом управления, используются принципы модульности и магистральное. Принцип модульности проявляется в построении компьютера на основе набора модулей - конструктивно и функционально законченных электронных блоков в стандартном исполнении. Под магистральностью понимается способ связи между

модулями компьютера, т.е. все входные и выходные устройства подсоединены одними и теми же проводами (шинами).

Увеличился объем памяти. Магнитный барабан постепенно вытесняется магнитными дисками. Появились дисплеи, графопостроители.

Новые технологии создания интегральных схем позволили разработать в конце 70-х - начале 80-х годов *ЭВМ четвертого поколения* на больших интегральных схемах (БИС). Наиболее крупным сдвигом в электронно-вычислительной технике, связанным с применением БИС, стало создание микропроцессоров. Первый микропроцессор был создан фирмой Intel в 1971 году. На одном кристалле удалось сформировать минимальный по составу аппаратуры процессор, содержащий 2250 транзисторов.

С появлением микропроцессора связано одно из важнейших событий в истории вычислительной техники — создание и применение персональных ЭВМ, что даже повлияло на терминологию. Постепенно столь прочно укоренившееся название ЭВМ сейчас заменилось на всем привычное слово - компьютер, а соответствующая техника, прежде называемая вычислительной, стала именоваться компьютерной.

Компьютеры стали развиваться в двух направлениях. Первое - создание многопроцессорных вычислительных систем. Второе — создание дешевых персональных компьютеров, как настольных, так и переносных, а на их основе - компьютерных сетей.

1-mashq. Uyushiq bo'laklar gapning qaysi bo'lagi ekanligini aniqlang va gaplarni rus tiliga tarjima qiling.

1.Aktyor goh kulardi, goh yig'lardi. 2.Ahmad bilan Karimning mehnati yuqori baholandi. 3.She'rni ifodali o'qing va yodlang. 4.Oy yoritadi, ammo isitmaydi. 5.O'quvchilar darsda tinglaydilar, o'qiydilar va yozadilar.

2-mashq. Gaplarni o'qing. Uyushiq bo'laklar o'zaro qanday bog'langanini aytib bering.

1.U yaqin do'stlari, o'rtoqlari va tanish-bilishlari bilan xayrlashdi. 2.O'rik, olma, shaftoli va behilar gulladi. 3.Ko'p narsani bilish uchun ko'p o'qish kerak, ko'p o'rganish kerak. 4.O'rtoqlaringiz, do'stlaringiz va qarindoshlaringiz salom aytib yubordilar.

3-mashq. Gaplarni o'qing. Rus tiliga tarjima qiling.

1.Bu bino tez va chiroyli qurildi. 2.Uning ko'zlari yonar, o'zi odatdan tashqari shod, hayajonda edi. (As. M.) 3.U xafa bo'ldi, ammo yig'lamadi. 4.Bugun sen o'yna, kul, shodlan. 5.Ozoda supurilgan, salqin hovlida to'y boshlandi.

4-mashq. Quyidagi so'zlar va birikmalardan foydalanib uyushiq bo'lakli gaplar tuzing.

Olma, o'rik, nok va behi; oq, qizil, sariq; ba'zan o'qiydi, ba'zan yozadi; ham o'qiydi, ham ishlaydi; imtihon va sinov; yoki tramvay, yoki trolleybus, yoki avtobus.

29-mashg'ulot.

Undalma.

Накопители информации

Для длительного хранения больших объемов данных компьютер использует магнитные диски. Магнитные диски бывают двух типов -гибкие и жесткие. Гибкие диски (дискеты) имеют не очень большую емкость и работают сравнительно медленно, но их можно переносить с одного компьютера на другой. Жесткие диски обладают большой емкостью, но они располагаются внутри системного блока и их нельзя переносить. Диск вращается с огромной скоростью, а над магнитной поверхностью парит на воздушной подушке магнитная головка, которая записывает и считывает биты и байты данных. Корпус жесткого диска закрыт кожухом, снимать который нельзя, иначе попавшие микрочастицы пыли со временем выведут диск из строя.

Чтобы данные можно было не только записать на жесткий диск, а потом еще и прочитать, надо точно знать, что и куда было записано. У всех данных должен быть адрес. Мы уже знаем, что информация хранится не байтами, а файлами. Каждый файл на диске имеет свой адрес.

Чтобы у каждого файла на диске был свой адрес, диск разбивают на дорожки, а дорожки, в свою очередь, разбивают на секторы. Размер каждого сектора стандартен и равен 512 байтам. Разбиение диска на дорожки и секторы называется форматированием. Его выполняют служебные программы.

Самая первая дорожка магнитного диска (нулевая) считается служебной - там хранится служебная информация. Например, на этой дорожке хранится так называемая таблица размещения файлов. В этой таблице компьютер запоминает адреса записанных файлов.

Для переноса больших объемов информации между компьютерами используют лазерные компакт-диски. Один такой компакт-диск может содержать 650 Мбайт данных.

Лазерный диск вставляется в специальный дисковод, который называют дисководом CD-ROM (Compact Disk Read-Only Memory). Считывание информации производится с помощью лазерного луча. Современные дисководы CD-ROM работают почти также быстро, как жесткие диски, но, в отличие от них, такие дисководы могут только читать данные и не могут их записывать.

Для записи лазерных дисков существуют специальные «пишущие» дисководы, которые называют CD-R(Compact Disk Recorder) - устройства однократной записи и устройства многократной записи CD-RW.

Появились еще более емкие носители информации - диски DVD. Один такой диск может вместить несколько гигабайтов данных.

Каждый диск, присутствующий на компьютере, имеет уникальное имя. Имя диска состоит из одной буквы английского алфавита и двоеточия, например A: или C:.

Буквой A: общепринято обозначать дисковод для гибких дисков. Буквой C: обозначается первый жесткий диск.

Видеоконтроллеры

Электронные схемы компьютера, обеспечивающие формирование видеосигнала и тем самым определяющие изображение, показываемое монитором, называют видеоконтроллером. Видеоконтроллер обычно выполняется в виде специальной платы, вставляемой в разъем системной шины компьютера.

Видеоконтроллер получает от микропроцессора команды по формированию изображения, конструирует это изображение в своей служебной памяти — видеопамети, и одновременно преобразует содержимое видеопамети в сигнал, подаваемый на монитор - видеосигнал.

Устройства ввода-вывода информации

К устройствам ввода информации относятся клавиатура, манипуляторы (мышь, джойстик, световое перо), сканер, средства речевого контроля. С помощью *клавиатуры* пользователь вводит алфавитно-цифровую информацию и управляет работой компьютера. Любая клавиатура имеет четыре группы клавиш:

клавиши пишущей машинки для ввода прописных и строчных букв, цифр и специальных знаков;

служебные клавиши;

функциональные клавиши;

клавиши малой двухрежимной цифровой клавиатуры, обеспечивающие быстрый и удобный ввод цифровой информации, а также управление курсором и переключение режимов работы клавиатуры.

Манипуляторы являются дополнительными устройствами для ввода информации. Совместно с клавиатурой они повышают удобство работы пользователя с компьютером. В настоящее время используются различные виды манипуляторов:

джойстик обеспечивает перемещение курсора на экране в одном из четырех направлений;

световое перо может применяться для указания точки на экране дисплея или для формирования изображений;

мышь представляет собой приспособление для указания нужных точек на экране путем перемещения его вручную по плоской поверхности.

Сканер предназначен для ввода в компьютер представленных в печатном виде текстовых и графических данных.

Наиболее часто используемые устройства вывода информации -это дисплеи, принтеры, графопостроители и синтезаторы звука.

Видеомонитор, дисплей или монитор предназначен для вывода на экран информации.

Принтеры - это устройства для вывода на бумагу текстов и графических изображений. В настоящее время известно несколько видов принтеров: матричный, струйный, лазерный.

Мультимедийный компьютер

Термин «мультимедиа» происходит от латинского слова *media*, переводимого как «среда или носитель информации». Таким образом, мультимедиа-компьютеры должны уметь воспроизводить:

музыку, речь и другую звуковую информацию;

анимационные фильмы и другую видеоинформацию. Мультимедийный компьютер должен быть оснащен дисководом

для компакт-дисков, звуковой картой и колонками или наушниками. Кроме этого есть требования к быстродействию, объему оперативной памяти и наличие программного обеспечения.

1-mashq. Quyidagi gaplardan undalmalarni toping va gaplarni rus tiliga tarjima qiling.

1.Butun dunyo xalqlari, tinchlik uchun kurashingiz! 2.Beri kel, Sanobar, so'zim bor senga. 3.Hormang, paxtakor o'rtoqlar! Mo'l hosil bilan tabriklayman! 4.Bu juda o'ng'ay, ukajon! 5.Majlisda siz so'zga chiqasiz, o'rtoq Ahmedov! 6.Sabr qiling, hurmatli kitobxon, oldin qishloq bilan tanishaylik. (I.R.) 7.Butun dunyo proletarlari, birlashingiz!

2-mashq. Quyidagi so'z va so'z birikmalari ishtirokida gaplar tuzing. Undalmaning qaysi o'rinda kelganini aytib bering.

O'rtoqlar, azizim, eh, uka, bolalar, o'rtoq, talabalar.

3-mashq. Undalmali beshta gap tuzing va ularni rus tiliga tarjima qiling.

4-mashq. Gaplarni o'zbek tiliga tarjima qiling, undalmaning o'rni va tinish belgisini ayting.

1.Женщины мира, боритесь за мир! 2.Прощай, мой старший товарищ. 3.Комсомольцы и пионеры, настойчиво овладевайте знаниями! 4.«Нет, ребята, я не трус», - сказал Турсун. 5.Идите к доске, товарищ Юлдашев. 6.Собирайтесь, дети, пойдем в парк.

30-mashg/ulot.

Yakunlovchi mashg'ulot.

Системы программирования

Даже при наличии десятков тысяч программ для IBM PC пользователям может потребоваться что-то такое, что не делают (или делают, но не так) имеющиеся программы. В этих случаях используются системы программирования, т.е. системы для разработки новых программ. Программа — это упорядоченный список команд, которую пишут с помощью специальных языков. Их называют языками программирования. Существуют сотни языков программирования, и у каждого могут быть десятки разных версий. Каждый программист пишет программы на том языке, который ему удобен, и нет языка программирования, считающегося общепринятым.

Программа на языке программирования записывается с помощью более-менее понятных человеку слов и символов. При этом получается так, что чем ближе язык программирования к машинному коду, тем удобнее программа для процессора - она и выполняется быстрее, и места в памяти меньше занимает. А чем ближе язык к человеческому, тем удобнее он людям, но тем меньше в нем команд для управления регистрами процессора. Языки, близкие к процессору, называют языками низкого уровня, а языки, удобные для людей, - языками высокого уровня.

Язык самого низкого уровня известен - это язык машинного кодирования (ближе к процессору не может быть). Чуть выше лежит уровень языка ассемблера, а далее идут сотни всевозможных прочих языков.

Но у всех языков программирования есть одно общее свойство. Они понятны программистам, но абсолютно непонятны процессору.

Процессор может работать только с числами, и потому понимает только программы, записанные в машинном коде. Поэтому программы, записанные на любом языке программирования, сначала «переводят» на язык процессора, т.е. превращают в машинный код. Этот перевод выполняют специальные программы-переводчики. По-английски «перевод» называется трансляцией (translation), поэтому программы, выполняющие перевод программ на язык машинного кода называют трансляторами.

Программы на языке программирования записывают в обычном текстовом редакторе и получают текстовый файл. Исходный текст программы состоит из специальных команд (операторов языка программирования). Процессор их исполнить не может, и исходную программу преобразуют в инструкции процессора. Это преобразование берут на себя трансляторы.



Трансляторы – это программы-переводчики, выполняющие перевод с языка, на котором написана программа, на язык машинного кода.

Их работа очень похожа на работу обычного переводчика, выполняющего перевод с одного языка на другой.

Есть два вида трансляторов: *компиляторы и интерпретаторы.*

Давайте посмотрим, как работает переводчик с английского языка на русский. Существует два совершенно непохожих друг на друга вида переводов: синхронный перевод и литературный перевод.

Литературный переводчик имеет дело с произведением в целом: с книгой или статьей. Он не спешит ее переводить, пока не прочитает от начала и до конца, причем несколько раз. Прочитав книгу, он наилучшим образом подберет слова, описывающие героев и события. Он сделает перевод так, что тот будет соответствовать не только содержанию оригинала, но еще и духу того времени и места, где происходит действие.

Работа программы-компилятора очень похожа на работу литературного переводчика. Компилятор несколько раз просмотрит текст программы, найдет общие повторяющиеся места и так переведет текст программы на язык машинного кода, что длина программы станет минимальной, а скорость его работы - максимальной.

Теперь посмотрим, как работает синхронный переводчик. Он занимает место между двумя людьми, разговаривающими на разных языках, и переводит каждое услышанное слово. Он не знает заранее, о чем будет идти речь дальше, и его перевод далек от идеально грамотного. Затрудняясь передать смысл какого-то слова, он может заменить его длинным предложением. Он может вставлять в речь свои пояснения и дополнения.

Работа интерпретатора похожа на работу синхронного переводчика. Прочитав одну инструкцию из программы, интерпретатор переводит ее на язык машинного кода и переходит к следующей.

Откомпилированные программы работают в 20-50 раз быстрее, чем программы, выполняемые под управлением интерпретатора.

Языки программирования, для которых существуют программы-компиляторы, называются компилируемыми языками. К ним относятся большинство современных языков: Паскаль, C++, Delphi и многие другие.

Однако бывают случаи, когда от программы не требуется быстрое действие и она не предназначена для распространения, а сделана «для себя». В этом случае удобно применить интерпретируемый язык программирования.

Интерпретируемые языки часто используют в качестве учебных. Для освоения компилирующих языков программирования нужны недели, и месяцы подготовки, а писать простые программы на интерпретируемом языке можно уже на первый-второй день после начала занятий. Простейшим интерпретируемым языком программирования считается язык Basic.

В последнее время стали появляться системы программирования на языке Java, которые позволяют создавать программы, вызываемые при просмотре Web-страниц в глобальной электронной сети Internet.

1-mashq.. Quyidagi modal so`zlar ishtirokida gaplar tuzing.

Qani, hamisha, chunonchi, nahotki, holbuki.

2-mashq. Gaplarni o`qing, o`zbek tiliga tarjima qiling.

1.Мы должны делать то, что требуется по закону. 2.Я знаю, что Света получила по узбекскому языку отличную отметку. 3.Я убежден, что мир нужен всем. 4.Декан сказал, что все должны прийти на субботник. 5.Знаете ли вы, что мы собираемся завтра ехать на экскурсию.

3-mashq.264-mashq. Quyidagi so`zlar ishtirokida gaplar tuzing.

Chiroyli, tez, o`qib, o`rgan, kelayotgan, keng, ana, u, o`nta, yigirmatacha, yaxshi, sekin, kecha.

4-mashq. Bosh va ergash gapni aniqlang, gaplarni o`zbek tiliga tarjima qiling.

1.В нашей группе нет отстающих, студентов, так как все стараются. 2.Мы обедали в той столовой, которая находилась в глубине парка. 3.Из-за того что лето было жаркое и сухое, понадобилось поливать каждое дерево. 4.Так как все товарищи пришли без опоздания, собрание началось вовремя. 5.Мир победит войну, потому что все прогрессивное человечество борется за мир.

5-mashq. Quyidagi aforizmlarni o`qing va yodlang.

Aforizmlar

Aytish oson, qilish qiyin. – Сказать легко, сделать трудно.

Aytuvchi axmoq bo'lsa, tinglovchi dono bo'lishi kerak. – Если говорящий дурак, слушающий должен быть мудрым.

Nar kim ekanini o'rar. – Каждый пожнет то, что посеял.

Achchiq savol berib, shirin javob kutma. – Не жди на горький вопрос сладкого ответа.

Gapning qisqasi yaxshi. – Краткая речь - хорошая.

Gul tikansiz bo'lmas. - Нет розы без шипов.

6-mashq. Gaplarni o`qing, o`zbek tiliga tarjima qiling. Sodda gaplarning o`zaro munosabatini aytib bering.

1.Ветер дует, гром грохочет. 2.Рассеялся туман, стало светло. 3.Прозвенел звонок, студенты вошли в аудиторию. 4.Он спросил - я ответил. 5.Люди борются за мир - мир будет сохранен.

Mavzular yuzasidan nazariy ma'lumotlar

1. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING "DAVLAT TILI HAQIDA"GI QONUNI (yangi tahrirda)

1 - modda. O'zbekiston Respublikasining davlat tili O'zbek tilidir.

2 - modda. O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi respublika hududida yashovchi millat va elatlarning o'z ona tilini qo'llashdan iborat konstitutsiyaviy huquqlariga monelik qilmaydi.

3 - modda. O'zbek tilining O'zbekiston Respublikasi hududida davlat tili sifatida amal qilishining huquqiy asoslari ushbu Qonun va boshqa qonunlar bilan belgilab beriladi.

Tilning Qoraqalpog'iston Respublikasida amal qilishiga bog'liq masalalar, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasining qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Ushbu Qonun tillarning turmushda, shaxslararo muomalada hamda diniy va ibodat bilan bog'liq udumlarni ado etishda qo'llanishini tartibga solmaydi.

Fuqarolar millatlararo muomala tilini o'z xohishlariga ko'ra tanlash huquqiga egadirlar.

4 - modda. O'zbekiston Respublikasida davlat tilini o'rganish uchun barcha fuqarolarga shart-sharoit hamda uning hududida yashovchi millatlar va elatlarning tillariga izzat-hurmat bilan munosabatda bo'lish ta'minlanadi, bu tillarni rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratiladi.

Fuqarolarga davlat tilini o'qitish bepul amalga oshiriladi.

5 - modda. O'zbekiston Respublikasida davlat tilida faoliyat ko'rsatadigan, milliy guruhlar zich yashaydigan joylarda esa - ularning tillarida faoliyat ko'rsatadigan maktabgacha tarbiya bolalar muassasalarini tashkil etish ta'minlanadi.

6 - modda. O'zbekiston Respublikasida yashovchi shaxslarga ta'lim olish tilini erkin tanlash huquqi beriladi.

O'zbekiston Respublikasi davlat tilida, shuningdek, boshqa tillarda ham umumiy, hunar-texnika, o'rta maxsus va oliy ma'lumot olishni ta'minlaydi.

7 - modda. Davlat tili rasmiy amal qiladigan doiralarda o'zbek adabiy tilining ilmiy qoidalari va normalariga rioya etiladi.

Davlat o'zbek tilining boyitilishi va takomillashtirilishini ta'minlaydi, shu jumladan, unga hamma e'tirof qilgan ilmiy-texnikaviy va ijtimoiy-siyosiy atamalarni joriy etish hisobiga ta'minlaydi.

Yangi ilmiy asoslangan atamalar jamoatchilik muhokamasidan keyin va Oliy Majlis tegishli qo'mitasining roziligi bilan o'zbek tiliga joriy etiladi.

8 - modda. O'zbekiston Respublikasining qonunlari, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining boshqa hujjatlari davlat tilida qabul qilinadi va e'lon etiladi. Bu hujjatlarning tarjimalari boshqa tillarda ham e'lon qilinadi.

Mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlarining hujjatlari davlat tilida qabul qilinadi va e'lon etiladi. Muayyan millat vakillari zich yashaydigan joylarda mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlarining hujjatlari respublika davlat tilida hamda mazkur millat tilida qabul qilinadi va e'lon etiladi.

9 - modda. Davlat hokimiyati va boshqaruv organlarida ish davlat tilida yuritiladi va zaruriyatga qarab boshqa tillarga tarjima qilinishi ta'minlanadi.

O'zbekistonda o'tkaziladigan xalqaro anjumanlarda davlat tili, shuningdek, qatnashchilarning o'zlari tanlagan tillar anjumaning ish tili hisoblanadi.

10 - modda. Korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va jamoat birlashmalarida ish yuritish, hisob-kitob, statistika va moliya hujjatlari davlat tilida yuritiladi, ishlovchilarning ko'pchiligi o'zbek tilini bilmaydigan jamoalarda davlat tili bilan bir qatorda boshqa tillarda ham amalga oshirilishi mumkin.

11 - modda. Sudlov ishlarini yuritish davlat tilida yoki o'sha joydagi ko'pchilik aholi tilida olib boriladi. Ishda ishtirok etayotgan, sud ishlari yuritilayotgan tilni bilmaydigan shaxslarga tarjimon orqali ishga oid materiallar bilan tanishish, sud jarayonida ishtirok etish huquqi hamda ona tilida so'zlash huquqi ta'minlanadi.

Korxonalar, tashkilotlar va muassasalar o'rtasidagi xo'jalik nizolarini ko'rib chiqish va hal qilishda davlat tili qo'llaniladi. Xo'jalik nizolari taraflarning roziligi bilan boshqa tilda ham ko'rib chiqilishi mumkin.

12 - modda. O'zbekiston Respublikasida notarial harakatlar davlat tilida amalga oshiriladi. Fuqarolarning talabiga ko'ra rasmiylashtirilgan hujjat matni davlat notariusi yoki notarial harakatni bajarayotgan shaxs tomonidan rus tilida yoki imkoniyat bo'lgan taqdirda - boshqa maqbul tilda beriladi.

13 - modda. Fuqarolik holatini qayd etuvchi hujjatlar, shaxsning kim ekanligini va uning huquqlarini tasdiqlovchi hujjatlar davlat tilida rasmiylashtiriladi, zaruriyatga qarab boshqa tilda tarjimasi takrorlanishi mumkin.

14 - modda. O'zbekiston Respublikasi hududida yashovchi shaxslarga davlat tashkilotlari va muassasalariga, jamoat birlashmalariga arizalar, takliflar, shikoyatlar bilan davlat tilida va boshqa tillarda murojaat qilish huquqi ta'minlanadi.

15 - modda. O'zbekiston Respublikasida yashovchi shaxslar, o'z millatidan qat'i nazar, o'z ismini, ota ismi va familiyasini milliy - tarixiy an'analarga muvofiq yozish huquqiga egadirlar.

16 - modda. Televideniye va radio eshittirishlari davlat tilida, shuningdek boshqa tillarda olib boriladi.

17 - modda. Noshirlik faoliyati davlat tilida, ehtiyojlarni hisobga olgan holda esa, boshqa tillarda ham amalga oshiriladi.

18 - modda. Pochta-telegraf jo'natmalari davlat tilida yoki fuqarolarning xohishiga ko'ra - boshqa tilda ham amalga oshiriladi.

19 - modda. Muassasalar, tashkilotlar va jamoat birlashmalari muhrlari, tamg'alari, ish qog'ozlarining matnlari davlat tilida bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan xalqaro tashkilotlar va muassasalar, qo'shma korxonalarning, shuningdek milliy madaniyat jamiyatlari va markazlarining muhrlari, tamg'alari, ish qog'ozlari matnlarining tarjimasi davlat tilida takrorlanadi.

20 - modda. Lavhalar, e'lonlar, narxnomalar va boshqa ko'rgazmali hamda og'zaki axborot matnlari davlat tilida rasmiylashtiriladi va e'lon qilinadi hamda boshqa tillarda tarjimai berilishi mumkin.

21 - modda. Korxonalarda ishlab chiqariladigan mahsulot davlat tilidagi va boshqa tillardagi yorliqlar, yo'riqnomalar, etiketkalar bilan ta'minlanadi.

22 - modda. Respublikaning ma'muriy-hududiy birliklari, maydonlari, ko'chalari va geografik obyektlarining nomlari davlat tilida aks ettiriladi.

23 - modda. O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasi matnlari, agar shartnomaning o'zida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, davlat tilida va ahdlashuvchi tomonning (tomonlarning) tilida yoziladi.

24 - modda. O'zbekiston Respublikasida davlat tiliga yoki boshqa tillarga mensimay yoki xusumat bilan qarash taqiqlanadi. Fuqarolarning o'zaro muomala, tarbiya va ta'lim olish tilini erkin tanlash huquqini amalga oshirishga to'sqinlik qiluvchi shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladilar.

Toshkent shahri, 1995- yil 21- dekabr.

FONETIKA

2. ALIFBO, IMLO VA TALAFFUZ. UNLI TOVUSHLAR VA ULARNING YOZILISHI

Fonetika (yunoncha «tovush») tilshunoslikning nutq tovushlarini didaktik nuqtai nazardan o'rganadigan sohasidir.

Harflarning ma'lum tartibda joylashtirilgan yig'indisiga alfavit (yoki alifbo) deyiladi. Kirill yozuviga asoslangan o'zbek alifbosida 33 harf va 2 ta tovush bildirmaydigan belgi mavjud bo'lib, ular quyidagi tartibda joylashgan: Aa, Bb, Vv, Gg, Dd, Ee, Ee, Zhzh, Zz, Ii, Ii, Kk, Ll, Mm, Nn, Oo, Pp, Pp, Ss, Tt, Uu, Ff, Xx, Cc, Ch, Shsh, Yy, Ya, Yy, Kk, Ff, Xx

Bu alifboda rus tiliga xos Щщ, Ыы harflari o'z ifodasini topmagan. Shunday harf bilan yoziladigan so'zlar imlo qoidalarimizga ko'ra shch harflar birikmasi va i harfi bilan yozilaveradi: борщ, - borshch, щ -- shchi, мешчан - meshchan, Тында – Tinda kabi.

Lotin yozuviga asoslanuvchi yangi o'zbek alifbosida 26 harf va 3 ta harflar birikmasi mavjud. Ularning joylashish tartibi quyidagicha:

Aa, Bb, Dd, Ee, Ff, Gg, Hh, Ii, Jj, Kk, Ll, Mm, Nn, Oo, Pp, Qq, Rr, Ss, Tt, Uu, Vv, Xx, Yy, Zz, O'o', G'g', Sh sh, Ch ch, Ng ng.

Har bir madaniyatli, ma'lumotli mutaxassis-xodim davlat tilida to'g'ri va xatosiz, ta'sirchan va ma'noli, barchaga manzur uslubda yoza bilishi lozim. Buning uchun esa o'zbek tilining imlo qonun-qoidalari hamda talaffuz me'yorlarini yetarli darajada bilishi, ularga o'zining og'zaki va yozma nutqida amal qila olishi kerak.

UNLI TOVUSHLAR

Hozirgi o'zbek adabiy tilida oltita unli tovush mavjud deb e'tirof etilgan bo'lib, ular kirill alifbosida o'nta harf bilan yozib kelingan. Ular quyidagilar: a, o, и, э, y, ъ, e, ё, ю, я. Yangi alifboda esa unli tovushlar uchun oltita harf qabul qilingan: a,o,i,e,u,o'

1. Aa harfi orqali til oldi, lablanmagan, keng unli tovush ifodalanadi. Kirill va lotin yozuviga asoslangan har ikki alifboda bosma shakli ham, yozma shakli ham bir xil. Bu tovush q, g', x chuqur til orqa undoshlari bilan yonma-yon kelgan hollarda til

orqa unlidek talaffuz qilinishi mumkin: qarg'a, g'alaba, qalin, xalq, xamir, g'azab kabi. Qolgan hollarda til oldida talaffuz etiladi: mana, ona, aka, ota kabi.

2. Oo harfi til orqa, lablangan, keng unli tovushni yozish uchun xizmat qiladi. Uning ko'rinishi ham har ikki alifboda bir xil. Masalan: olim, opa, olma, bola, xola, chol, navo, davo, ibo kabi. Faqat o'zlashma baynalmilal so'zlarda [o'], [a], [i] tovushlariga yaqin talaffuz etiladi: opera, rol, traktor, direktor, okean kabi.

3. Uu harfi lablangan, til orqa, tor unli tovushning yozuvdagi ifodasidir. Kirill alifbosida Yy ko'rinishiga ega edi. Rus tilidagi [y] tovushiga nisbatan qisqaroq talaffuz etiladi: kuz, uz, buz, uzun kabi.

4. O'o' harfi lablashgan, til orqa, o'rta keng unli tovushni ifodalaydi. Kirill yozuviga asoslangan alifboda Ыы ko'rinishiga ega edi. Rus tilida bunday tovush yo'q. Shunga ko'ra bu tovushni [o] va [y] unli tovushlari o'rtalig'idagi tovush deb hisoblash mumkin. Asosan so'zning boshida uchraydi, o'zlashma so'zlar oxirida ham uchraydi: o'n, o'lka, o'rtoq, qo'rq, to'rt, bo'g'in, cho'qqi, qo'pol, navro'z, obro' kabi.

5. Ii harfi orqali o'zbek tilidagi til oldi, lablanmagan, tor unli tovush ifodalanadi. Kirill alifbosida Ии shakliga ega edi. Bu tovush ham chuqur til orqa [q], [g'], [x] undosh tovushlari bilan yonma-yon kelganda rus tilidagi [ы] unli tovushiga yaqin talaffuz etiladi: tiqin, biqin, chaqin, og'iz, bo'g'iz, qiziq, taxir, oxir kabi. Qolgan hollarda qisqa unli tovush tarzida talaffuz etiladi: bil, til, biz, siz, bilak, bilan, tilak, tish, ish kabi.

6. Ee harfi til oldi, lablashmagan, o'rta keng unli tovushni bildiradi. Kirill alifbosida Ээ shakliga ega edi. Asosan so'zning boshida uchraydi: el, eshik, ekin, ertak, erkak, elak kabi. Shuningdek, o'zlashma so'zlar o'rtasi va oxirida ham uchraydi: poeziya, poema, duet, duel, karate kabi.

Kirill yozuvi asosidagi alifboda yana e, ё, ю, я harflari ham mavjudki, ular yotlashgan tovushlarni yozuvda ifodalashga xizmat qiladi. e harfi [y] undosh tovushi bilan [e] unli tovushining birikuvidan, ё harfi [y] undosh tovushi bilan [o] unli tovushining birikuvidan, ю harfi [y] undosh tovushi bilan [u] unli tovushining birikuvidan, я harfi esa [y] undosh tovushi bilan [a] unli tovushining birikuvidan hosil bo'lgan tovush birikmalarini ifodalaydi. Masalan: етти — yetti, елка — yelka, ер — yer, емоқ, — yemoq, ёлфон - yolg'on, ёғ -- yog', ёмғир -- yomg'ir, ёстик, — yostiq, юлдуз - yulduz, юмшоқ — yumshoq, юммоқ — yummoq, ютмоқ, — yutmoq, яшил - yashil, яқин — yaqin, янтоқ — yantoq, ярим — yarim kabi. Yangi alifboga o'tilishi bilan so'zlarni bunday turli-tuman yozishlarga barham beriladi.

3 UNDOSH TOVUSHLAR VA ULARNING YOZUVDAGI IFODASI. BO'G'IN. URG'U

Undosh tovushlar faqat shovqin yoki ovoz va shovqinning qo'shiluvidan hosil bo'ladi. O'zbek tilidagi undosh tovushlar kirill alifbosida 23 ta harf bilan ifodalanadi. Ular quyidagilar: б, в, г, д, ж, з, й, к, л, м, н, п, р, с, т, ф, х, ч, ш, қ, ғ, х, нг. Yangi alifboda undosh tovushlar 20 ta harf va 3 ta harflar birikmasi bilan ifodalanadi. Ular: b, d, f, g, h, j, k, l, m, n, p, q, r, s, t, v, y, x, z, g', sh, ch, ng.

1 Bb(Бб) harfi lab-lab, portlovchi, jarangli undosh tovushni ifodalaydi. Yangi alifboda Bb shakliga ega. So'z oxirida jarangsizlangan holda talaffuz etiladi. Misollar: bola, bobo, obida, maktab, kitob, oftob kabi.

2.Vv(Вв) Bb lab-lab, sirg'aluvchi, jarangli, o'zlashgan so'zlarda esa lab-tish, nortlovchi undosh tovushni ifodalash uchun xizmat qiladi. Yangi alifboda Vv ko'rinishiga ega. Misollar: qovun, sovun, suv, quvon, ov, vint, vagon, vino, vaxta, valent kabi.

3.Gg (Гг) harfi til orqa, portlovchi, jarangli undosh tovushni ifodalaydi. Yangi alifbodagi ko'rinishi: Gg. So'z oxirida asosan o'zlashma so'zlarda uchraydi. Misollar: gala, gap, go'sht, bugun, tugun, lagan, enaga, geolog, biolog, filolog, monolog kabi.

4. Dd(Дд) harfi til oldi, portlovchi, jarangli undosh tovushni ifodalaydi. Yangi alifboda Dd ko'rinishiga ega.

So'z oxirida jarangsizlashadi. Misollar: dala, doston, badan, odat, saodat, obod, ozod, avlod, daromad, shogird kabi.

5. Jj (Жж) harfi o'zbek tilida ikki undosh tovushni bildiradi. Ulardan biri — fors-tojik, rus tillaridan o'zlashgan so'zlarda uchrovchi til oldi, sirg'aluvchi, jarangli undosh tovush bo'lsa, ikkinchisi — til oldi, qorishiq, portlovchi, jarangli undosh tovushdir. Yangi alifbodagi ko'rinishi — Jj. Misollar: anjuman, ijara, injil, jannat, jajji, ajdar, sajda, tarjima, majnuntol, abajur, jirafa, jyuri kabi.

6. Zz(Зз) harfi til oldi, sirg'aluvchi, jarangli undosh tovushni ifodalaydi. Yangi alifboda Zz shakliga ega. Misollar: zarur, aziz, so'z, buzoq, qiziq, oziq, zulf, zo'r, bazo'r, uzuk, bezak kabi.

7. Yy(Йй) harfi til o'rta, sirg'aluvchi, jarangli undosh tovushni ifodalaydi. Yangi alifboda Yy shaklida. Misollar: yigit, yil, yo'l, uy, to'y, choy, chiroy, o'yin, bo'yin, qiyin, tanglay, manglay kabi.

8. Kk(Кк) harfi yaqin til orqa, portlovchi, jarangsiz undosh tovushni ifodalash uchun xizmat qiladi. Yangi alifbodagi shakli ham amaldagi alifbodagi shakliga o'xshash: Faqat kichik bosma va yozma shaklida ozgina farqi bor: Kk. Misollar: eshik, kurash, kurka, ko'kat, ko'ylak, ko'z, ko'mir, ko'p kabi.

9. Ll(Лл) harfi til oldi, sirg'aluvchi, jarangli undosh tovushni ifodalaydi. Yangi alifboda Ll ko'rinishiga ega. Rus tilidagi shu tovushga nisbatan yumshoq talaffuz etiladi. Misollar: lab, tol, bol, lola, xola, quloq, lotin, oltin, kul,

10. Mm(Мм) harfi lab-lab, burun, sonor, portlovchi, jarangli undosh tovushni yozuvda ifodalaydi. Yangi alifboda kichik bosma va yozma shakli bir oz farqli: Mm. Misollar: malika, mumkin, bo'lim, madaniyat, mamnun, sanam kabi.

11. Nn(Нн) til oldi, portlovchi, burun, jarangli undosh tovushni ifodalaydi. Yangi alifbodagi ko'rinishi — Nn. Misollar: non, obuna, dona, nodir, nazar, necha, namuna, nishon, imkon, tana kabi.

12. Pp(Пп) lab-lab, portlovchi, jarangsiz undosh toviishni ifodalaydi. Yangi alifboda Pp shakliga ega. Misollar: ko'pik, poliz, opa, pul, parranda, sepkil, ko'p, to'p, qop, sergap, hasip, poytaxt kabi.

13.Rr(Рр) harfi til oldi, titroq, jarangli undosh tovushni yozuvda ifodalaydi. Yangi alifboda Rr ko'rinishiga ega. Misollar: randa, arra, ari, bo'ri, ruxsat, taxir, temir, ko'r, tarona, orzu kabi.

14. Ss(Сс) harfi til oldi, sirg'aluvchi, jarangsiz undosh tovushni ifodalash uchun xizmat qiladi. Yangi alifboda Ss shakliga ega. Misollar: sim, mis, sumalak, asosan, havaskor, nafas, olmos, simob, sakkiz kabi.

15. Tt(Тт) harfi til oldi, portlovchi, jarangsiz undosh tovushni ifodalaydi. Yangi alifboda kichik bosma va yozma shaklida farqi bor: Tt. Misollar: tandir, tomir, tegirmon, ota, katta, tut, ruxsat, rohat kabi.

16. Ff(Фф) harfi orqali lab-tish, sirg'aluvchi, jarangsiz undosh tovush yozuvda ifodalanib kelinmoqda. Yangi alifbodagi ko'rinishi — Ff. Asosan o'zlashma so'zlarda uchraydi. Shuning uchun ham [p] undosh tovushiga yaqin talaffuz etiladi. Misollar: afandi, fasl, folbin, ofarin, harf, safar, nafar, fil, flkr, naf, saf kabi.

17. Xx(Хх) harfi chuqur til orqa, sirg'aluvchi, jarangsiz undosh tovushni ifodalaydi. Yangi alifboda ham shunday shaklga ega. Misollar: xabar, xatar, xotin, taxta, paxta, tarix, mix, sho 'x kabi.

18. (Цц) harfi til oldi, qorishiq, jarangsiz undosh tovushni ifodalaydi. Faqat o'zlashma so'zlardagina uchraganligi tufayli yangi alifboga kiritilmagan. Imlo qoidalari doirasida shunday tovushli so'zlar s harfi, ts harflar birikmasi bilan yoziladi. Misollar: sex, konsert, sirk, sement, sirkul, dotsent kabi.

19. Ch ch(Чч) harfi til oldi, qorishiq, portlovchi, jarangsiz undosh tovushni yozuvda ifodalaydi. Yangi alifboda quyidagi harflar birikmasi bilan berilgan: Ch ch. Misollar: chuchvara, chaqaloq, chumoli, soch, guruch, ishonch, achchiq, chuchuk, chilangar, cho 'chqa kabi.

20. Sh sh(Шш) harfi til oldi, sirg'aluvchi, jarangsiz undosh tovushni yozuvda ifodalaydi. Yangi alifboda Sh sh harflar birikmasi bilan beriladi. Misollar: shamol, shimol, insho, kishi, pashsha, osh, tosh, kumush, tush kabi.

21. Qq(Ққ) harfi o'zbek tilining o'ziga xos chuqur til orqa, portlovchi, jarangsiz undosh tovushini ifodalash uchun xizmat qiladi. Shakl jihatidan k harfiga yaqin bo'lganligi uchun ba'zi talabalar talaffuz va yozuvda ularni adashtiradilar. Yangi alifbodagi shakli — Qq. Misollar: qishloq, qoshiq, qarmoq, so'qmoq, ariq, botqoq, chaqqon, chaqin kabi.

22. G' g'(Гг) harfi orqali til orqa, sirg'aluvchi, jarangli undosh tovush yozuvda ifodalanadi. Yangi alifboda quyidagi ko'rinishga ega: G'g'. Misollar: g'alaba, g'arb, tog'ora, tog'a, bog', qarg'a, to'g'nag'ich, to'g'ri kabi.

23. Hh(Хх) harfi bo'g'iz, sirg'aluvchi, jarangsiz undosh tovushini ifodalaydi. Yangi alifboda Hh ko'rinishiga ega. Shaklan x harfiga o'xshash va talaffuzda ham yaqin bo'lganligi uchun bu tovush hamda harflarni chalkashtirish hollari ko'p uchraydi. Yangi alifboga o'tilgandan so'ng ular o'rtasidagi o'xshashlik yo'qolib, xatoliklarga yo'l qo'yish ham barham topadi. Misollar: halqa, hamma, hosil, ohu, baho, zahar, muhandis, olloh, shoh, guvoh, guruh, siyoh, ahamiyat, suhbat kabi.

24. Ng ng(Нг). O'zbek tilida нг harflar birikmasi bilan yozib kelinayotgan til orqa, portlovchi, jarangli undosh tovush mavjud bo'lib, unga alifboda alohida harf ajratilmagan. Yangi alifboda ng harflar birikmasi o'z ifodasini topgan: Ng ng. Bu tovush so'z boshida uchramaydi. Rus tilida yo'q. Asosan, so'z oxirida, ayrim hollarda so'z o'rtasida ham keladi. Misollar: tong, ming, bodring, shudring, ko'ngil, singil, yeng, o'ng, durang, keng, rang, chang, garang, ong kabi.

Ayirish va yumshatish ъ, ь belgilari. Bu har ikkala belgi ham o'zlashma so'zlarda qo'llanadi. Ayirish belgisi объект, субъект, kabi rus tilidan, санъат, суръат, таъма, даъво, меъмор kabi arab tilidan o'zlashgan so'zlarda ishlatiladi. Yangi alifboga tovush bildirmaydigan belgilar kiritilmagan. Unga kiritilgan ayirish (tutuq ') belgisi

faqat arab tilidan o'zlashgan so'zlardagina ishlatiladi. Ruscha-baynalmilal so'zlar tutuq belgisiz qo'llanadi. Yumshatish belgisi rus tilidan kirib kelgan модель, сентябрь kabi so'zlarda qo'llanadi. Agar bu so'zlarga qo'shimcha qo'shilsa, yumshatish belgisi tushib qoladi: modellar, sentabrda, kabi. Yangi alifboga yumshatish belgisi kiritilmagan.

BO'G'IN. Bir havo zarbi bilan talaffuz etiladigan birgina tovush yoki bir necha tovush yig'indisiga bo'g'in deyiladi. So'zda bo'g'inlar miqdori uning tarkibidagi unli tovushlar soniga bog'liq. So'zda nechta unli tovush ishtirok etayotgan bo'lsa, bo'g'inlar soni ham shuncha bo'ladi. Bo'g'inlar unli tovush bilan tugagan bo'lsa (o-na, a-ka, mu-sho-i-ra) ochiq bo'g'in hisoblanadi, undosh tovush bilan tugagan bo'lsa (mak-tab, meh-nat, qat-tiq) yopiq bo'g'in sanaladi. o'zbek tilida so'zlarga qo'shimchalar qo'shilishi bilan ularning bo'g'inlarga ajralishida o'zgarish yuz berishi mumkin: qish-loq, qish-lo-g'i-miz, o-na, o-nam-ga kabi. o'zbek tilida so'zlar qo'sh unli yoki qo'sh undosh tovush bilan boshlanmaydi, so'z oxirida esa ikkitadan ortiq undosh tovush yonma-yon kelmaydi, qo'sh undoshlarning ham oxirgisi talaffuzda tushib qoladi: past, baland, Samarqand, Toshkent kabi.

URG'U. Gapda biror-bir so'zning, so'z tarkibidagi biror -bo'g'inning boshqalariga nisbatan kuchliroq ohang bilan talaffuz etilishiga urg'u deyiladi. Bo'g'inga tushgan urg'u — so'z urg'usi, gap tarkibidagi so'zga tushgan urg'u - mantiq urg'usi deb yuritiladi. O'zbek tilida so'z urg'usi, asosan, so'zning oxirgi bo'g'iniga tushadi va so'zga qo'shimchalar qo'shilishi bilan urg'u har safar oxirgi bo'g'inga ko'chaveradi. Masalan: paxta` paxtako`r, paxtakorla`r, paxtakorlarda`n kabi. Urg'u boshqa bo'g'inlarga ham tushishi mumkin. Birinchi bo'g'inga urg'u tushadigan so'zlar: ba`rcha, ha`mma, ki`mdir, do`im, ho`zir, a'slo, ha`tto, ga`rchi, a'mmo, le`kin kabi. Ikkinchibo'g'iniga urg'u tushadigan so'zlar: hami`sha, alba`tta, afsu`ski, nega`ki,also`.

O'zbek tilida quyidagi qo'shimchalar so'z oxiriga qo'shib kelganda urg'u olmaydi: -ku, -u, -yu, -da, -mi, -chi, -cha, -dek, -dir, -man, -san, -miz, -siz, -ma. Mantiq urg'usini olgan so'z odatda kesimdan oldin joylashadi: Bugun men sen bilan **kinoga`** boraman. Bugun sen bilan kinoga **men`** boraman. Men sen bilan kinoga **bugun`** boraman. Bugun men kinoga **sen` bilan** boraman.

So'z urg'usi ma'no farqlash uchun ham xizmat qiladi: o'lma

olma`, ho`zir — hozi`r, a`tlas — atla`s, qo`llar — qo'lla'r, bo`g'lar - bog'la`r kabi.

4 So'z tarkibi .O'zak ,negiz .

So'z tarkibi haqida qisqacha ma'lumot. So'z tarkibi fonetik jihatdan bo'g'in va tovush singari qismlarga bo'linadi. So'zning morfologik tarkibi esa fonetik tarkibidan tubdan farq qilib, so'zning ma'no bildiruvchi qismlari morfema deb nomlanadi. Masalan, ishchilarimiz so'zi quyidagicha qismlarga ajratiladi: ish-chi-lar-imiz. Bu so'zda o'z vazifasi va ma'nosiga ko'ra bir-biridan farq qiluvchi to'rtta morfema mavjud.

So'z o'zagi - so'zning tub ma'nosini bildirib, boshqa ma'noli qismlarga bo'linmaydigan bo'lak. Masalan kitobxonlik so'zida **kitob** so'z o'zagidir. Bir o'zakdan hosil bo'lgan so'zlar (bir xil o'zakli) **o'zakdosh** so'zlar deyiladi. Masalan: boshla, boshliq, boshlang'ich, boshlovchi, bosh.

Qo'shimcha. O'zbek tilida qo'shimchalar quyidagi turlarga bo'linadi :

- a) o'zakka qo'shilib yangi ma'noli so'z hosil qiladigan qo'shimchalar so'z yasovchi qo'shimchalar deyiladi.
- b) gapda so'zlarni bir – biriga bog'laydigan qo'shimchalar so'z o'zgartiruvchi qo'shimchalar deyiladi .

Otlardagi egalik va kelishik, fellardagi shaxs-son qo'shimchalari gapda so'zlarni bir-biriga bog'lash uchun ishlatiladi.

Negiz. O'zakka so'z yasovchi qo'shimcha qo'shish bilan negiz hosil bo'ladi. Negiz shu yasalgan so'zning asosiy ma'nosini bildiradi.

5 LEKSIKOLOGIYA

Leksika - tildagi barcha so'zlar va iboralar yig'indisidir. Leksika tilning **lug'at tarkibi** deb, uni o'rganadigan fan esa **leksikologiya** deb ataladi.

Leksikologiya tilning lug'at sostavida sodir bo'ladigan turli hodisalarni, chunonchi : a) ilm-fan, madaniyat, ishlab chiqarish, texnika va boshqa sohalarining uzluksiz rivojlanishi natijasida ko'plab yangi so'zlarning yuzaga kelishini ; b) mavjud so'zlardan ba'zilarining eskirib, iste'moldan chiqib ketishini ;v) ba'zi so'zlarning ma'nosida ko'chish, kengayish yoki torayish yuz berishini tekshiradi.

Tushuncha predmet, voqea-hodisalarga tegishli eng muhim belgi-xususiyatlarning kishi miyasidagi in'ikosidir. Tushunchaning yuzaga kelishi insonning sezgi organlari faoliyati va tafakkuri bilan bevosita bog'liq: kishi nimanidir ko'radi, his etadi, u haqda o'ylaydi va fikrlaydi, natijada uning miyasida shu predmet yoki voqea-hodisaning umumlashgan aksi (in'ikosi) qoladi.

So'z – tushunchaning biror tildagi nomidir. Masalan, tabiatda o'sib rivojlanadigan, tanasi, shox-shabbasi va barglari bo'lgan predmet va u haqdagi tushuncha o'zbek tilida daraxt, rus tilida *дерево*, nemis tilida esa *der Baum* (*der Baum*) deb nomlanadi. Shu nomlar so'zdir.

So'z bilan tushuncha birga yashaydi: Chunonchi, kitob so'zini qo'llash uchun, avvalo, kitobning (o'quv quroli bo'lgan predmet va u haqdagi tushunchaning) o'zi bo'lishi kerak, aks holda, *kitob* degan so'zga ehtiyoj bo'lmaydi. Shuningdek, kitob (o'quv quroli) haqidagi tushuncha, o'z navbatida, *kitob* so'zining mavjud bo'lishini taqozo qiladi, aks holda, shu tushunchani atash imkoni bo'lmaydi.

Tushuncha tafakkur (o'ylash, fikrlash qobiliyati)ning mahsuli bo'lganligidan logika fanida, so'z esa tilga xos hodisa sifatida tilshunoslikda o'rganiladi.

Omonimlar. Aytilishi va yozilishi bir xil, ma'nolari esa har xil bo'lgan so'zlar **omonimlar** deyiladi. Masalan: tuz (osh tuzi) – tuz (harakat: reja tuzmoq); bog' (mevazor) - bog' (beda bog'i); ot (harakat: dushmanni ot) – ot (hayvon). Bunday so'zlar **leksik omonimlar** deyiladi.

Tilda yozilishi va aytilishi bir xil, ma'nolari har xil bo'lgan iboralar ham uchraydi: *boshiga ko'tarmoq* (hurmat qilmoq) – boshiga ko'tarmoq (shovqin solmoq, janjal qilmoq); ko'z yummoq (biror narsani ko'rmaslikka, bilmaslikka olmoq) - ko'z yummoq (vafot etmoq). Bunday iboralar **frazologik omonimlar** deyiladi.

Omonimlarni ko'p ma'noli so'zlar (polisemantizmlar)dan farq qilish kerak. Omonim so'zlar ifodalagan ma'nolar o'rtasida ichki bog'lanish bo'lmaydi. (Bunday ma'nolarning biri ikkinchisidan kelib chiqmaydi.) Polisemantizmda esa ma'nolar orasida ichki bog'lanish bo'ladi: ularning biri ikkinchisidan kelib chiqadi. Masalan: o't

(maysa) - o't (olov) - o't (o'tmoq fe'lining buyruq mayli). Bu so'zlar ifodalagan ma'nolar (maysa, olov, harakat ma'nolari) o'rtasida ichki bog'lanish yo'q, ularda bir ma'no ikkinchisidan kelib ham chiqmaydi. Ammo *bosh* (odamning boshi), *bosh* (daryoning boshi) kabi holatlarda ifodalangan ma'nolar o'rtasida ichki bog'lanish bor: birinchi holatda odam gavdasining boshlanish qismi, ikkinchi holatda esa daryoning boshlanish qismi ifodalangan. Demak, bu ma'nolar aslida bitta *bosh* so'zining ikki ma'nosi - to'g'ri va ko'chgan ma'nolaridir. Shuning uchun o't (I) - o't (II) - o't (III) so'zlari leksik omonimlar bo'lsa, *bosh* so'zi to'g'ri va ko'chma ma'nolari bo'lgan polisemantizm (ko'p ma'noli so'zdir).

Tilda omonimlarning ahamiyati nihoyatda katta: ular so'z o'yinida, ayniqsa, askiya va tuyuq janrlarida muhim vosita sanaladi, she'riyatga alohida badiiylik bag'ishlaydi. Misollar:

Tushma qallob to'riga,
O'tqizsa ham to'riga.

Odam qovun emasdir,
Qarab bilsang to'riga.
(Z.Sharofiddinov)

Sinonimlar. Yozilishi va talaffuzi har xil birlashtiruvchi ma'nosi bir xil so'zlar ***sinonimlar*** deyiladi. Sinonim so'zlar odatda, bir so'z turkumiga mansub bo'ladi: bahor va ko'klam (ot), chiroyli va go'zal (sifat), so'zlamoq va gapirmoq (fe'l), kam va oz (ravish). Bir ma'no atrofida birlashayotgan sinonimlar yig'indisi ***sinonimik qator***, shu qatorda nisbatan betaraf leksik ma'no ifodalagan yoki adabiy nutqqa ko'proq xos bo'lgan so'z esa ***dominanta*** deyiladi. Masalan: yolg'iz, yakka, tanho so'zlarining leksik ma'nolari bir tushunchaga asoslangan, odat, rasm, taomil, udum so'zlarining leksik ma'nolari esa boshqa bir tushunchaga asoslangan. Shuning uchun yolg'iz, yakka, tanho so'zlari bir sinonimik qatorni, odat, rasm, taomil, udum so'zlari esa ikkinchi bir sinonimik qatorni tashkil etadi. Birinchi qatordagi yolg'iz, ikkinchi qatordagi odat so'zlari nisbatan betarafligi va aktivligi bilan yakka va tanho hamda rasm, taomil va udum so'zlaridan ajralib turadi. Shuning uchun ular dominanta hisoblanadi.

Ba'zan faqat so'zlarga emas, balki so'z bilan ibora yoki ibora bilan ibora bitta sinonimik qatorni tashkil qiladi. Shu jihatdan sinonimlar uch turga bo'linadi:

1. Leksik sinonimlar. Bunday sinonimik qatorda faqat so'zlar birlashgan bo'ladi: dangasa, yalqov, ish yoqmas, tanbal.

2. Frazelogik sinonimlar. Bunday sinonimik qatorda faqat iboralar birlashgan bo'ladi: ko'ylagiga sig'maslik, terisiga sig'maslik (xursand bo'lish ma'nosida); tarvuzi qo'ltig'idan tushdi, umidi puchga chiqdi, hafsalasi pir bo'ldi (umidi uzildi, ishonchi yo'qoldi ma'nolarida); imzo chekdi, qo'l qo'ydi.

3. Leksik-frazelogik sinonimlar. Bunday sinonimik qatorda so'z bilan ibora birlashgan bo'ladi: qaramoq-nigoh tashlamoq-ko'z (qirini) tashlamoq; jazolamoq-terisiga somon tiqmoq. Leksik-frazelogik sinonimlarda dominantalik vazifasini so'z bajaradi.

Antonimlar. Qarama-qarshi ma'noli so'z yoki iboralar ***antonimlar*** deyiladi: katta va kichik, oq va qora.

Antonimik munosabatda bo'lgan ikki so'z ***antonimik juft*** deb ataladi. Antonimik juftni hosil qilgan so'zlar, odatda, bir so'z turkumiga mansub bo'ladi:

yaxshi (sifat) – yomon (sifat), ko‘p (ravish) – oz (ravish), olmoq (fe‘l) – bermok (fe‘l), tun (ot) – kun (ot).

Antonimlarning quyidagi turlari bor:

1. Leksik antonimlar – qarama-qarshi ma‘noli so‘zlar: issiq va sovuq, rost va yolg‘on.

2. Frazologik antonimlar – qarama-qarshi ma‘noli iboralar: oq ko‘ngil va ko‘ngli qora, boshi ko‘kka yetmow va fig‘oni falakka chiqmoq.

3. Leksik-frazologik antonimlar – qarama-qarshi ma‘noli so‘z va ibora: qizg‘anchiq - qo‘li ochiq, xursand - dili siyoh.

Antonimlar quyidagicha yuzaga keladi:

1. Tilning lug‘at sostavida qarama-qarshi ma‘noli ikki so‘z azaldan mavjud bo‘ladi: keng va tor, kun va tun.

2. **-chi** va **-go‘y**, **-li** va **-siz** affikslari vositasida ham antonim so‘zlar yasaladi: *yolg‘on+chi* va *rost+go‘y*, *foyda+li* va *foyda+siz*, *sifat+li* va *sifat+siz*.

3. Boshqa tillardan so‘z o‘zlashtirish natijasida antonimlar yuzaga keladi: do‘st (tojikcha-forscha) – dushman (tojikcha-forscha), band (tojikcha-forscha) - bo‘sh (o‘zbekcha), quvonch (o‘zbekcha) - g‘am (arabcha), aktiv (ruscha-internatsional) – passiv (ruscha-internatsional), azob (arabcha) – rohat (arabcha).

Tilda antonimlardan qarama-qarshi tushunchalarni, predmet, belgi, harakat kabi hodisalarni qiyoslashda, aniq yoki obrazli qilib ifodalashda foydalaniladi. Bu hol, ayniqsa, xalq maqollarida ko‘p uchraydi: Achchiq bilan chuchukni totgan bilar, uzoq bilan yaqinni yurgan bilar. Aqlli o‘zini ayblar, aqlsiz - do‘stini. Berarmonga beshov ko‘p, olarmonga oltov oz. Gap ko‘p - ish oz (Maqollar).

Antonimlardan klassik she‘riyatda ham unumli foydalanilgan. Masalan:

Jahonning **shodligi** yig‘ilsa butun,

Do‘stlar diydoridan bo‘lolmas ustun.

To‘lur **g‘am-g‘ussaga** dilning kosasi,

Qadrdon do‘stlardan judo bo‘lgan kun. (*Rudakiy*)

Ilmli odamga ulug‘lik hamdam,

Ilmsiz qozini eshak deb aytma,

Chunki bu eshakka tuhmatdir beshak. (*H.Dehlaviy*)

Leksik paronimiya. Ikki leksemani o‘zaro paronim deyish uchun (yunoncha para - “yonidagi”, onyma - “ism”) ular: 1) yasama leksemalar bo‘lishi, 2) ayni bir leksemadan yasalgan bo‘lishi, 3) ayni bir turkumga mansub bo‘lishi, 4) yasovchi morfemalarining mazmun rejasida umumiylik bo‘lishi, 5) yasovchi morfemalari ifoda rejasi jihatidan o‘xshash bo‘lishi kerak. Rus tilidan o‘zlashgan quyidagi baynalmilal leksemalar yuqorida sanalgan talablarga mos keladi, demak, **paronimlar** deb qaraladi:

1) abonent (abonement egasi) – abonement (biror narsadan ma‘lum muddat foydalanish huquqini beradigan hujjat); bunda: a) yasash asosi – abon-; b) yasovchilar - -ent, -ement-;

2) adresat (“pochta yuborilgan kishi yoki tashkilot”) – adresant (“pochtani yuboruvchi kishi yoki tashkilot”); bunda: a) yasash asosi – adres-, b) yasovchilar - -at-, -ant-;

3) diplomat (“bir hukumatning boshqa bir hukumat bilan muloqotga vakolatli amaldor kishisi”); - diplomant (“diplom ishi yozayotgan kishi”); bunda: a) yasash asosi – diplom-, b) yasovchilar - -at-, -ant-;

4) ekonomika (“iqtisodiyot”) – ekonomiya (“iqtisod qilish”, “tejamkorlik”); bunda: a) yasash asosi – ekonom-; b) yasovchilar - -ik-, -iy- kabi.

Ham ma’no jihatidan, ham talaffuz jihatidan o’xshashlik tufayli bunday paronimlarni farqlash va o’z o’rnida ishlatish ma’lum qiyinchilik tug’diradi.

Leksik paronimlar ancha sodda talablar asosida ham belgilanadi: fonemalar tuzumida faqat bir fonemasi bilan farqlanib turadigan ikki leksema o’zaro paronim deb qaraladi. Shunday talab yetarli deyilsa, alpoz (“ahvol”, “yo’sin”) – alfoz (lafz leksemasining ko’pligi), abzal (“asli afzor”: “asbob”, “egar-jabduq”) – afzal (“yaxshi”, “ortiq”), xalos (“ozod”) – xolos (“faqat”), tizmoq (“ipga shodalamoq”) – chizmoq (“chiziq tushirmoq”), xush (“yaxshi”, “yoqimli”) – hush (“kishining sezishi, idrok etish, anglash qobiliyati”), rux I (shaxmat donalaridan birining nomi – “to’ra”) – ruh (“kishining his-tuyg’ularini aks ettiruvchi kayfiyati”) kabi juftlarni paronim deyish mumkin.

Talaffuzdagi o’ta o’xshashlik tufayli bunday leksemalarni ishlatishda ham qiyinchiliklar, noo’rin ishlatishlar voqe bo’ladi.

6 SO’Z TURKUMLARI.

Morfologiyada so’z turkumlari, ularga xos grammatik kategoriyalar va umuman barcha grammatik shakllar, bu shakllarni hosil qilish yo’llari va vositalari o’rganiladi.

An’anaviy tilshunoslikning xulosalariga ko’ra o’zbek tilida 12ta so’z turkumi mavjud (oliy o’quv yurtlari darsligi, 213-bet).Ular uch guruhga bo’linadi:

I. Mustaqil so’z turkumlari: 1.Ot. 2.Sifat. 3.Son. 4.Olmosh. 5.Fe’l. 6.Ravish.

II.Yordamchi so’z turkumlari: 1.Ko’makchi. 2.Bog’lovchi. 3. Yuklama.

III.Alohida so’z turkumlari 1.Modal so’zlar.2.Undov so’zlar.

yoki alohida so’zlar guruhi: 3.Taqlid so’zlar.

Mustaqil so’zlar borliqni aks attiradi, olamdagi narsa –hodisa,belgi, miqdor,ish –harakat va holat kabilarni ataydi,ya’ni mustaqil lug’aviy ma’noga ega bo’ladi, qandaydir so’roqqa javob bo’ladi va yakka holda ham gap bo’lagi bo’lib keladi. Mustaqil so’z turkumlari ichida faqat olmoshgina predmet –hodisa , belgi va miqdorni bildiradi olmaydi, balki o’shalarga ishora qiladi.

Yordamchi so’zlar gap bo’laklari va qo’shma gap tarkibidagi sodda gaplar orasidagi turli munosabatlarni ifodalaydi yoki ularga qandaydir qo’shimcha ma’no yuklaydi,ular lug’aviy ma’noga ega bo’lmaydi, so’roqqa javob bo’lolmaydi va odatda yakka holda gap bo’lagi bo’lib kelolmaydi.

Alohida so’zlar nisbiy mustaqil lug’aviy ma’noga ega.Ular goho so’roqqa javob bo’lsa ham,o’zining maxsus so’roqlariga ega emas.Gapda ular qandaydir sintaktik vazifani bajaradi.Lekin ularning har biri o’ziga xos umumiy xususiyati bilan alohida- alohida turkumni tashkil etadi.

So’zlarni turkumlarga ajratishda quyidagilar hisobga olinadi:

1. So’zlarning semantik, ya’ni ma’no bilan bog’liq xususiyatlari.

2. Soʻzlarning morfologik belgilari (grammatik shakllari).
3. Soʻzning sintaktik belgilari.
4. Soʻzlarning yasaliishi bilan bogʻliq xususiyatlari.

Soʻzlarni turkumlarga ajratish uchun avvalo ularning konkret maʼnosini emas, umumiy kategorial maʼnosini hisobga olish kerak. Masalan, otlar predmetlik maʼnosiga, sifat predmet belgisi maʼnosiga, son nisbatan aniq miqdor maʼnosiga, feʼl ish-harakat va holat maʼnosiga ega va hokazo.

Mustaqil soʻzlarning qaysi turkumga mansubligini aniqlash uchun unga savol berib koʻrish, yaʼni uning turkumini soʻrogʻidan aniqlash mumkin. Shuning uchun har bir mustaqil soʻz turkumining soʻroqlarini bilib olish zarur. Lekin bu yerda shuni hisobga olish kerakki, soʻz turkumlari bir-biri bilan “ittifoq tuzishi”, yaʼni oʻzining soʻroqlarini boshqalari bilan baham koʻrishi va oʻzi ham oʻrni bilan boshqa soʻz turkumining soʻroqlariga javob boʻlishi mumkin. Masalan, otning soʻroqlariga ot oʻrnida qoʻllanuvchi olmoshlar, feʼlning harakat nomi shakli va barcha otlashgan soʻzlar javob boʻlishi mumkin. Ot esa sifat va ravish vazifasida kelganda ularning soʻroqlariga javob boʻla oladi: yogʻoch qoʻshiq – qanday qoʻshiq?, takror aytmoq- qay tarzda aytmoq?

Sifatlarning soʻroqlariga sifat oʻrnida qoʻllanuvchi olmoshlar, feʼlning sifatlash shakli, sifat vazifasida kelgan ot, taqlid soʻz va modal soʻz javob boʻla oladi. Sifatning oʻzi otlashib, otning soʻroqlariga javob boʻlishi mumkin.

Demak, mustaqil soʻz turkumlariga xos soʻroqlarni bilish, lekin bunda otlashish, boshqa soʻz turkumi vazifasini bajarish kabi grammatik hodisalarni hisobga olish kerak.

Soʻzning soʻroqqa javob boʻlolmasligi uning sof yordamchi soʻz ekanligini yoki yordamchi soʻz vazifasida kelganligini koʻrsatib bera oladi. Soʻroq berib koʻrish semantik prinsipning tarkibiy qismi yoki mantiqiy davomi hisoblanadi.

Soʻz turkumlarining morfologik belgisi deyilganda ularning qanday qoʻshimchalarni qabul qila olishi tushuniladi. Masalan, ot odatda soʻz yasovchilarga ega boʻlishi mumkin; u son, egalik va kelishik kategoriyalarining, yettita sintetik funksional shaklning qoʻshimchalarini qabul qiladi. Lekin ot –roq, -di, -tacha kabi qoʻshimchalar bilan kelmaydi.

Soʻzning sintaktik belgisi deganda, uning gapning qaysi qismi vazifasida kela olishi, gapning shakllanishida qanday rol oʻynashi nazarda tutiladi. Masalan, sifat va son eng avvalo sifatlovchi-aniqllovchi, ravish eng avvalo hol boʻlib keladi, koʻmakchi tobe gap boʻlagini shakllantiradi va hokazo.

Soʻz turkumlarining yasaliishi bilan bogʻliq belgilariga eng avvalo ularning oʻziga xos soʻz yasovchi affikslarga egaligi yoki ega emasligi kiradi. Masalan, -li sifat, -chi ot, -la feʼl, -ona ravish yasaydi. Mustaqil soʻz turkumlaridan olmosh va son affiksatsiya yoʻli bilan yasalmaydi.

7

Ot - soʻz turkumi.

Predmet –hodisalarning nomini bildiradigan soʻzlar turkumi ot deb ataladi. Masalan, quyosh, daraxt, osmon, eshuk kabi otlar predmet nomini, toʻfon, shamol, janjal, surgun, kengash, bahs, urush, yongʻin, bayram singarilar hodisa nomini bildiradi.

Ot 3ta (son, egalik va kelishik) grammatik kategoriyaga, 7ta sintetik funksional shaklga, shuningdek, o'ziga xos yasaliş tizimiga ega. Otning muhim grammatik xususiyatlaridan biri shuki, u mustaqil so'z turkumlarining barshasi bilan tobe bog'lanib, birikma hosil qila oladi: dala hovli, oppoq paxta, ikkita non, barcha odamlar, kitob o'qimoq, ko'p odam.

Otlar kim?, nima?, qayer? so'roqlariga javob bo'ladi. Bu uchta so'roq olmoshi ko'plik, egalik, kelishik kategoriyalarining, otga xos funksional shakllarning qo'shimchalarini olib, o'nlab shakllarda ishlatilishi mumkin: kimlar?, kimning?, kimni?, kimga?, kimda?, kimdan?, kimniki?, kimdagi?, kimday? va hokazo.

Otlar asl holida yoki grammatik kategoriyalar va funksional shakllarning qo'shimchalarini olqan holda sifat va ravish vazifasini bajarishi mumkin. Bunda ular sifat va ravishning so'roqlariga javob bo'ladi: temir darvoza, cho'yan pechka, yog'och qoshiq, saroyday hovli-qanday?: uydagi kitob, ko'chadagi toshlar-qaysi?; qon yig'lamoq, takror aytmoq, dahshat tayyorlanmoq-qay tarzda?; bayramda ko'rishmoq, Toshkentda yashamoq-qayerda?

Otning so'roqlari (qayer? so'rog'idan tashqari) ot vazifasidagi olmoshlar, fe'lning harakat nomi shakli va barcha otlashgan so'zlar javob bo'lishi mumkin: Biz keldik (kim?). Hech nimani tushunmadim (nimani?). Yugurish foydali (nima?). Yaxshi oshini yer, yomon boshini (kim?).

O'zbek tilida faqat insonni bildiruvchi otlar, ya'ni shaxs otlarigina kim? so'rog'iga javob bo'ladi. Shaxs oti atoqli ham turdosh ham bo'laverishi mumkin: Karim keldi-kim keldi? O'quvchilar yig'ildi-kimlar yig'ildi?

Bu jihatdan tillar bir-biridan keskin farqlanishi mumkin. Masalan, rus tilida barcha jonli predmetlar кто? so'rog'iga javob bo'ladi: Птица поётъ-кто поётъ? Заяц бежит?-кто бежит?

Qayer so'rog'iga faqat o'rin-joy ma'nosini bildiruvchi otlar javob bo'ladi: Toshkent—O'zbekistonning poytaxti (qayer?). Tog' havosi eng toza joy hisoblanadi (qayer?). Yaylovni aylanib chiqdi (qayerni?). Asosiy e'tibor o'rin-joy ma'nosiga emas, mavjudiyat ma'nosiga qaratilsa, aynan shu xil otlarning o'zi ham ko'pincha nima? so'rog'iga javob bo'lishi mumkin: Yurtimizda qorli tog'lar, yam-yashil yaylovlar ham ko'p (nimalar?).

Shaxs va o'rin-joy ma'nosiga ega bo'lmagan barcha atoqli otlar, shaxs ma'nosiga ega bo'lmagan va o'rin-joy ma'nosi ta'kidlanmagan barcha turdosh otlar nima/ so'rog'iga javob bo'ladi.

Bir turdagi predmet-hodisalardan birining nomini yoki shu turdagi predmet-hodisalarning umumiy nomini bildirishiga ko'ra otlar ikkiga bo'linadi:

1. Atoqli otlar.
2. Turdosh otlar.

Bir turdagi predmet-hodisalardan birining nomini muayyan doirada boshqalaridan farqlash uchun atab qo'yilgan otlar atoqli otlar deyiladi. Erkin, Alisher, Nafisa, Dildora va hokazo atoqli otlar har qadamda uchrab qolishi mumkin. Demak, bu nomlar odamlardan yoki o'zbeklardan birini umuman insoniyat yoki xalq miqyosida emas, balki faqat bitta oila doirasida yoki hatto oiladagi farzandlar doirasida boshqalaridan ajratib ko'rsatish vazifasini bajaradi.

Atoqli otlar sof ko'plik, grammatik ko'plik ma'nosiga ega bo'lmaydi. Agar ular ko'plik affiksini olsa, Grammatik ko'plik emas, balki boshqa ma'no tovlanishlari ifodalanadi: Zulfiyalar (Zulfiya va uning yaqinlari) keldi.

Atoqli otlar odatda tushum kelishigida belgisiz qo'llanmasligi bilan ham ajralib turadi.

Atoqli otlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

1. Kishilarning ismi, familiyasi va taxallusi: Rustam, Alisher, Jumaqulov, Nigora, Oybek, Uyg'un.

2. Geografik nomlar: O'zbekiston, Nil, Pomir, Kavkaz.

3. Tashkilot, korxona, muassasa nomlari: Til va adabiyot instituti, „Dilshod“ kichik korxonasi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.

4. Osmon jismlari nomlari: Yupiter, Mars, Hulkan.

.Gazeta, jurnallar hamda ilmiy, tarixiy, badiiy, publisistik va hokazo asarlarning nomlari: „Hurriyat“ gazetasi, „Yoshlik“ jurnali, „O'tgan kunlar“ romani, „O'zbekim“ qasidasi.

6. Hayvonlarga qo'yilgan nomlar: Boychibor, Yo'lbars, G'irotd, Targ'il, Olapar.

Bir turdagi predmet-hodisalarning umumiy nomini bildiruvchi otlar turdosh otlar deyiladi. Otlarning asosiy qismini turdosh otlar tashkil qiladi: suv, havo, inson, hayvon, shamol, yong'in, qalam, daftar va hokazo.

Otlarning turlanishi.

Bosh kelishik .

Bosh kelishikdagi otlar **kim? nima ?** so'roqlariga javob berib gapda quyidagi vazifalarni bajaradi.

1. **Ega :** O'quvchilar sayohatga chiqdilar. O'zbekiston- kelajagi buyuk davlat.

2. **Ot –kesim :** Men –talabaman. Otam- muhandis. Bizning vazifamiz-a'lo o'qish.

3. **Vositasiz to'ldiruvchi :** Savolga aniq javob bering.

4. **Aniqlovchi:** Bir hovuch tuproq, ikki qoshiq tuz.

5. **Payt holi:** Bu hafta ta'tilga chiqamiz. Men uch kun darsga qatnasha olmadim.

6. **Izohlovchi ;** Zavod-gigant ishga tushdi.

Qaratqich kelishig.

Qaratqich kelishigidagi so'zlar **kimning ? nimaning?** so'roqlariga javob bo'ladi. Masalan: Singlimning kitobi qiziq ekan. Qishning sovuq kunlari boshlandi.

Qaratqich kelishigidagi otlar gapda **aniqlovchi** bo'ladi va aniqlanmish so'z bilan shaxs va sonda moslashadi.

Qaratqich kelishigidagi otlar belgili va belgisiz shaklda bo'ladi. Quyidagi hollarda belgili qaratqich kelishigi qo'llaniladi.

1. Atoqli otlar qaratqich kelishigida kelganda:

Gulnoraning kitobi, Rahimning sovg'asi;

2. Qaratqich kelishigidagi ot biror narsaning ma'nosida qo'llanilsa: talabaning ijodi, o'qituvchining ma'ruzasi;

2. Agar ot –lar ko'plik qo'shimchasini olib, bunda otlashgan so'zlar belgi ifodalama : a'lochilarning tashabbusi, mardlarning shijoati ;
3. Qaratqich kelishigidagi ot va qaralmish orasida boshqa biror so'z kelsa : Quyoshning ilk nuri, singlimning qirq hikoyasi:
4. Otlashgan so'zlar qaratqich kelishigida kelganda; Egrining to'qmog'i bo'lguncha, to'g'rining so'qmog'i bo'l;
5. Qaratqich kelishigidagi ot kelishikkacha egalik affiksini olgan bo'lsa : do'stimning xati. Vatanimning jamoli ;
6. Qaratqich kelishigidagi otdan oldin maxsus aniqlovchi kelsa : Bu savolning javobi juda oson. Yig'lagan bolaning onasini qidirdim.

Qaratqich kelishigidagi otlar quyidagi hollarda belgisiz ishlatiladi.

1. Agar otlar mavhum bo'lsa : vijdon amri, do'stlik rishtasi, sevgi amri ;
2. Agar aniqlovchi so'z egalik affiksiga ega bo'lib, payt bildirsa : yoz kunlari, tong chog'i;
3. Agar qaratqich kelishigidagi ot jamoatchilikka tegishli bo'lsa: maktab bog'i, shahar ko'chasi.

Agar gapdagi bir necha so'z qaratqich kelishigida bo'lsa, qaratqich kelishigi qo'shimchasi oxirgi so'zga qo'shiladi, qolgan so'zlar esa belgisiz shaklda qo'llaniladi.

Jo'nalish kelishigi.

Jo'nalish kelishigidagi otlar harakat yo'nalgan predmetni, joyni va paytni bildirib, **kimga? nimaga? qayerga?** singari so'roqlarga javob beradi. Jo'nalish kelishigi asosan –**ga** qo'shimchasi bilan ifodalanadi. Ammo so'zlar **k** yoki **g** harflari bilan tugasa, bu kelishik qo'shimchasi –**ka** tarzida, **q** yoki **g'** harflari bilan tugasa –**qa** tarzida talaffuz qilinadi va yoziladi : terak- terakka, barg- barkka, o'roq-o'roqqa, bog'- boqqa.

Jo'nalish kelishigidagi otlar quyidagi sintaktik vazifalarda keladi :

1. kimga? nimaga? so'roqlariga javob bo'lib, **vositali to'ldiruvchi** vasifasida keladi: Dalada ishlayotgan dehqonlarga qulay ish sharoitlarini yaratish kerak;
2. qayerga? so'rog'iga javob bo'lib, **o'rin holi** vazifasini bajaradi: sayyohlar qal'aga kirib qoldilar.
3. qachon? qachongacha? so'roqlariga javob bo'lib, **payt holi** vazifasini bajaradi: Buxoro shahri bo'ylab sayohat uyushtirish kuzga qoldirildi.

Tushum kelishigi.

Tushum kelishigidagi ot **kimni? nimani?** so'roqlariga javob bo'lib, doimo o'timli fe'l bilan birikib keladi. Tushum kelishigining qo'shimchasi –**ni**.

Tushum kelishigidagi ot odatda, **vositasiz to'ldiruvchi** vazifasini bajaradi: Sayyoraxon bodomzorni aylanib chiqdi. Tushum kelishigi belgili va belgisiz shakllarda qo'llaniladi.

Belgisiz tushum kelishigi ko'zlangan predmet umumiy xususiyatga ega bo'lganda (ya'ni aniq, konkret narsa bo'lmaganda) ; Botirlari kanal qozadi, shoirlari g'azal yozadi (H.O.) Ammo tushum kelishigi belgisiz bo'lsa ham, uni fe'lga bog'langanligi uchun tezda ajratish mumkin. Tushim kelishigi quyidagi hollarda belgili shaklda qo'llaniladi.

1. Tushum kelishigidagi ot atoqli bo'lganda: Yo'lda Sobirni ko'rib qoldim.
2. Kishilik, o'zlik va so'roq olmoshlari tushum kelishigida kelganda :Meni kim so'rab keldi?U o'zini qaramog'iga olganligini bilasizmi?
3. Otlashgan so'zlar tushum kelishigida kelganda:Yomonni ko'rmaguncha, yaxshining qadriga yetmaysan;
4. Agar tushum kelishigidagi ot o'z aniqlovchisiga ega bo'lsa : Dugonamning fikrini ma'qullab turdim. Bu kitobni o'qiganman.
5. Tushum kelishigi egalik qo'shimchasidan keyin qo'shilsa : Mehmonlarning ko'nglini so'rab, keyin ishga kirishdik.
6. Agar tushum kelishigi sifatdash yoki harakat nomi bilan ifodalangan bo'lsa : Alisher 5-6 yoshlarida she'r yozishni mashq qilardi. Suvning shildirashini eshitib, soy borligini bilgim.

O'rin-payt kelishigi

O'rin-payt kelishigi harakat va holatning bajarilish o'rnini, paytini, narsa va shaxsning o'rnini singari ma'nolarni ifodalaydi.

O'rin-payt kelishigidagi ot-**da** qo'shimchasini oladi va gapda quyidagi sintaktik vazifalarni bajaradi:

1. ***Vositali to'ldiruvchi***. Kimda ? nimada ? so'roqlariga javob beradi.Azizaning otasi hassada yurar ekan.Nafisada o'sha kungi quvonchdan asar qolmagan edi.
2. ***O'rin holi***.Qayerda? so'rog'iga javob bo'ladi: Ovchi tog'da tunashga qaror qildi.
3. ***Payt holi***. Qachon? so'rog'iga javob beradi: Bugungi bayram dasturi soat ikkida boshlanadi.
4. ***Kesim***. Ish-harakat yoki holat o'rnini, predmet yoki shaxs o'rnini, yoshini bildirib, qayerdadir?, nechada?, kimda?, nimada? So'roqlariga javob bo'ladi: Vatan kelajagi yoshlar qo'lida. Mening yoshim o'n sakkizda.

Chiqish kelishigi.

Chiqish kelishigi shaxs va predmetning chiqish o'rnini, harakat va holatning boshlanish nuqtasi va payti kabi ma'nolarni bildiradi. Chiqish kelishigidagi otlar –**dan** qo'shimchasini oladi va kimdan? nimadan? qachondan? qayerdan? kabi so'roqlarga javob bo'ladi.

Chiqish kelishigidagi so'zlar gapda quyidagi sintaktik vazifalarni bajaradi:

1. ***Vositali to'ldiruvchi***. kimdan? nimadan? so'roqlariga javob bo'ladi: U do'stidan xuddi shu daldani kutib turardi.;
2. ***O'rin holi***. qayerdan? so'rog'iga javob bo'ladi:Soliha qishloqdan kechqurun keldi;
3. ***Payt holi***.qachondan? so'rog'iga javob bo'ladi: U yoshlikdan gazetalarni ko'p o'qirdi.
4. ***Sabab holi***. nimadan? nima uchun? so'roqlariga javob bo'ladi:Sevinchidan yuragi gup-gup urib ketdi.
5. ***Kesim***.kimdan(dir)? nimadan(dir)? so'roqlariga javob bo'ladi: Bola-yoshdan, odob-boshdan.

Egalik kategoriyasi otning grammatik kategoriyalaridan biri bo'lib, qarashlilik, mansublik ma'nosini, ya'ni bir narsaning ma'lum shaxs yoki narsaga qarashli ekanligini bildiradi.

Birlik
I shaxs- (i) m
II shaxs - (i) ng
III shaxs – (i) si

Ko'plik
I shaxs (i) miz
II shaxs - (i) ngiz
III shaxs – (i) si, lari

Egalik munosabatlari morfologik usulda ya'ni egalik qo'shimchalari yordamida ifodalanadi. Egalikni morfologik usulda ifodalashda qarashli predmet nomini bildiruvchi birgina so'z egalik qo'shimchasini oladi va predmet egasining shaxsini ham ko'satadi. Birlik va ko'plik sonlar uchun alohida egalik qo'shimchalari mavjud. Bundan tashqari har bir shaxs uchun affikslarning ikkitadan varianti bor : birinchi variant unli tovushlar bilan tugagan so'zlar uchun, ikkinchi variant esa undosh tovushlar bilan tugagan so'zlar uchun qo'llaniladi.

Birlik

Onam (моя мама)
Onang (твоя мама)
Onasi (его мама)
vatanim (моя родина)
vataning (твоя родина)
vatani (его родина)

Ko'plik

Onamiz (наша мама)
Onangiz (ваша мама)
Onasi (onalari) (его мама, их мама)
vatanimiz (наша родина)
vataningiz (ваша родина)
vatani (vatanlari) (его родина, их родина)

Ikki bo'g'inli so'zlar jarangsiz k va q tovushlari bilan tugagan bo'lsa, ularga egalik qo'shimchasi qo'shilganda **k** tovushi **g** ga, **q** tovushi esa **g'** ga aylanadi: eshik-eshigi, qishloq- qishlog'i va hokazo.

Mazkur qoida bir bo'g'inli va ayrim uch bog'inli so'zlarga qo'llanilmaydi: nok- noki, o'q-o'qi, ittifoq –itifoqi, ishtirok –ishtiroki va hokazo.

Egalik kategoriyasi morfologik-sintaktik usulda ifodalanganda kishilik olmoshlariga qaratqich kelishigi qo'shimchasini qo'shib mansub predmet nomi bilan birikkan holda qarashlilikni bildiradi: mening yurtim, sening xulosang, uning do'sti, bizning fikrimiz, ularning yutug'i.

Bundan tashqari egalik ma'nosi-**niki** qo'shimchasi bilan ham ifodalanishi mumkin. Bunday holatda –niki qo'shimchasini olgan so'z kesim vazifasini bajaradi.: Bu xona meniki. Yutuqlar xalqniki.

10 Sifat.

Asosan predmet-hodisalarning, qisman ish-harakat va holatning belgisini bildiruvchi mustaqil so'zlar turkumi sifat deyiladi. Masalan: **Oq** paxtalar ochildi. Hayot **murakkab** (predmet-hodisa belgisi). U **dardli** xo'rsindi. **Qiziq** kular ekan. (ish-harakat belgisi).

Sifatning asosiy morfologik xususiyatlari quyidagilar :

1.Sifat darajalanish xususiyatiga ega :yumaloq- yumaloqroq- yum-yumaloq, katta kattaroq- kap-katta - eng katta.

2.Sifat ot yoki fe'l bilan birikkanda ,hech qanday so'z o'zgartiruvchi qo'shimcha olmaydi.

Sifatlar **qanday? qanaqa? qaysi?** kabi so'roqlarga javob bo'ladi.Bu uchala so'roq so'z ham, tabiiyki,so'roq olmoshlariga kiradi.

Sifatning so'roqlariga sifat vazifasidagi olmoshlar (ko'rsatish olmoshlari, sifatning so'roqlaridan hosil bo'lgan olmoshlar),holat ravishlari, sifatdoshlar va sifat vazifasidagi otlar ham javob bo'lishi mumkin.

Sifatning o'zi otlashsa,otning so'roqlariga javob bo'la oladi.

Sifatlar ma'nosiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

1.Xil-xususiyyat bildiruvchi sifatlar: (Insonlar va jonivorlarning xarakter - xususiyatlari ,jonsiz predmetlarning

xossalari)abadiy,abjir,avom,adabiy,ajib,azaliy,asriy, ahmoq, badjahl,jonkuyar,merov,to'pori,tajang,o'gay,g'irrom,yaxshi,faol...

2.Holat bildiruvchi sifatlar: abgor,baravj,barqaror,mosuvo,muallaq,gavjum,tayyor, so'lg'in,shay,sokin,obod,pajmurda,

Sifatlar tuzilishiga ko'ra ikki xil bo'ladi.

1. Asliy : katta, oq, yashil, toza, obod;

2. Nisbiy, ya'ni sifat yasovchi qo'shimchalar yordamida boshqa so'z turkumlaridan yasalgan sifatlar: odobli, og'zaki, kuzgi, to'xtovsiz

Gapda sifatlar, odatda aniqlovchi vazifasini bajaradi, ayrim hollarda kesim ham bo'lib kelishi mumkin. O'zbek tilida sifatlar otlashib ham keladi, ya'ni ot vazifasini bajaradi. Bu holatda sifat ot singari kim? nima? So'roqlariga javob bo'ladi.: Yaxshi oshini yeydi, yomon boshini.

Aniqlovchi sifatlar aniqlamish so'zdan oldin keladi va u bilan sonda ham, shaxsda ham, kelishikda ham moslashmaydi: yangi do'stlarim, qiziq hikoyangiz.

Nisbiy sifatlar quyidagi sifat yasovchi qo'shimchalar yordamida boshqa so'z turkumlaridan yasaladi

1. –gi. Payt belgisini yoki munosabatini bildiruvchi so'zlar:bahorgi, tonggi;

2. –dagi. O'rinni bildiruvchi so'zlar: mendagi olma, kitobdagi surat;

3. –li. O'zakdan anglashilgan predmetga egalikni bildiradi: chiroyli, gulli, rangli;

4. –siz. Ozakdan anglashilgan predmetga ega emaslikni bildiradi: tuzsiz, so'zsiz, gunohsiz ;

5. –simon. O'zakdan anglashilgan predmetga o'xshashlik yoki monandlikni bildiradi: ovalsimon, yoysimon odamsimon;

6. –chan chil. O'zakdan anglashilgan xususiyat yoki belgining juda kuchli ekanligini bildiradi, u o'zak ma'nosiga bog'liq bo'ladi: xayolchan, uyatchat, epchil;

7. –ma,-ik,-iy,-ki. Turli xususiyat, xossalalar fe'l o'zakdan anglashilgan ma'no bilan bog'liq bo'ladi. Bular arabcha,

tojikcha-forscha va internasionol so'zlar, murakkab sifatlardir :
yozma, quyma, yasama, fonetik, matematik, pedagogic, uslubiy,
ommaviy, jinoiy, joriy, og'zaki, chillakiva hokazo.

11 Sifat darajalari.

Predmetlardagi bir xil belgilarning o'zaro qiyoslanishi sifat darajalarida ifodalanadi. Agar predmetdagi biror bir belgi boshqa predmetdagi belgi bilan qiyoslanmasa bunday sifat oddiy darajada bo'ladi: qora, toza, sodda.

Sifat darajalari uch xil turga bo'linadi.

1) oddiy daraja; 2) qiyosiy daraja 3) orttirma daraja

Qiyosiy daraja yoki ozaytirma daraja predmetdagi belgining boshqa predmetdagi xuddi shunday belgiga nisbatan ortiq yoki ozligini bildiradi. Qiyosiy daraja asosan morfologik usulda ifodalanadi, -roq qo'shimchasi belgining ortiq yoki kamligini aniqlab beradi: baland- balandroq, past-pastroq.

Ayrim hollarda qiyosiy daraja sintaktik usul bilan ham ifodalanishi mumkin. Bundan ko'ra, qaraganda so'zlari belgining ortiq yoki ozligini ifodalash uchun xizmat qiladi: Mohira Shoiradan ko'ra ko'p(roq)paxta terdi. Keyingi cho'qqi bunga qaraganda baland(roq) bo'lsa kerak.

Orttirma daraja predmetdagi belgining boshqa predmetlardagi xuddi shu belgidan ortiqqligini bildiradi. Sintaktik usul bilan ifodalanib, eng, juda, hammadan singari so'zlari qo'llaniladi: Fazilat buvi nevaralaridan eng kenjasini chaqirdi. O'qituvchimiz Nigora hammadan yaxshi insho yozganligini aytdi.

12 Son. Sonning turlari.

Son predmetning son-sanog'ini, tartibini, miqdorini bildiradi: besh, o'n, o'n ikki,

birinchi sinf, ikkinchi o'rin, to'rtinchi bosqich.

O'zbek tilida sonlar miqdor son va dona son deb nomlanuvchi ikki guruhga ajratib o'rganiladi

Miqdor sonlarning quyidagi turlari mavjud:

1. dona sonlar;
2. chama sonlar;
3. jamlovchi sonlar;
4. kasr sonlar,
5. taqsim sonlar

Miqdor sonlar quyidagilar :

Birlar	O'nlar	Yuzlar, minglar va hokazo
--------	--------	---------------------------

1-bir	10-o'n	100-yuz
2-ikki	20-yigirma	1000-ming
3-uch	30-o'ttiz	1000000-million
4-to'rt	40-qirq	1000000000-milliard
5-besh	50-ellik	
6-olti	60-oltmish	
7-yetti	70-yetmish	
8-sakkiz	80-sakson	
9-to'qqiz	90-to'qson	

ko'p sonlar bir xonali ya'ni birlar va o'nlar xonasidagi sonlar qo'shilmasidan

1. Dona sonlar- miqdor sonlarga –ta qo'shimchasi yoki dona, nafar so'zlarini qo'shish bilan hosil bo'ladi:Sakkizta qalam, yeti dona olma, yigirma nafar talaba.
2. Chama sonlar- predmetning taxminiy miqdorini bildiradi va miqdor sonlarga –lab, -lar, -larcha qo'shimchalarini qo'shishdan hosil qilinadi:minglab kishilar olg'a intilar, yo'lning esa cheki ko'rinmasdi. Mustaqillik millionlar orzusi.
3. Jamlovchi sonlar- birgalikni va jamlikni ifodalab –ala,-ov,-ovlon singari qo'shimchalarni birdan yettigacha bo'lgan miqdor sonlarga qo'shib hosil qilinadi:Oltovlon ola bo'lsa og'zidagini oldirar.Musobaqada ikkila qiz g'olib bo'ldi.
4. Kasr sonlar- butunning bir qismini ifodalaydi, kasrning suratdagi son bosh kelishikda maxrajidagi son esa chiqish kelishigida bo'ladi: $\frac{1}{3}$ uchdan bir, $\frac{3}{5}$ beshdan uch;

Agar kasr son oldidanbutun son bo'lsa, bu son o'qilganda butun so'zi qo'shib aytiladi: 2. $\frac{2}{7}$ ikki butun yettidan ikki.

Ayrim kasr sonlar mustaqil holdagi so'z shaklida ham qo'llaniladi: yarim ($\frac{1}{2}$), chorak ($\frac{1}{4}$), nim chorak ($\frac{1}{8}$).Kasr sonlar alohida yoziladi.

Tartib sonlar.Tartib son miqdor sonlarga unli tovush bilan tugagan hollarda –nchi, undosh tovush bilan tugagan hollarda –inchi qo'shimchasini qo'shishdan hosil bo'ladi: to'rtinchi,oltinchi.

Sonlar quyiadgi xususiyatlarga ega :

1. Sonlar ot so'z turkumiga oid so'zlardan oldin kelib ularning miqdori va son-sanog'ini anglaydi:o'ttiz kun, yuz metr, och qoshiq;
2. Agar son mustaqil qo'llanilsa, u holda ot singari kelishik qo'shimchalari bilan turlanadi.Agar kesim vazifasida qo'llanilsa, tuslovchi qo'shimchalar bilan tuslanadi: Yigirma beshga o'n uchni qo'shing.Biz uchtamiz.
3. Sonlar boshqa so'z turkumlaridan yasalmaydi, shu boisdan son yasovchi qo'shimchalar mavjud emas.
4. Sonlarning turlarini hosil qiluvchi forma yasovchi qo'shimchalar mavjud:-nchi (-inchi), -ov, -ala, -ta, -tacha;

5. Ayrim hollarda son va ot orasida boshqa so'zlar yoki o'lchov birliklarini ifodalovchi so'zlar qo'llaniladi; O'n kilogramm shakar, bir litr sut, qirq metr atlas.

13

Olmosh

Olmosh- ot, sifat, son o'rnida qo'llanilib, gapda ularning vazifasida keluvchi, ularning so'roqlariga javob bo'luvchi so'zlar turkumi. Olmoshlar ma'nosiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Kishilik olmoshlari;
2. O'zlik olmoshlari;
3. Ko'rsatish olmoshlari;
4. So'roq olmoshlari;
5. Belgilash olmoshlari;
6. Bo'lishsizlik olmoshlari;
7. Gumon olmoshlari.

Olmoshlar gapda ega, kesim, to'ldiruvchi, aniqlovchi vazifasida keladi.

Tog'dan tushgan shalolaman. O'sha men. Bog'da bitgan gullolaman. O'sha men. (Qo'shiqdan)

Kishilik olmoshlari.

Kishilik olmoshlariga quyidagilar kiradi:

Shaxs	Son	
	Birlik	Ko'plik
I	Men-	Biz-
II	Sen-	Siz-
III	u-	Ular-

Birinci shaxs ko'plik sonni biz olmoshi hurmat yoki alohida ehtirom ma'nosini ifodalaganda birlik son, birinci shaxs men olmoshi o'rnida qo'llaniladi. Shuningdek, birlik son ikkinchi shaxsni bildiruvchi sen olmoshi o'rnida ham ko'plik sondagi siz olmoshi qo'llaniladi: Biz (men)ning qo'limiz tekkan ish to'xtab qolmaydi. Singlim, siz(sen) kimni kutayapsiz ?

Ko'plik sondagi kishilik olmoshlariga –lar qo'shimchasi qo'shilganda ko'plik ma'nosi ta'kidlanadi. Ammo birlik son ikkinchi shaxsni bildiruvchi sen olmoshiga –lar qo'shimchasi qo'shilganda kesatish yoki kinoya ma'nosini anglatadi: Senlardan qachon qutulaman. Senlarga umuman ishonib bo'lmaydi.

Kishilik olmoshlari umumiy qoidalar asosida turlanadi: men, mening, menga, meni, menda, mendan. Men va sen olmoshlari qaratqich va tushum kelishigi qo'shimchalari bilan turlanganda birta –n harfi bilan yoziladi, uchinchi shaxsni ifodalovchi u olmoshi jo'nalish, o'rin-payt, chiqish kelishiklari bilan turlanganda –n harfi qo'shib yoziladi: Unga bu haqda bilganlaringni aytib ber.

O'zlik olmoshi.

O'zlik olmoshi o'z so'ziga egalik qo'shimchalarini qo'shib hosil qilinadi. O'zlik olmoshi kelishik qo'shimchalari bilan turlanadi:

Shaxs-	Son-	
I	O'zim-	O'zimiz-
II	O'zing-	O'zingiz-
III	O'zi-	O'zlari-

Birlik son.

B.k o'zim

Q.k o'zimning

T.k o'zimni

J.k o'zimga

O'.p.k o'zimda

Ch.k o'zimdan

Ko'plik son.

o'zimiz

o'zimizning

o'zimizni

o'zimizga

o'zimizda

o'zimizdan.

O'zlik olmoshi ish harakat bajaruvchi shaxsni alohida ajratib ko'rsatish uchun ham qo'llaniladi: (Sen) o'zing keldingmi?

Egalik affiksini olgan aniqlanmishdan oldin keluvchi aniqlovchi vazifasidagi o'z so'zi egalik ma'nosini kuchaytirish uchun xizmat qiladi.

Ko'rsatish olmoshi

O'zbek tilida eng keng qo'llaniluvchi ko'rsatish olmoshlari quyidagilar: u, bu, shu, o'sha, mana, mana bu, ana, ana u.

Ko'plik sonni ifodalovchi ko'rsatish olmoshlarini hosil qilish uchun u, bu, shu olmoshlariga –lar qo'shimchasi qo'shiladi: ular, bular, shular, o'shalar.

Bu, shu, o'sha olmoshlari bilan birikib keluvchi mana, ana so'zlari ko'rsatish ma'nosini kuchaytiradi, umuman olmoshlar bilan birgalikda ma'no kuchaytirish uchun ana olmoshi ko'p qo'llaniladi, ayrim hollarda mana ham qo'llanilishi mumkin.

Ko'rsatish olmoshlari kelishik qo'shimchalari bilan turlanadi. Bu, shu, u, o'sha olmoshlariga jo'nalish, o'rin-payt, chiqish kelishigi qo'shimchalari qo'shilganda olmosh va qo'shimcha orasiga n harfi qo'shiladi.

B.k. u, (bu, shu, o'sha)

Q.k uning (buning,.....)

T.k uni, (.....)

J.k unga, (.....)

O'.p.k unda, (.....)

Ch.k. undan, (.....)

14

Bo'lishsizlik olmoshlari mutlaqo mavjud emaslik ma'nosi orqali ifodalangan predmet, belgi yoki miqdorni umumlashtirib ko'rsatadi.

Bo'lishsizlik olmoshlari inkor so'z **hech** yordamida hosil bo'lib, **so'roq olmoshlari** yoki **narsa, bir** so'zini keltirish bilan yasaladi: hech kim, hech bir, hech narsa, hech nima, hech qachon, hech qaysi, hech qanday, hech qayerda kabi.

Gumon olmoshlari, mavjud ammo noma'lum bo'lgan predmet, belgi va miqdorni anglatadi. Gumon olmoshining ma'nosi matnda ham ochilmay qoladi. Gumon olmoshlari, asosan, so'roq olmoshlariga **-dir** elementini qo'shish bilan (kimdir, nimadir, qaysidir); so'roq olmoshlari oldiga **alla-** elementini qo'shish

bilan (allanima, allaqaysi, allaqanaqa); so‘roq olmoshlari yoki narsa so‘zidan oldin **bir** so‘zini keltirish bilan (bir necha, bir qancha, bir narsa) yasaladi.

So‘roq olmoshlari predmet, belgi, miqdor (son) haqida so‘roq anglatadi yoki noma’lum shaxsni ko‘rsatadi. So‘roq olmoshlaridan *kim*, *nima* predmet haqida, *qanday*, *qanaqa*, ba‘zan *nima* belgi haqida, *necha*, *qancha* miqdor haqidagi so‘roqni anglatadi.

So‘roq olmoshlarining grammatik xususiyatlari ma’no xususiyatlaridan kelib chiqadi: predmet haqida so‘roq anglatuvchi so‘roq olmoshlari ko‘plik, egalik, kelishik qo‘shimchalari bilan qo‘llaniladi (kimlar, kimning, kimni, nimalar, nimasi, nimaga kabi); belgi haqida so‘roq anglatuvchi so‘roq olmoshi hech qanday affiks olmaydi, gapda sifatlovchi vazifasida keladi: **qanday** (ish), **qanaqa** (kishi); miqdor haqida so‘roq bildiradigan so‘roq olmoshlari esa sonlarning har xil turlarini yasovchi affikslarni oladi (necha-nechanchi, nechta, nechtaacha, nechov).

Belgilash olmoshlari predmet yoki uning biron belgisini, miqdorini jamlash yoki ajratish orqali ko‘rsatadi.

Belgilash olmoshlaridan *hamma*, *barcha*, *bari* predmet yoki belgini bir butun sifatida jamlab, to‘dalab ifodalaydi.

Ba’zi belgilash olmoshi esa to‘daning, jamlikning qismini ko‘rsatadi.

Har so‘zini so‘roq olmoshi yoki *bir* so‘zi bilan, ba‘zan *narsa* so‘zi bilan biriktirish orqali yasalgan *har kim*, *har qanday*, *har bir*, *har narsa* kabi belgilash olmoshlari shaxs, predmet, belgilarni yakkaga ajratib belgilaydi.

Belgilash olmoshlari ot oldida kelib, sifatlovchi vazifasini bajaradi. Otlashganda esa ko‘plik, egalik, kelishik qo‘shimchalari bilan qo‘llanadi (*hammasini*, *hammalari*, *barchangizga*, *ba’zilar*, *har birimiz*, *har narsangizni*) gapda ot bajargan vazifalarda keladi.

15. Fe’l

Ish-harakat va holatni bildiruvchi so‘zlar turkumi **fe’l** deb ataladi. Masalan, Bahor **keldi**. Daraxtlar **gulladi** (ish-harakat). Buxoro viloyati Zarafshon vohasida **joylashgan**. Qalam stol ustida **turibdi** (holat).

Fe’l 5 ta grammatik kategoriyaga, murakkab yasallish tizimiga, 3 ta sintetik va bir nechta analitik funksional shaklga hamda harakatning davomiyligi va kuchsiz darajasini bildiruvchi qo‘shimchalarga ega.

Fe’lning asosiy shakllari gapda kesim bo‘lib keladi. Uning harakat nomi shakli otning, sifatdosh shakli sifatning, ravishdosh shakli ravishning sintaktik vazifalarini bajaradi.

Fe’llar **nima qilmoq?** va **nima bo‘lmoq?** so‘roqlariga javob bo‘ladi. Fe’lning so‘roqlari 2 tagina bo‘lsa-da, ular yuzga yaqin grammatik shakllarda uchraydi. M.: *nima qildi?*, *nima qiladi?*, *nima qilyapti?*, *nima qilmoqchi?*, *nima qilsa?*, *nima qilibdi?* va hokazo.

Fe’lning so‘roqlari so‘roq olmoshi emas, balki qo‘shma fe’l hisoblanadi. Fe’lning so‘roqlariga yakka holda boshqa birorta so‘z turkumi javob bo‘lolmaydi. Lekin fe’l sifatdosh shaklida sifatning, ravishdosh shaklida ravishning, harakat nomi shaklida va otlashgan sifatdosh shaklida otning so‘roqlariga javob bo‘la oladi.

Fe'llar leksik-grammatik xususiyatlariga ko'ra ikki asosiy guruhga bo'linadi: 1) mustaqil fe'llar; 2) yordamchi fe'llar.

Mustaqil fe'llar ish-harakat va holatni bildiradi, ya'ni mustaqil lug'aviy ma'noga ega bo'ladi, qandaydir so'roqqa javob bo'ladi hamda yakka holda gap bo'lagi bo'lib kela oladi. Yordamchi fe'llar mustaqil lug'aviy ma'noga ega bo'lmaydi, so'roqqa javob bo'lmaydi va yakka holda gap bo'lagi bo'lib kelolmaydi.

Yordamchi fe'llar o'z ichida yana uchga bo'linadi:

1. Yordamchi fe'llar. Ular fe'l bo'lmagan so'zdan qo'shma fe'l yasash uchun xizmat qiladi yoki ot-kesim yonida kelib, bog'lama vazifasini bajaradi. M.: taklif qilmoq, javob olmoq, ruxsat etmoq; ishchi bo'lmoq, g'olib hisoblanmoq, beburd etmoq.

2. Ko'makchi fe'llar. Ular yetakchi fe'lga birikib, unga qo'shimcha ma'no yuklaydi. M.:

o'qi-b, yoz-ib	{	bo'lmoq	yoz-a, o'qi-y	{	olmoq
		qolmoq			bermoq (-vermoq)
		olmoq			turmoq
		qo'ymoq			boshlamoq
		yurmoq			qolmoq

3. To'liqsiz fe'llar. Ular fe'l va fe'l bo'lmagan so'zlarga qo'shib, yordamchi vazifalarda qo'llanadi: **edi, ekan, emish, erur, emas**. "Esa" to'liqsiz fe'li ko'rpa-yostig'ini, qozon-tovog'ini yig'ishtirib zidlov bog'lovchilari guruhiga ko'chib o'tgan.

Mustaqil fe'llar obyektga munosabatiga ko'ra 2 ga bo'linadi:

1. Obyektli yoki o'timli fe'llar.

2. Obyektsiz yoki o'timsiz fe'llar.

O'timli fe'llar tushum kelishigidagi so'zni boshqarib keladi: kimni?, nimani?, qayerni? - ko'r, o'qi, yoz, bil, tani. O'timsiz fe'llar bu xususiyatga ega bo'lmaydi: yayra, qayt, qul, yugur, kel, uxla, qiziq.

Ba'zi fe'llar bir ma'nosi bilan o'timsiz, ikkinchi ma'nosi bilan o'timli bo'lishi ham mumkin: Ozgina piyoda **yurdik** (o'timsiz); Afandi uch kun **yuribdi** (o'timli, "bosib o'tibdi" degan ma'noda). Maktabda **o'qiyman** (o'timsiz). Kitobni **o'qidim** (o'timli).

16. Fe'lning nisbat yoki daraja kategoriyasi.

Nisbat kategoriyasi ish-harakat va holatning subyekt va obyektga munosabatini ko'rsatadi. o'zbek tilida nisbatning quyidagi ko'rinishlari mavjud:

1. Aniq nisbat yoki bosh daraja.
2. O'zlik nisbat.
3. Majhul nisbat.
4. Orttirma nisbat.
5. Birgalik nisbat.

Aniq nisbat ish-harakatning ega bilan ifodalangan shaxs yoki predmet tomonidan bajarilishi yoki bajarilmasligini bildiradi. M.: **bildi, ko'rdi, so'radi, aytmadi, qaytmadi**.

O'zlik nisbat o'timli fe'llarning bir qismidan yasaladi va bunda obyekt tushunchasi yo'qoladi. Ya'ni o'zlik nisbat o'timli fe'lni o'timsiz fe'lga aylantiradi. Ko'rsatkichlari:

1. –n//–in: tashlan, ko'rin, yuvin, taran, suyan, so'zlan, yutin, kiyin, artin, kavshan, o'pkalan.

2. –l//–il: tanil, ayril, qayril, bo'g'il, tug'il, qoril, yig'il, otil, qiynal, teshil, tikil.

3. –sh//–ish: joylash, kerish, qorish.

O'zlik daraja shakli yasalmaydi:

1. Barcha o'timsiz fe'llardan: yayra, yashna, qichqir, uxla, bor, kel.

2. Ba'zi o'timli fe'llardan: o'qi, hayda, ek, min, kes, sug'or, hidla.

O'zlik nisbatdagi ba'zi fe'llar yangi ma'noli fe'llarga aylanib borayotir.

M.: kerilmoq, ochilmoq, tutinmoq, tortinmoq, tutilmoq.

Orttirma nisbatda ish-harakat va holatning obyekti yana bittaga ortadi, ya'ni o'zakdan anglashilgan ish-harakatni bevosita bajaruvchi shaxs yoki predmet ham asosiy subyekt irodasining obyektiga aylanadi. Ko'rsatkichlari:

1. –ar – faqat ikkita fe'lga qo'shiladi: chiqar, qaytar.

2. –giz//–kiz//–qiz//–g'iz//gaz//kaz//qaz:

–giz//–g'iz jarangli undosh bilan tugagan fe'llarga: yurgiz, kirgiz, turg'iz, ko'rgaz;

–kiz//–qiz//–kaz//–qaz – jarangsiz undosh bilan tugagan fe'llarga: ketkiz, o'tkaz, yutqiz, o'tqaz.

3. –dir//–tir:

–dir – unli va jarangli undosh bilan tugagan fe'l o'zagiga: yedir, yoydir, buzdir, kuldir, qoldir, to'ldir, oldir;

–tir – jarangsiz va r, n, y, l kabi jarangli undoshlar bilan tugagan fe'l o'zagiga: toptir, aytir, uqtir, ilintir, oqartir, ko'paytir, kuchaytir, keltir.

4. –ir – t, ch, sh tovushlari bilan tugagan fe'l o'zagiga: botir, qotir, ichir, qochir, shoshir, oshir, tushir, pishir.

5. –iz – q, m tovushlari bilan tugagan ba'zi fe'llarga: oqiz, tomiz, emiz.

6. –t//–it – unli bilan tugagan ikki va undan ortiq bo'g'inli so'zlarga: ishlat, tugat, boshlat, o'qit, yurit, kirit.

Ba'zan bir fe'lning o'ziga orttirma nisbatning birdan ortiq qo'shimchasi qo'shilishi ham mumkin. M.: yozdir-yozdirtir, o'qit-o'qittir.

Orttirma nisbat qo'shimchalari bir-biriga sinonim bo'lib kelishi mumkin: bitir-bitkaz, yedir-yegiz, kirgiz-kirit, ko'payt-ko'paytir, to'ldir-to'lg'iz.

Orttirma nisbat qo'shimchasi o'zlik va birgalik nisbat qo'shimchalaridan keyin qo'shimchalaridan keyin qo'shilishi ham mumkin: yuvintir, kiyintir, yig'ishtir (lekin maktab darsligidagi bu fikrning birgalik nisbatga oid qisi e'tirozli).

Orttirma nisbat qo'shimchalari o'timsiz fe'lni ham o'timliga aylantiradi: kel – keltir, to'l – to'ldir, uxla – uxlat.

Majhul nisbatda so'zlovchining diqqat-e'tibori ish-harakatning bajaruvchisiga emas, obyektiga qaratiladi va mana shu grammatik obyektни bildirgan so'z ega vazifasida keladi. M.: Yer haydaldi. Pol yuvildi. Tokchalar tozalandi.

Ko'rsatkichlari:

1. -n//in: tozalandi, takrorlandi, egarlandi, tarjima qilindi, o'qib bo'lindi, olindi.

2. -l//il: o'qildi, haydaldi, o'raldi, yasaldi, archildi, yugurtirildi, keltirildi, to'xtatildi, yurildi, tushildi, tushirildi, topshirildi.

Birgalik nisbat harakatning birdan ortiq shaxs tomonidan bajarilishi yoki bajarilmasligini bildiradi. Ko'rsatkichi - -sh//ish: borishdi, kelishdi, o'qishdi, terishdi.

Bu nisbat birga bajarish (mehmonlar kelishdi), ko'maklashish (U ukasiga paxta terishdi), umuman ko'plik (Talabalar imtihonga tayyorlanishdi), galma-gal bajarish (Ikkovlari birga arra tortishdi) kabi ma'nolarni bildiradi.

Ba'zi fe'llar tarkibidagi birgalik nisbat qo'shimchasi o'zakka singib, yangi ma'nodagi fe'lni hosil qilgan, shuning uchun ular hozir morfemaga ajratilmaydi. M.: ko'rishmoq, kelishmoq, to'qnashmoq, qarashmoq ("ko'maklash-moq" ma'nosida), tortishmoq ("bahslash-moq" ma'nosida).

Fe'lga bir necha nisbat qo'shimchasi qo'shilgan bo'lsa, uning qaysi nisbatdaligi oxirgi nisbat qo'shimchasiga qarab belgilanadi. M.: artinishdi, keltirishdi, o'qittirishdi – birgalik nisbat, to'xtatildi, kiyintirildi, yugurtirildi – majhul nisbat.

Fe'ldagi nisbat qo'shimchalari birga kelgan vaqtda quyidagi tartibda joylashadi:

1. O'zlik nisbat.
2. Orttirma nisbat.
3. Majhul nisbat.
4. Birgalik nisbat.

Nisbat qo'shimchalari shakl yasovchi qo'shimcha hisoblanadi.

17. Mayl kategoriyasi harakat va subyektning voqelikka munosabatini bildiradi: maylning quyidagi turlari bor:

1. Xabar mayli yoki ijro mayli.
2. Buyruq-istak mayli.
3. Shart mayli.
4. Maqsad mayli.

Xabar mayli harakat-holatni zamon bilan bog'liq holda ifodalaydi. Shuning uchun bu mayldagi fe'l albatta qaysidir zamon shaklida bo'ladi: keldi, kelyapti, keladi va hokazo. Xabar maylining ko'rsatkichi yo'q.

Buyruq-istak mayli harakat holatning bajarilishi yoki bajarilmasligini istash, o'shanga undash, da'vat etish ma'nolarini ifodalaydi. Uning qo'shimchalari buyruq-istak ma'nosi bilan birgalikda shaxs va sonni ham ko'rsatib ketaveradi:

Men	}	bor	{	-ay (-in)	}	o'qi	{	-y(-in)
Sen				(-gin)				(-gin)
U				-sin				-sin
Biz(lar)				-aylik				-ylik
Siz(lar)				-ing(-iz, -lar)				-ng(-iz, -lar)
Ular				-sin(-lar)				-sin(-lar)

Uning bolishsiz shakli oddiygina –ma qo‘shimchasi orqali hosil qilinadi: bormay, borma(gin), bormasin...

Maqsad mayli maqsad, niyat, mo‘ljal ma’nolarini ifodalaydi. Ko‘rsatkich -**-moqchi**. Undan keyin shaxs-son qo‘shimchalari keladi:

Men	} bor-moqchi	-man
Sen		-san
U		-
Biz(lar)		-miz
Siz(lar)		-siz(-lar)
Ular		(-lar)

Shart mayli shart, payt, istak, iltimos, maslahat, to‘siqsizlik (asosan ham va –da yuklamalari bilan kelganda) kabi ma’nolarni ifodalaydi. Ko‘rsatkichi - -sa. Undan keyin shaxs-son qo‘shimchalari keladi:

Men	} o‘qi-sa	-m
Sen		-ng
U		-
Biz(lar)		-k
Siz(lar)		-ngiz (-lar)
Ular		(-lar)

Buyruq-istak mayli qo‘shimchalari so‘z o‘zgartiruvchi, shart va maqsad mayllari ko‘rsatkichlari esa shakl yasovchi qo‘shimchalarga kiradi.

18. Fe’lning funksional (xoslangan) shakllari

Fe’l fe’llik xususiyatlarini saqlagan holda maxsus shakllarga kirib boshqa uchta so‘z turkumining – ot, sifat va ravishning vazifalarini bajara oladi. Bular fe’lning sintetik funksional (xoslangan) shakllari deb yuritiladi. Fe’lning bunday shakllari, tabiiyki, uchta:

1. Harakat nomi.
2. Sifatdosh.
3. Ravishdosh.

Harakat nomi

Harakat nomining uchta asosiy ko‘rsatkichi mavjud:

- 1) –moq: o‘qimoq, yozmoq, tanishmoq;
- 2) –sh//ish: o‘qish, yozish, tanishish;
- 3) –v//uv: o‘quv, yozuv, tanishuv.

Harakat nomi shakllari ish-harakatning bajarilishi yoki bajarilmasligini va shular bilan bog‘liq boshqa ma’nolarni bildirmaydi, balki harakat-holatning nomini bildiradi, ular harakat-holatning atamasi hisoblanadi. Shuning uchun ham ular otga xos grammatik ko‘rsatkichlarni qabul qila oladi, gapda otning sintaktik vazifalarini bajara oladi. U rus tilidagi fe’lning noaniq shakli (неопределенная форма глагола)ga va G‘arb tillaridagi infinitive (Infinitiv) shakliga ekvivalentdir (читать, учиться, переводить//перевести – lernen//studieren, lesen, übersetzen – to study, to read, to translate).

–sh//ish va –moq ko‘rsatkichlari bilan hosil qilinuvchi shakllar –lik affiksi bilan qo‘llanishi mumkin: borishlik, bormoqlik, kelishlik, kelmoqlik. Lekin bu adabiy til uchun normal holat emas.

-v// -uv affiksi bilan yasaluvchi shakl kam qoʻllanadi. U qoʻshilganda feʼl oxiridagi “i” “u”ga, “a” “o”ga oʻtadi: oʻqi-oʻquv, ishla-ishlov. Bu shakldagi koʻplab feʼllar otga koʻchgan: saylov, qistov, tanlov, oʻquv, chanqov.

Harakat nomining yuqoridagi uchala shakli ham boʻlishsizlik koʻrsatkichi –ma affiksini qabul qilmaydi. Harakat nomining boʻlishsiz shakli –maslik affiksi yordamida hosil qilinadi: bormaslik, kelmaslik, aytmaslik.

Boʻlishsizlik shaklining uchala koʻrsatkich uchun umumiyligi ularning maʼnoga koʻra jiddiy farqqa ega emasligini koʻrsata oladi.

19. Sifatdosh. Feʼlning sifatdosh shakli sifat kabi predmet-hodisalarning belgisini bildiradi. Shuning uchun ham u sifatdosh deb atalgan. Lekin sifatdosh predmet-hodisalarning harakat va holat bilan bogʻliq belgisinigina bildiradi.

Sifatdosh nisbiy zamonni ifodalasa-da, uning koʻrinishlarini zamonga koʻra tasnif etish mumkin:

I. Oʻtgan zamon sifatdoshi. Koʻrsatkichi - -gan// -kan// -qan: kelgan yoki kelmagan odamlar, kechikkan yoki kechikmagan oʻquvchilar, namiqqan yoki namiqmagan paloslar.

Yot, tur, oʻtir, yur feʼllari –gan affiksi bilan qoʻllanganda hozirgi zamon maʼnosi ham ifodalanaveradi: soʻrida yotgan odam, tokchada turgan gultuvak, yonimizda oʻtirgan tabib, shaharni aylanib yurgan sayyohlar.

“Derazasi koʻchaga qaragan uy”, “sochi oʻsgan bolakay” kabi birikmalarda ham predmet-hodisalarning hozirgi holati asosiy oʻrinda boʻladi.

Sifatdoshning bu turi shaxs-son qoʻshimchalarini olib, uzoq oʻtgan zamon koʻrsatkichiga aylanadi:

Men	} kel-gan	-man
Sen		-san
U		-
Biz(lar)		-miz
Siz(lar)		-siz(lar)
Ular		(-lar)

Oʻtgan zamon sifatdoshining **-mish** qoʻshimchasi bilan hosil qilinuvchi kam ishlatiladigan shakli ham bor: Oʻzbek romanchiligining otasi **boʻlmish** A.Qodiriy Toshkent shahrida tugʻilgan.

II. Hozirgi zamon sifatdoshi. Maktab darsligida bu sifatdosh -a// -y bilan tugagan ravishdoshga –yotgan qoʻshimchasini qoʻshish bilan hosil boʻladi, faqat bunda –y tushib qoladi, deyilgan. Oliy oʻquv yurtlari darsligi va akademik grammatikada: “Feʼlning hozirgi zamon koʻrsatkichi boʻlgan formasiga (asosiga) -gan affiksining qoʻshilishidan hozirgi zamon sifatdoshi hosil boʻladi” – deyilgan. Bu har xilliklardan xalos boʻlish uchun bizning qarashimizni eslab qolish mumkin: bizningcha, hozirgi oʻzbek tili nuqtai nazaridan hozirgi zamon sifatdoshining koʻrsatkichi - -yotgan// -ayotgan. M.: oʻqiyotgan bola, oqayotgan suv. Bu yoʻl bilan hozirgi zamon sifatdoshini tez va oson oʻrganib olish, boshqa shakllardan qiynalmay farqlash mumkin. Lekin uning hosil boʻlishi haqida ikki xil fikr bor ekan, baʼzi test topshiriqlarining toʻgʻri javobi bahsli boʻlib qolaveradi.

Bu shaklni tushlash orqali hozirgi zamon fe'li hosil qilinmaydi. Faqat quyidagi uch holatda u hozirgi zamon fe'lini hosil qilishda qatnashadi:

1. **Yo‘q** so‘zi yordamida hozirgi zamon fe’lining bo‘lishsiz shaklini hosil qilishda:

Men	}	yoz-ayotgan	{	-im	}	yo‘q
Sen				-ing		
U				-i		
Biz(lar)				-imiz		
Siz(lar)				-(lar)ingiz		
Ular				-(lar)i		

2. **Emish** so‘zi yordamida hozirgi zamon fe’lining eshitilganlik shaklini hosil qilishda:

Men	}	bor-ayotgan emish	{	-man	}
Sen				-san	
U				-	
Biz(lar)				-miz	
Siz(lar)				-siz (-lar)	
Ular				-(lar)	

3. Gumon yuklamasi **-dir** yordamida hozirgi zamon gumon ma’nosini ifodalashda:

Men	}	bor-ayotgan-dir	{	-man	}
Sen				-san	
U				-	
Biz(lar)				-miz	
Siz(lar)				-siz (-lar)	
Ular				-(lar)	

III. Hozirgi-kelasi zamon sifatdoshi. Buning ham hosil bo‘lishi 2 xil izohlangan:

a)maktab darsligida - -a//-y shaklidagi ravishdoshga –digan qo‘shimchasini qo‘shish bilan: bor-a-digan, o‘qi-y-digan;

b)oliy o‘quv yurtlari darsligi va akademik grammatikada – hozirgi-kelasi zamon fe’li asosiga –gan affiksini qo‘shish bilan: boradi-gan, o‘qiydi-gan (boradi va o‘qiydi so‘zlari uchtdan morfemaga ajraladi, albatta).

Bir xillik uchun bizning qarashimizni eslab qolish mumkin: bizningcha, hozirgi o‘zbek tili nuqtai nazaridan hozirgi-kelasi zamon sifatdoshining asosiy ko‘rsatkichi - -may-digan.

Ikkinchi ko‘rsatkichi - -r//-ar, -mas: oqar suv, borar joyimiz, so‘nmas hayot.

Uchinchi ko‘rsatkichi - -vchi//uvchi: ishla-ishlovchi, tani – tanuvchi, xohla – xohlovchi, bor – boruvchi.

Kam ishlatiladigan ko'rsatkichlari - -g'lik, -rlik, -gulik: yasatig'lik xontaxta, yopig'lik qozon, qorin to'ydiralik bir kasb, arzigulik ish. Ular inkor va zamon shakllariga ega emas.

Sifatdoshning asosiy sintaktik vazifasi sifatlovchi-aniqlovchi bo'lib kelishdir: Uyg'onuvchi bog'larni kezdin (A.O.). Sifatdoshning -r/-ar, -mas qo'shimchali bo'lishli-bo'lishsiz shakli juftlashib hol vazifasida kela oladi. M.: Bemor bilinar-bilinmas nafas olar edi.

Sifatdosh sifat kabi otlashish xususiyatiga ega. U otlashganda otning sintaktik vazifalarini bajaradi: Qimirlagan qir osghar. Bizni unutqonni unutmoq kerak (Bobur).

Sifatdoshning istakni ifodalovchi, demakki, kelasi zamonga aloqador bo'lgan -gur//-kur//-qur//-g'ur shaklidagi ko'rsatkichi ham bor: soqolning to'kilgur chol, baraka topkur odam, bo'lmag'ur gap.

20. Ravishdosh

Fe'ning bu xoslangan shakli ravish kabi ish-harakat va holatning belgisini bildiradi, ravishning so'roqlariga javob bo'la oladi va ravish kabi gapda asosan hol va ba'zan kesim bo'lib keladi. M.: U ikkilanib javob berdi. Ishning boshi boshlanguncha.

Ravishdosh ma'noga ko'ra turlarga bo'linadi:

I. Holat ravishdoshlari. Ko'rsatkichlari -b//-ib, -a//-y: o'qib, yozib, sevinib, yura-yura, yig'lay-yig'lay. Ko'rinib turganidek, -a//-y ko'rsatkichli ravishdosh asosan takror holda qo'llanadi. Har ikki ko'rsatkichning bo'lishsiz shakli -may yoki ba'zan -mayin qo'shimchasi orqali hosil qilinadi: bilib aytdi - bilmay aytdi, bilmayin aytdi, yura-yura charchadi - yurmay-yurmay oyoqlari tez-tez uvishadigan bo'ldi.

Holat ravishdoshlari yetakchi va ko'makchi fe'lni, ergash gap bilan bosh gapni bir-biriga bog'lashga xizmat qilishi ham mumkin.

Ular shaxs-son qo'shimchalarini olsa, biri o'tgan zamon hikoya fe'lining (boribman, boribsan, boribdi va hokazo), ikkinchisi hozirgi-kelasi zamon fe'lining (boraman, borasan, boradi va hokazo) ko'rsatkichiga aylanadi.

II. Payt ravishdoshlari. Ko'rsatkichlari - -gach//-kach//-qach//guncha//-kuncha//-quncha. Ularning bo'lishsiz shakli oddiygina -ma qo'shimchasi yordamida hosil qilinadi.

Payt ravishdoshining 2-ko'rinishi ergash gapning kesimi vazifasida kelib chog'ishtirish ma'nosini ham bildiradi: Qoshing qaro **bo'lguncha**, ko'zing qaro bo'lsa-chi.

III. Maqsad ravishdoshi. Ko'rsatkichi - -gani//-kani//-qani, she'riyatda ba'zan: -gali//-kali//-qali. M.: Siz bilan **maslahatlashgani** keldim. Bu gulshan soz ekan, soz ustiga **soz etgali** keldik.

Maqsad ravishdoshi bo'lishsiz shaklga ega emas. Istisno tariqasida uchraydigan gaplarda uning inkor shakli **-ma** va **emas** yordamida hosil qilinishi mumkin: Men siz bilan **urishgani emas**, yarashgani keldim. Aytgani chiqdingmi, **aytmaganimi** - men uchun bari bir.

Ravishdoshning holat va daraja-miqdor bildiruvchi -gancha//-kancha//qancha va -gudek//-kudek//-qudek kabi ko'rsatkichlari ham tilshunoslikda

qayd etilgan. M.: U (qay holatda?) derazaga tikilgancha o'ylanib qoldi. Bug'doydan (qancha?) hovuchingga siqqanicha ol. U raqibiga (qay tarzda?) yeb qo'ygudek tikildi. U (qay darajada?) quloqni bitirib yuborgudek chinqirdi.

21. Ravish

I. Umumiy Grammatik ma'nosi va morfologik xususiyatlar. Asosan ish-harakatning, qisman predmet-hodisalarning va ba'zan belgining belgisini bildiruvchi mustaqil so'zlar turkumi ravish deb ataladi. M.: **astoydil** kirishmoq, **kech** boshlanmoq; **ko'p** odam, **piyoda** askarlar; **soldatchasiga** dadil, **mangu** barhayot.

Ravishlarning 2 ta asosiy morfologik xususiyati bor: 1) ravish biror so'z bilan bog'lanib birikma hosil qilganda so'z o'zgartiruvchi qo'shimcha olmaydi; 2) u so'z yasovchi affikslarga ega, ya'ni affiksatsiya yo'li bilan yasaladi.

II. Morfematik tarkibi. Ko'pincha ravishlar tarkibidagi ko'plik, egalik va kelishik qo'shimchalari o'sha holicha qotib qolgan, ular hozir morfemaga ajratilmaydi. M.: birdan, birdaniga, birga, unda-bunda, olg'a, jo'rttaga. Bu qo'shimchalarning ba'zilari ravishning ma'nosini bir oz o'zgartirishi, unga qo'shimcha ma'no berishi mumkin, lekin, baribir, ularning barchasi yaxlit morfema deb olinadi: keyin-keyinda-keyinga, oldin-oldinga-oldinda-oldindan, hozir-hozirdan, tez-tezda, ilgari-ilgarilari, kechqurun-kchqurunlari.

III. So'roqlari. Ravishlarning so'roqlari ularning ma'no turiga bog'liq. Barcha ravishlar uchun umumiy bo'lgan qandaydir so'roq olmoshlari yo'q. Quyidagi so'zlar ravishning so'roqlaridir: qay tarzda?, qay holatda?, qanday?, qayerda?, qayerga?, qayerdan?, qani?, qachon?, qachonga?, qachondan?, qachongacha?, qancha?, qay darajada?, nima maqsadda?, nega?, nima uchun?, nima sababdan?

IV. Ma'noga ko'ra turlari. Ravishlar ma'nosiga ko'ra 6 turga ajratiladi:

1. Holat ravishlari: asta, arang, badastir, bekami-ko'st, bajonudil, bahuzur, bazo'r, baloday (otdan ko'chgan), bamaylixotir, bamaslahat, banogoh, baravariga, baralla, basma-bas, bafurja, bahamjihat, bahodirona, beayov, bevosita, bedarak, beijozat, beixtiyor, bekitiqcha, beso'roq, betinim, betma-bet, beto'xtov, bexos//bexosdan, bilinar-bilinmas, aksincha, bir to'la, birma-bir, birvarakay(iga), birga(likda), birdan(iga), birin-ketin, bosim (ishlamoq), boshdan-oyoq, boshma-bosh, butunisicha, butunligicha, vahshiyona, vijdonan, dabdurustdan, darrov, darhol, daf'atan, zo'rg'a, zimdan, yo'l-yo'lakay, ko'r-ko'rona, nari-beri, oldinma-keyin, ochiqchasiga, ohista, paydarpay, piyoda, pinhona, surunkasiga, sidiq'asiga, tag'in, to'g'ridan-to'g'ri, tiriklayin, tikkama-tikka, tekinga, to'satdan, tez, tezda, tezlikda, teskarisiga, uzunasiga, fidoyilarcha, chalqancha(siga), chambarchas, elan-qaran, yaxshilikcha, yangicha, yangitdan, o'zidan-o'zi, o'zicha, qayta, qat'ian, qiyg'os, qo'qqisidan.

2. O'rin ravishlari: nari-beri (surmoq), ilgariga (-da, -dan), tashqariga (-da, -dan), quyiga (-da, -dan), chapga (-da, -dan), o'ngga (-dan), bu yerga (-

da, -dan), shu yerga (-da, -dan), u yoqqa (-da, -dan), olg'a, o'rta (-da, -dan), hech yoqqa (-da, -dan).

3. Payt ravishlari: avval, ahyon-ahyonda, bugun, barvaqt, ba'zan, ba'zida, birpas, boya, bultur, vaqtincha, gohida, goho, dastavval, dastlab, doim//doimo, ilalabad, ilgari, indinga (-da, -dan), keyin, kecha-kunduz, kechasi, kunduzi, mangu, muqaddam, mudom, ora-sira, oxiri, onda-sonda, so'ng//so'ngra, tongla, uzzukun, umrbod, unda-bunda, endi, erta, ertalab, erta-indin, ertayu kech, eskidan, yaqinda, o'qtin-o'qtin, qadimdan, hali, halitdan, hali-beri, hozir, hamisha, hamon, hanuz.

4. Daraja-miqdor ravishlari: arang, batamom, baqadrihol, baholiquadrat, bag'oyat, birnav'i, beadam, birmuncha, butunlay, bazo'r, deyarli, jilla, jichcha, jinday, juda (ham), zarracha, zinhor-bazinhor, ko'p, mutlaqo, mo'l-ko'l, rosa, ozmi-ko'pmi, ozmuncha, sal, sal-pal, sira, talay, tegishlica, yetarlica, tirnoqcha, xiyol, xiyla, o'lguday, qittak.

5. Maqsad ravishlari: atay, atayin, ataylab, azza-bazza, jo'rttaga, qasd-dan.

6. Sabab ravishlari: noiloj, noilojlikdan, bkordan-bekorga, chor-nochor.

Ravishlarni ma'noga ko'ra turlarga ajratish bir oz nisbiy. Chunki ravishlarning katta qismi ham odatda ko'p ma'noli bo'ladi. Ular bir ma'nosi bilan ravishning bir turiga, ikkinchi ma'nosi bilan ikkinchi turiga kirishi mumkin. M.: Maktabimiz **yaqinda** joylashgan - o'rin ravishi. **Yaqinda** maktabni tugataman – payt ravishi. **Tez-tez** yurmaysanmi?! – holat ravishi. U **tez-tez** biznikiga kelib turadi – payt ravishi. Stollarni **nari-beri** surdik - o'rin ravishi. U **nari-beri** nonushta qildi – holat ravishi.

22.

Yordamchi so'zlar

(Служебные слова)

Служебные слова не являются членами предложения, а служат для выражения грамматических отношений между словами и предложениями, а также различных оттенков значений слов и предложений.

К служебным словам относятся: а) **ko'makchi** (послелог), б) **bog'lovchi** (союзы), в) **yuklama** (частицы).

Некоторые слова в узбекском языке не относятся ни к самостоятельным словам, ни к служебным. Это: а) **undov so'zlar** (междометия), б) **taqlidiy so'zlar** (звукоподражательные слова), в) **modal so'zlar** (модальные слова).

Междометие в известной степени соотносительно как с самостоятельными словами, так и со служебными.

Звукоподражательные слова стоят особняком в общей системе частей речи и не имеют связей ни с одной из них. Функционально они относятся к наречиям: *Suv shar-shar oqmoqda.* - Журча, течет вода.

Ko'makchi

(Послелог)

Послелог - особый разряд слов, служащих для выражения *целевых, причинных, временных, пространственных, направительных,*

уподобительных и других отношений между именами или между субъектом и предикатом.

Послелогои в узбекском языке ставятся после слова, к которому относятся. Лексическое значение послелогов, как правило, определяется только в сочетании с другими словами.

Послелогои в современном узбекском языке делятся на следующие группы:

1. *Asl ko'makchilar* - собственно послелогои: *bilan, uchun, kabi* и др. Лексическое значение этих послелогов в современном узбекском языке определяется только в сочетании с именами или глаголами. Например: *Guruhimiz talabalari yozuvchi Asqad Muxtor bilan uchrashdi.* - Студенты нашей группы встретились с писателем Аскадам Мухтаром.

2. *Ot ko'makchilar* - отыменные послелогои, т. е. послелогои образованные от различных имен, которые наряду с функциями послелогов сохраняют значение самостоятельных слов: *burun* - раньше, *tomon* - сторона, *ilgari* - раньше, прежде, *keyin* - после и др.

3. *Fe'l ko'makchilar* - отглагольные послелогои, т. е. послелогои, являющиеся по своему образованию деепричастными формами: *ko'ra* - как, наподобие, *yarasha* - так, также, *qarab* - из-за, *boshlab* - с, *tortib* - с, *qaraganda* - по отношению. Эта группа послелогов сохраняет присущее этим глагольным основам управление.

В зависимости от реального лексического значения, а также от соответствия значений послелогов функциям падежных форм послелогои управляют дательным-направительным (*jo'nalish kelishigi*), местным (*o'rin-payt kelishigi*) и исходным (*chiqish kelishigi*) падежами.

Teng bog'lovchilar

(Сочинительные союзы)

Сочинительные союзы соединяют однородные члены предложений, а также части сложносочиненных предложений. Они выражают: 1) соединительные отношения: **va, ham, hamda, bilan, esa, bo'lsa, bo'lmasa**; 2) противительные отношения: **ammo, lekin, biroq, balki**; 3) разделительные отношения: **yo, yoki, yoxud, ba'zan, goh, dam** и др.

1. *Biriktiruv bog'lovchilari* (соединительные союзы).

Союз **va** (и): *kitob va daftar* - книга и тетрадь

Союз **ham** (и, также, тоже), в произношении после гласных звучит часто как **-ям**: *Saida ham, opam ham zavodda ishlaydi.* - И Саида, и старшая сестра работают на заводе.

Союз **hamda** (а также): *Dinora, Saida hamda Malika bugun imtihonni a'lo bahoga topshirishdi.* - Динара, Саида, а также Малика сегодня сдали экзамен на отлично.

Послелог **bilan** наряду с основной своей функцией послелога употребляется также в значении соединительного союза, обозначая тесную, неразрывную связь: *Ota bilan o'g'il ikkovi ham kolxozda mexanizator bo'lib ishlaydi.* - Отец и сын работают в колхозе механизаторами.

Союз **esa** употребляется в значении «же», «а что касается»: *O'qituvchining esa hech narsadan xabari yo'q edi.* – А что касается учителя, то он ничего не знал.

Союз **bo'lsa** употребляется в значении союзов *a*, *же* и нередко заменяет форму **esa**, при этом принимая показатели лица: *Men mashqni yozib bo'ldim, u bo'lsa yozib bo'lmadi.* – Я написал упражнение, а он (он же) не написал еще.

Союз **bo'lmasa** употребляется в значении слов *иначе*, *а то*, *в таком случае*, *тогда*, *в противном случае*: *Mayli bo'lmasa, ertaga uchrashamiz.* – Ладно, тогда встретимся завтра.

Частица **–da** (и, также, тоже) наряду с основной своей функцией употребляется также в значении соединительного союза, пишется через дефис. Служит для соединения глаголов, обозначающих действия, следующие друг за другом, *Ravshan keldi-da, ketdi.* – Равшан пришел и ушел.

Yuklama (Частицы)

Частицы – это служебные слова, которые придают предложению или отдельным его членам дополнительные оттенки значения или эмоциональную окраску.

Частицы делятся на две группы:

1. Слова-частицы – *so'z yuklamalar*: *hatto* - даже, *nahotki* - неужели, *axir* - в конце концов.

2. Аффиксы-частицы – *affiks-yuklamalar*: *-gina* (*-kina*, *-qina*), *-mi*, *-chi*, *-da*, *-oq*, (*-yoq*), *-ku*, *-dir* и т.д.

Модальные частицы вносят различные смысловые оттенки в предложение, а также выражают чувства и отношение говорящего к тому, о чем говорится в предложении.

Модальные частицы выражают вопрос, восклицание, указание, сомнение, уточнение, усиление, смягчение, требование:

Модальные частицы можно разделить на следующие группы:

1. Вопросительные частицы – *so'roq yuklamalari*: *-mi*, *-chi*, *-a*, *-ya*. Частица *-mi* пишется слитно, а остальные – через дефис: *Kecha dars tayyorladingmi?* - Готовил ли ты вчера уроки? *Sen-chi?* - А ты?

Частицы *-a*, *-ya*, кроме вопроса, выражают и удивление: *Keldi-ya?* - Пришел ведь?

2. Усилительные и утвердительные частицы – *kuchaytiruv va ta'kid yuklamalari*: *axir*, *hatto*, *-ku*, *-da*, *-u(yu)* пишутся через дефис: *O'qish boshlandi-ku!* – Ведь учеба началась! *Axir o'qish kerak!* - В конце концов ты должен учиться!

3. Разделительные и разграничительные частицы – *ayiruv va chegaralov yuklamalari*: *-gina*, *-kina*, *-qina*, *faqat*, *faqatgina*: *Hamma keldi, faqatgina Karim kelmadi.* - Все пришли, только Карим не пришел.

4. Уточняющие частицы – *aniqlov yuklamalari*: *xuddi*, *axir*. *Axir soat yeti bo'ldi.* - Ведь уже семь часов. – *Xuddi soat beshda keldi.* - Ровно в пять часов он пришел.

23.

Modal so'zlar

(Модальные слова)

Модальные слова – это слова, выражающие отношение говорящего к высказываемой мысли.

Модальные слова могут выражать различные смысловые оттенки:

1) ясность мысли: *albatta, shubhasiz, haqiqatan, darhaqiqat*;

2) сомнение: *ehtimol, balki, hoynahoy, aftidan, chamasi*;

3) цель, условие: *kerak, lozim, zarur, darkor*;

4) утверждение: *bor, mayli, xo'p, to'g'ri, tuzuk*;

5) отрицание: *yo'q*;

6) итог: *demak, xullas, modomiki*;

7) напоминание: *darvoqe, aytgandek, aytmoqchi*;

8) сожаление: *afsus, attang, esiz*.

Например: *Demak, u darsga o'z vaqtida keladi.* - Значит, он на занятия приходит вовремя. *Holbuki, sen bu to'g'rida gapirmagan eding.* - Между прочим, ты не говорил об этом. *Yo'q, men boraman.* - Нет, я пойду. *Attang, sen konsertga yetib kelolmading.* - Жаль, что ты не успел на концерт. *Nahotki, u kelmadi?* - Неужели он не пришел?

Undov so'zlar

(Междометия)

Междометия - это неизменяемая и лишённая грамматических показателей часть речи, служащая для выражения различных чувств и волевых побуждений.

Междометия выражают удивление, радость, одобрение, печаль, приветствие, испуг, ненависть, гордость, переживание: *e, eh, ey, aha, oh, uh, him, he, ha, uf, o'ho', ura*.

Особую группу образуют междометия, служащие для выражения призыва и отгона животных, воздействия на животных: *tu-tu-tu, beh-beh, ho'o'sh, pish-pish, mosh-mosh, quray-quray, bah-bah, kisht, chu, ho'o'k!*

(Звукоподражательные слова)

Звукоподражательные слова представляют собой словесное воспроизведение различных звуковых явлений, слышимых в окружающем мире. Они имеют самостоятельное лексическое значение и особое морфологическое строение: *tars-turs, qars-qurs, yalt-yult, gumbur-gumbur, do'p-do'p* и т.д.

Звукоподражательные слова представляют собой имитацию звуков реальной действительности языковыми средствами: *dir-dir, lip-lip, gup-gup, duv-duv, shuv-shuv, qult-qult, g'ir-g'ir, yalt-yalt, mo'lt-mo'lt, miq-miq. Yuragim dir-dir titradi.* - Сердце мое дрожало.

Звукоподражательные слова в предложении могут употребляться в роли:

а) подлежащего: *Sport zalida bolalarning shov-shuvlari eshilib turar edi.* - Из спортивного зала были слышны крики детей;

б)сказуемого: *Shamol esar g'ir-g'ir, yaproqlar shildir-shildir.* - Приятно дул ветерок, шелестя листьями;

в)определения: *G'ir-g'ir shabada esib turibdi.* - Дует приятный ветерок;

г)дополнения: *Tovuqlar tu-tuga o'rganib qolgan.* - Куры привыкли к ту-ту;

д)обстоятельства: *Yuragim duk-duk urib ketdi.* - Сердце взволнованно забилося.

24.Синтаксис

Синтаксис – раздел грамматики, изучающий формы и типы предложений, структуру словосочетаний и связи слов в словосочетании и предложении.

В синтаксисе изучается прежде всего предложение, являющееся целостной грамматически организованной единицей речи.

Так как каждое предложение как отрезок связной речи, выражающий мысли, чувства и волеизъявления, строится из слов, то в синтаксисе изучаются и слова. Но они изучаются не как лексические единицы или части речи, обладающие определенными грамматическими свойствами и морфологическими формами, а как те или иные члены предложения.

Gapda so'zlarning bog'lanishi

(Связи слов в предложении)

В предложении слова могут вступать в связь как синтаксически равноправные, независимые или как неравноправные элементы (т.е. когда одно слово зависит от другого). Поэтому различаются два типа синтаксической связи: сочинительная связь – *teng bog'lanish*, подчинительная связь - *ergash bog'lanish*.

Сочинительная связь между словами может быть бессоюзной или союзной (с сочинительными союзами), для нее характерна интонация перечисления. Слова, соединенные сочинительной связью, являются равноправными однородными членами предложения. Например: *Agar butun dunyo xalqlari tinchlik ishini o'z qo'llariga olsalar, tinchlik saqlanadi va mustahkamlanadi.* – Если народы всего мира возьмут дело мира в свои руки, то мир сохранится и упрочится.

При подчинительной связи одно слово является основным - **hokim so'z**, а другое зависимым - **tobe so'z**. Основное слово требует от зависимого определенной грамматической формы. Подчинительная связь бывает трех видов: а) **moslashuv** - согласование, б) **boshqaruv** - управление, в) **bitishuv** - примыкание.

При согласовании зависимое слово ставится в том же числе и лице, что и главное. Например: *Qo'ng'iroq chalindi. Talabalar auditoriyaga kirib ketdilar.*- Прозвенел звонок. Студенты вошли в аудиторию. В данном предложении слово *qo'ng'iroq* (звонок) - главное, *chalindi* (прозвенел) - зависимое. Зависимое слово согласуется с главными в лице и в числе: *Men bugun kutubxonaga bordim.* - Я ходил сегодня в библиотеку. *Sen kecha kutubxonaga bording.*- Ты ходил вчера в библиотеку. *U bugun kutubxonaga bordi.*- Он ходил сегодня в библиотеку. *Biz bugun kutubxonaga bordik.*- Мы ходили сегодня в библиотеку. *Siz kecha*

kutubxonaga bordingiz. - Вы ходили вчера в библиотеку. *Ular bugun kutubxonaga bordilar.* - Они ходили сегодня в библиотеку.

Притяжательные определения также согласуются с определяемыми словами в лице и в числе. Определяемое слово принимает притяжательные аффиксы соответствующего лица и числа. Например: *Institutimizning binosi katta va chiroyli.* - Здание нашего института большое и красивое. *Shahrimizning ko'p binolari yangi.* - Многие здания нашего города новые. *Mening kitobim bor.* - У меня есть книга. *Sening kitobing bor.* - У тебя есть книга. *Uning kitobi bor.* - У него есть книга. *Bizning kitoblarimiz bor.* - У нас есть книги. *Sizning kitoblaringiz bor.* - У вас есть книги. *Ularning kitoblari bor.* - У них есть книги.

При управлении главное слово требует постановки зависимого в определенном падеже или сочетания с послелогом: *Men o'zbek tilini o'rganyapman.* - Я изучаю узбекский язык. *U institut yonida turadi.* - Он живёт около института.

При управлении главными словами чаще всего бывают глаголы и имена прилагательные. Имя может сочетаться с послелогом. Например:

1)управляет глагол: *Kolxozda bizga g'ishtdan uy quryaptilar; uy (nima?) quryaptilar; bizga (kimga?) quryaptilar; g'ishtdan (nimadan?) quryaptilar; kolxozda (qayerda?) quryaptilar;*

2)именное управление, когда управляющим словом является прилагательное, а имя - зависимым и поэтому имя принимает соответствующую грамматическую форму: *Dengiz ko'ldan chuqur.* - Море глубже озера. *Boshi fikr bilan to'la.* - Голова его полна мыслями.

25.

Gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari

(Типы предложений по цели высказывания)

В узбекском языке все простые предложения по цели высказывания делятся на три группы: **повествовательные:** *Bahor keldi.*— Пришла весна; **вопросительные:** *Bahor keldi?* — Весна пришла?; **побудительные:** *Bor, bor, tomosha qil!* — Ступай, ступай, повеселись! Если эти предложения произносятся с особой интонацией, эмоционально, то они могут стать восклицательными, например: *Bahor keldi!* — Весна пришла! *O'rtoq komandir men keksani quvontirdingiz, umringiz uzoq, bo'lsin!* — Товарищ командир, меня, старика, порадовали, долго жить вам!

Darak gap

(Повествовательное предложение)

Повествовательные предложения сообщают о каком-либо факте, явлении и т. п. Повествовательные предложения произносятся в среднем темпе речи и со спокойно-размеренной интонацией: *Maydonda odamlar quvonib kuladilar, sevinib yig'laydilar, notanish kishilar bir-birlarini quchoqlab o'padilar, tabriklaydilar.* (H.G'). - На площади все весело смеются, от радости плачут, незнакомые люди обнимаются, целуются, поздравляют друг друга.

So'roq gap

(Вопросительное предложение)

Вопросительными называются предложения, в которых говорящий стремится что-либо узнать от собеседника, получить от него информацию: *Bugun havo qanday?* - Какая сегодня погода? *Azimjon sizga nima dedi?* - Что говорил вам Азимджан?

В узбекском языке вопросительные предложения образуются следующим образом:

1. При помощи вопросительных слов *kim?*, *nima?*, *nega?*, *qayerga?*, *qachon?*, *nechanchi?*: *Imtihonlar qachon boshlanadi?* - Когда начнутся экзамены? Чтобы ответить на такие вопросительные предложения, необходимо заменить вопросительное слово ответным словом: *Imtihonlar iyunda boshlanadi.* - Экзамены начнутся в июне. В данном случае слово *qachon?* заменено словом *iyunda*. *Majlisda kim doklad qildi?* - Кто делал доклад на собрании? - *Majlisda Sohibov doklad qildi.* - На собрании делал доклад Сахибов. В данном случае слово *kim* заменено ответным словом *Сахибов*.

2. При помощи вопросительных частиц **-a**, **-ya**, **-mi**, **-chi**. Частица **-mi** пишется слитно, а частицы **-a**, **-ya**, **-chi** пишутся через дефис: *Sessiya boshlandimi?* - Началась ли сессия? *Imtihonlar-chi?* - А экзамены?

Buyruq gap

(Побудительное предложение)

Побудительные предложения выражают различные оттенки волеизъявления – от категорического приказа до просьбы и увещания. Сказуемое побудительного предложения выражается формами повелительного наклонения или словами, произносимыми с особой побудительной интонацией: *Bor, bor, tomosha qil!* — Ступай, ступай, повеселись!

Undov gap

(Восклицательное предложение)

Восклицательные предложения выражают различные эмоции, произносятся с особой восклицательной интонацией, более низкой, чем при вопросе, и более высокой, чем при обычном повествовании. Обычно подобные предложения употребляются при обращении, призыве, приказании: *O'rtoq komandir, men keksani quvontirdingiz, umringiz uzoq bo'lsin!* — Товарищ командир, меня, старика, порадовали, долго жить вам!

26. **Ega va uning ifodalanishi.**

(Подлежащее и способы его выражения)

Подлежащее (эга) — главный член предложения, грамматически не зависимый от других членов предложения.

Подлежащее может быть выражено любой частью речи, а также словосочетанием. В функции подлежащего используются:

1) **имя существительное:** *Talabalar leksiya yozyaptilar.* — Студенты пишут лекции;

2) **отглагольные имена:** *O'qish* — *hammaning burchi.* — Учиться — долг каждого;

3) **инфинитив:** *O'qimoq* — *yuksalmoq.* — Учиться — развиваться, расти;

4) **местоимение:** *Men universitetda o'qiyman.* — Я учусь в университете. *Bu Azizaning kitobi.* — Эта книга Азизы. *O'zi bu xatni o'qib bersin.* — Пусть сам прочтет это письмо. *Kim matn mazmunini so'zlab beradi?* — Кто расскажет содержание текста? *Hech kim kechagi shanbalikdan qolmadi.* — Никто вчерашнего субботника не пропустил;

5) **субстантивированное прилагательное:** *Aqli* — *har yerda hurmatda.* — Умный всегда в почете;

6) **числительное:** *Uch* — *toq son.* — Три — число нечетное;

7) **причастие:** *Kelganlar zalga kirishdi.* — Пришедшие вошли в зал.

Kesim va uning ifodalanishi

(Сказуемое и способы его выражения)

Сказуемое — главный член предложения, грамматически зависящий от подлежащего. Сказуемые делятся на следующие типы: именное сказуемое — *ot-kesim*: *Respublikamizning poytaxti - Toshkent.* — Столица нашей республики — Ташкент; глагольное сказуемое — *fe'l kesim*: *Biz o'zbek tilini o'rganyapmiz.* — Мы изучаем узбекский язык.

Сказуемое выражается следующими частями речи:

1. Глаголом: *Men ertaga imtihon topshiraman.* — Завтра я буду сдавать экзамен. *Ular sayohatga bormoqchilar.* — Они хотят поехать на экскурсию. *Sen imtihonlarga yaxshi tayyorlan.* — Ты хорошо готовься к экзаменам. *Uning otasi zavodda ishlagan edi.* — Его отец работал на заводе.

2. Именем существительным: Мой отец — агроном. — *Mening otam - agronom.*

В именном сказуемом аффиксы сказуемости в единой форме выражают субъект и предикат, в силу этого категория сказуемости неотделима от категории лица:

Men talabaman. - Я студент.

Sen talabasan. — Ты студент.

U talaba. — Он (она) студент.

Biz talabamiz. — Мы студенты.

Siz talabasiz. — Вы студенты.

Ular talaba(lar). — Они студенты.

3. Именем прилагательным: *Maktabning hovlisi - chiroyli.* — Двор школы красивый.

4. Именем числительным: *Bizning uyimiz - beshinchi.* - Наш дом пятый. *Uch karra uch - to'qqiz.* — Трижды три — девять.

5. Местоимением: *Eng muhimi - mana shu.* — Самое главное — вот это.

6. Наречием: *Aytish oson, bajarish qiyin.* — Сказать легко, а выполнять трудно.

7. В роли именного сказуемого также могут выступать слова *bor, yo'q, oz, ko'p*: *Bugun majlis bor.* - Сегодня (есть) собрание. *Guruhimizda ikkichilarga o'rin yo'q.* - В нашей группе нет места двоечникам. *Bu yil hosil ko'p.* — В этом году много урожая.

Сказуемое согласуется с подлежащим в лице и числе: *Men aytaman.* — Я скажу. *Siz aytasiz.* — Вы скажете. *U keladi.* - Он придет. *Ular keladilar.* — Они придут.

27. Gapning ikkinchi darajali bo'laklari

(Второстепенные члены предложения)

Второстепенные члены предложения: определение — *aniqlovchi*, дополнение — *to'ldiruvchi*, обстоятельство — *hol* — служат для пояснения главных членов предложения.

Aniqlovchi

(Определение)

Определение — второстепенный член предложения, указывающий на признак любого члена предложения, выраженного именем существительным или субстантивированной частью речи. Отвечает на вопросы *qanday?* — какой?, *qaysi?* — который?, *kimning?* — чей?, *kogo?*, *nimaning?* — чего?, *qancha?* — сколько?

Определение всегда стоит перед определяемым словом.

Определение может быть выражено:

1. Именем прилагательным: *Bizning hovlimizda chiroyli gullar ochildi.* — У нас во дворе расцвели красивые цветы. *Yaxshiroq qalamingiz yo'qmi?* — У вас нет карандаша получше? *Eng go'zal bog'lar bizning kolxozimizda.* — Самые лучшие сады — у нас в колхозе.

2. Именем числительным (все разряды числительных): *Men kutubxonadan ikkita kitob oldim.* — Я взял из библиотеки две книги. *Vali birinchi kursda o'qiydi.* — Вали учится на первом курсе.

3. Местоимением: *Bu uy akamniki.* - Этот дом моего старшего брата. *Har bir o'quvchi uy vazifasini diqqat bilan bajarishi kerak.* - Каждый ученик должен внимательно выполнять домашние задания.

4. Причастными формами на *-gan, -ar, -uvchi* и др.: *Kelgan mehmonlar zalga kirishdi.* — Пришедшие гости вошли в зал. *Sayohatga boruvchi talabalar, ertaga soat yettiga institutga yig'ilinglar.* — Студенты, едушие на экскурсию, завтра соберитесь в семь часов в институте.

5. Именем существительным: *Xalqimiz suvsiz cho'llarni oltin vodiyya aylantirmoqda.* — Наш народ превращает безводные степи в золотые долины. — *Zavod ishchilari shanbalikda aktiv qatnashdilar.* — Рабочие завода приняли активное участие в субботнике.

TO'LDIRUVCHI

(Дополнение)

Дополнение — второстепенный член предложения, обозначающий предмет, на который направлено действие, и отвечающий на вопросы дательного, винительного, местного и исходного падежей: *kimga? nimaga? kimni? nimani? kimda? nimada? kimdan? nimadan? Kim bilan? Nima bialn?*

Дополнение чаще всего относится к глаголу и обозначает объект действия: *Biz o'z Vatanimizni sevamiz.*— Мы любим свою Родину. *Xalqimizning tarixini biz kitobdan bilib olamiz.*— Мы узнаем из книг историю нашего народа. *Onam menga qaradi.*— Мать посмотрела на меня.

По характеру связи между действием и объектом различают прямое дополнение — *vositasiz to'ldiruvchi* и косвенное дополнение — *vositali to'ldiruvchi*.

Прямое дополнение обозначает предмет, на который непосредственно направлено действие, и стоит в форме винительного падежа (оформленного или неоформленного). Отвечает на вопросы *kimni?* — кого?, *nimani?* — что? На русский язык переводится также прямым дополнением в форме винительного падежа без предлога: *Talaba imtihon topshird.*— Студент сдал экзамен. *Talaba imtihonni kecha topshirdii.*— Студент сдал экзамен вчера.

Косвенное дополнение обозначает объект, на который действие направлено косвенно, и выражается формами дательного, исходного и местного падежей. Косвенное дополнение может быть выражено также словом в форме именительного падежа в сочетании с послелогом. В функции косвенного дополнения употребляются существительные, числительные, местоимения, причастия, отглагольные имена: *Men bu haqda o'qituvchidan so'radim.*— Я об этом спросил у учителя. *Dilshodda yoshlikdan ilmga havas katta edi.*—У Дилшоода с детства был большой интерес к науке. *Paxta mashina bilan teriladi.*— Хлопок собирают машинами. *Ular yangi roman haqida suhbatlashdilar.*— Они беседовали о новом романе. *Dekan sessiya to'g'risida gapirdi.*— Декан говорил о сессии.

HOL

(Обстоятельство)

Обстоятельство — это второстепенный член предложения, уточняющий характер (образ) действия, обстановку, условие, при котором совершается действие, место, время, цель, причину, меру и степень совершения действия.

Различаются следующие разряды обстоятельств:

Ravish holi—обстоятельство образа действия;

O'rin holi — обстоятельство места; 3) *payt holi* — обстоятельство времени; 4) *maqsad holi*—обстоятельство цели; 5) *sabab holi* — обстоятельство причины; 6) *daraja-miqdor holi* — обстоятельство меры и степени.

Обстоятельства отвечают на вопросы *qanday qilib?* — как? каким образом?, *qanday?* — как?, *qachon?* — когда?, *nega? nima uchun?* — почему?, *qayerda?* — где?, *nima sababdan?* — по какой причине?, *qayerdan?* — откуда?,

qayerga? — куда?, nimadan? — от чего?, qachongacha? — до каких пор?, qachondan beri? — с каких пор?

28. GAPNING UYUSHIQ BO'LAKLARI

(Однородные члены предложения)

Однородными членами предложения называются такие члены предложения, которые выполняют одинаковые синтаксические функции, относятся к одному и тому же члену предложения, отвечают на один и тот же вопрос и связаны друг с другом сочинительной связью.

Однородными могут быть и главные, и второстепенные члены предложения. Например, однородные подлежащие: *Rayonimizda maktablar, bolalar bog'chalari va magazinlar ishlayapti.* — В нашем районе строятся школы, детские сады и магазины.

Однородные сказуемые: *Men bugun o'qidim va yozdim.* — Я сегодня читал и писал.

Однородные дополнения: *Sayohat vaqtida har xil shahar va qishkoqlarni ko'rdim.* — Во время путешествия я увидел разные города и деревни,

Однородные определения: *Studentlar keng va yorug' auditoriyalarda leksiylar tinglaydilar.* — Студенты слушают лекции в просторных и светлых аудиториях.

Однородные обстоятельства: *Quruvchilarimiz binoni chiroyli va tez quradilar.* — Наши строители строят красиво и быстро.

Однородные члены предложения отделяются друг от друга запятой или сочинительными союзами.

Перед соединительными союзами *va, ham, hamda, bilan* запятая не ставится: *Maktabimizni bitirgan ba'zi o'quvchilar zavod va fabrikalarda ishlayaptilar.* — Некоторые выпускники нашей школы работают на заводах и фабриках.

Перед противительными союзами *ammo, lekin, biroq*, балки ставится запятая: *Furqat vatanidan uzoqda yashadi, lekin vatandoshlarini unutmadi.* — Фуркат жил вдали от своей родины, но соотечественников не забыл.

29. UNDALMA

(Обращение)

Обращением называется слово (или группа слов), которое называет того, к кому обращена речь. Обращение стоит в форме основного падежа. Цель обращения — побудить собеседника слушать речь объекта. Обращение произносится с особой интонацией: *Xo'sh do'stim, kayfiyating qalay?* — Ну, друг, как твое настроение? *Nigora-senga gapim bor, quloq, sol.* — Нигора, я хочу тебе что-то сказать, послушай.

Обращение может находиться: а) в начале предложения: *Qadrdonlarim! Yangi muvaffaqiyatlar bilan tabriklayman.* — Дорогие мои! Я поздравляю вас с новыми успехами; б) в середине предложения: *Eshiting hurmatli o'rtoqlar ertaga konferensiya o'z ishini davom ettiradi.* — Слушайте, дорогие товарищи, завтра

конференция продолжит свою работу; в) в конце предложения: *Nega so'zga chiqmading, Xasanboy?* — Почему не выступил, Хасанбай?

В предложении обращение выделяется запятыми. В начальном положении может отмечаться восклицательным знаком.




Nazariy ma'lumotlarni aks ettiruvchi jadval va diagrammalar.





Unli tovushlar tasnifi





Lablarning ishtirokiga ko'ra	Lablashmagan		Lablashgan	
Tilning gorizontal harakatiga ko'ra Tilning vertikal harakatiga ko'ra	Til oldi	Til orqa	Til oldi	Til orqa
Tor unlilar	i			U
O'rta keng unlilar	e			o'
Keng unlilar	a			O



Undosh tovushlar tasnifi



Ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra		Hosil bo'lish usuliga ko'ra	Hosil bo'lish o'rniga ko'ra						Bo'g'iz tovushi
			Lab tovushlari		Til tovushlari				
			Lab - lab	Lab - tish	Til oldi	Til o'rta	Til orqa		
							sayoz	chuqur	
Shovqinilar	Jarangli	Portlovchilar	b		d		g		
	Jarangsiz		p		t		k	q	
	Jarangli	Sirg'aluvchilar		v	z, j	y		g'	
	Jarangsiz			f	s, sh			x	h
	Jarangli	Qorishiqlar(affrikatlar)			j (dj)				
	Jarangsiz				ch, ts				
Sonorlar	jarangli	Burun tovushlari – portlovchi	m		n		ng		
		Yon tovush			l				
		Titroq tovush			r				











Mundarija

Soʻz boshi	3
1.Oʻzbek tili-Davlat tili.” Yer yuzida necha xil til bor?”	4
2.Oʻzbek alifbosi. Unli tovushlar tasnifi. “Yetti xazina nima?”	6
3.Undosh tovushlar tasnifi, urgʻu, boʻgʻin. Eʼlon va ariza.....	7
4. Soʻz tarkibi haqida maʼlumot. “Oʻzbekiston”	10
5. Leksikologiya. Sinonim, omonim, antonym.”Toshkent”	12
6. Soʻz tyrkumlari.” Abu Ali ibn Sino”	15
7. Ot- soʻz turkumi. “ Buxoro”	16
8. Kelishik kategoriyasi. “Xiva”	18
9. Egalik kategoriyasi. Tarjimai hol.....	19
10. Sifat – soʻz turkumi. “Samarqand”	22
11.Sifat darajalari. “ Navroʻz”	24
12. Son-soʻz turkumi. Vaqt hisobi. “Bizning institut”	25
13.Olmosh – soʻz turkumi. “Oʻzbekistonning nabotot dunyosi”	28
14.Soroq, boʻlishsizlik, gumon, belgilash olmoshlari.”Mirzo Ulugʻbek” ..	30
15.Feʼl- soʻz turkumi. “ Kutubxona.....	31
16.Feʼl nisbatlari. “Bozorda”	33
17.Feʼl mayllari. “Oʻzbekistonning hayvonot olami”	35
18.Harakat nomi. “Yil fasllari”	37
19Sifatdosh.”Milliy va zamonaviy bayramlar”	40
20. Ravishdosh. “Salomatlik tuman boylik”	42
21.Ravish – soʻz turkumi “Ekologik tanglik xavfi”	44
22. Yordamchi soʻz turkumlari. “ Informatika fani”	47
23. Alohida soʻzlar guruhi. “Informatika fani”	49
24.Sintaksis. Soʻz birikmasi.”Informatsion texnologiyalar”	51
25. Gap. “Informatsion texnologiyalar”	52
26. Bosh boʻlaklar.”Hisoblash texnikasi tarixiy taraqqiyoti”	54
27.Ikkinchi darajali boʻlaklar.”Hisoblash texnikasi tarixiy taraqqiyoti “...	56
28.Uyushiq boʻlaklar. “ EHM avlodlarining qisqacha tavsifi”	58
29.Undalma.”Axborot yigʻuvchilar”	60
30.Yakunlovchi mashgʻulot. “Dasturlash tizimi”	62
Mavzular yuzasidan nazariy maʼlumotlar.....	65
Nazariy maʼlumotlarni aks ettiruvchi jadval va diagrammalar.....	107
Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati.....	113.